Ikki o‘lchovli parabolik tipdagi tenglamalarni yechish jarayonini o‘rganish hamda uni texnika va tabiiy bilimlar rivojida qo‘llash muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Bu kabi differensial tenglamalarni aviatsiya, atom energetikasi, kosmik raketalar texnikasi rivoji issiqlik almashinuvning yanada yangi masalalarini yechishda hamda shu bilan birga mavjud va yangi nazariyalarga to‘lalik va ishonchlilik shartlarini qat’iy talab asosida ishlab chiqilmoqda. XXI asrga kelib esa issiqlik almashinish hodisalarining tadqiqi va qo‘llanilishi jadalligi doirasi keskin kengaytirish maqsadida ushbu malalardan keng foydalanilmoqda. Hozirda bu masalalar texnika (kimyoviy texnologiya, metallurgiya, qurilish ishlari, neftni qayta ishlash, mashinasozlik, agrotexnika va hokazo) va asosiy tabiiy fanlar (biologiya, geologiya, atmosfera va okean fizikasi va hokazo)ning yetakchi yo‘nalishiga kiradi. Hozirgi kunda issiqlik almashinuvi jarayonlarining nazariy tadqiqi differensial masalalarning natijalarini maxsus texnik dasturiy ta’minot yordamida sonli modellashtirishga asoslangan. Bugungi kunga kelib xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishning hisoblash usullari rivoji va zamonaviy hisoblash texnikalarining takomillashishi hisobiga ana shunday yutuqlarga erishilmoqda. Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda issiqlik almashinish jarayonlarini sonli modellashtirish zamonaviy fan va texnika uchun ishonchli taxminlarni eksperimentlar yo‘li bilan laboratoriya va tabiiy sharoitda o‘rganish juda murakkab, qimmat va ba’zi hollarda umuman mimkin bo‘lmaganligi uchun muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Issiqlik almashinish jarayonlarini ikki o‘lchovli differensial masalalar natijalari orqali sonli modellashtirish har xil ilimiy-tadqiqot, loyihalashtiriah va ishlab chiqarish ishlarida amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinmoqda. Quyida parabolik tipdagi tenglamali chegaraviy masalalarini chekli ayirmalar usuli yordamida sonli yechishning qisqacha nazariy asoslari, mustaqil o‘zlashtirishga oid adabiyotlarlardan keng miqiyoda qo‘llash hamda ulardan foydalanishga imkon yaratmoqda. Differensial tenglamalar — noma’lum funksiyalar, ularning turli tartibli hosilalari va erkli o‘zgaruvchilar ishtirok etgan tenglamalar. Bu tenglamalarda noma’lum funksiya i orqali belgilangan bo‘lib, birinchi ikkitasida i bitta erkli o‘zgaruvchi t ga, keyingilarida esa mos ravishda x, t va x, u, z erkli o‘zgaruvchilarga bog‘liqdir. Differensial tenglama nazariyasi 17-asr oxirida differensial va integral hisobning paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda rivojlana boshlagan. Differensial tenglama matematikada, ayniqsa, uning tatbiklarida juda katta ahamiyatga ega. Fizika, mexanika, iqtisodiyot, texnika va boshqa sohalarning turli masalalarini tekshirish differensial tenglamani yechishga olib keladi.

Xususiy hosilali differensial tenglama bu tenglamalarning oddiy differensial tenglamadan farqli muhim xususiyati shundan iboratki, ularning barcha yechimlari

ISSN 3030-3907

to‘plami, ya’ni "umumiy yechimi" ixtiyoriy o‘zgarmaslarga emas, balki ixtiyoriy funksiyalarga bog‘liq bo‘ladi; umuman, bu ixtiyoriy funksiyalarning soni differensial tenglamaning tartibiga teng; ularning erkli o‘zgaruvchilari soni esa izlanayotgan yechim o‘zgaruvchilari sonidan bitta kam bo‘ladi. Bir noma’lumli 1-tartibli xususiy hosilali.

Tadqiqot motodologiyasi

Differensial tenglamani yechish oddiy differensial tenglama sistemasini yechishga olib keladi. Tartibi birdan yuqori bo‘lgan xususiy hosilali differensial tenglama nazariyasida Koshi masalasi bilan bir katorda turli chegaraviy masalalar tekshiriladi. Issiqlik o‘tkazuvchanlik nazariyasining chiziqli chegaraviy masalalarini yechish uchun qo‘llaniladigan usullar:

Klassik usullar: o‘zgaruvchilarni ajratish usuli (Furye usuli); manba funksiya- lari (Grin funksiyasi) usuli; issiqlik potensiallari usuli;

Integral akslantirishlar usullari: cheksiz limitlarda; chekli limitlarda (bularda integral akslantirish yadrosi jismning shakli va chegaraviy shartlarga qarab har xil tanlanadi);

Issiqlik o‘tkazuvchanlik nazariyasining nochiziqli chegaraviy masalalariniyechish uchun qo‘llaniluvchi usullar:

Variatsion usullar: Rits usuli; L.V.Kantorovich usuli; Treffts usuli; Bio usuli; Kurant usuli; Leybenzon usuli;

Chiziqlilashtirish usullari (nochiziqli chegaraviy masalani chiziqliga keltirish): o‘rniga qo‘yish usullari (algebraik va integral); chiziqlilashtirish uslublari; ketma-ket yaqinlashishlar usullari; qo‘zgalishlar usuli (kichik para-metr usuli);

Chegaraviy masalani boshqa turdagi tenglama va masalalarga keltirish usul-lari: nochiziqli chegaraviy shartlar bilan berilgan chegaraviy masalalarni unga ekvivalent bo‘lgan nochiziqli funksional tenglamalarga, temperaturadan bog‘liq bo‘lgan uzatish koeffisiyenti bilan berilgan chegaraviy masalani nochiziqli integral tenglamalarga, issiqlik o‘tkazuvchanlikning chegaraviy masalasini oddiy differensial tenglamali chegaraviy masalaga keltirish.

Keltirilgan usullarning bu klassifikatsiyasi shartli, chunki ba’zi usullar bir vaq- tning o‘zida bir necha usullar guruhlariga kirishi mumkin, ba’zilari esa ushbu klassi- fikatsiyaga kirmay qolmoqda.

Quyidagi ikki o‘lchovli parabolik tipdagi differensial tenglamaga qo‘yilgan chegaraviy masalani sonli usullardan foydalanib yechish kerak bo‘lsin. Soddalashtirish uchun quyidagicha chegaraviy masalada qaralayotgan sohani $G\{0<x<1,\ 0<y<1\}$ deb olaylik. U holda chegaraviy masala matematik modelini quyidagicha yozishimiz mumkin.

ISSN 3030-3907

$$\frac{\partial P}{\partial t} = \frac{\partial^2 P}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 P}{\partial y^2} + f(x,y) \tag{1}$$

Umumiy holda boshlang‘ich va chegara shartlarini quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{cases} -\left.\frac{\partial P}{\partial x}\right|_{x=0} = \alpha(P_A - P), & x = 0; \\ \left.\frac{\partial P}{\partial x}\right|_{x=1} = \alpha(P_B - P), & x = 1; \\ -\left.\frac{\partial P}{\partial y}\right|_{y=0} = \alpha(P_C - P), & y = 0; \\ \left.\frac{\partial P}{\partial y}\right|_{y=1} = \alpha(P_D - P), & y = 1; \end{cases} \quad P(x,y,t) = \phi(x,y), \quad t = 0; \tag{2}$$

(3)

bu yerda

- P – izlanayotgan, qiymati hisoblanuvchi funksiya;
- P_A, P_B, P_C, P_D - P funksiyaning chegaradagi qiymati;

$$\alpha = \begin{cases} 0, & \textit{chegara mahkamlangan} \\ 1, & \textit{chegara mahkamlanmagan.} \end{cases}$$

Olingan natijalarni to‘g‘riligini va matematik modelning addekvatligini tekshirish maqsadida chegaraviy masalaning analitik yechimini quyidagicha olamiz

$$P(x,y,t) = e^{-2xyt}.$$

U holda chegaraviy va boshlang‘ich shartlar quyidagicha bo‘ladi

$$\begin{cases} P(x,y,0) = 1, \\ P(0,y,t) = 1, \\ P(1,y,t) = e^{-2yt} \\ P(x,0,t) = 1, \\ P(x,1,t) = e^{-2xt}, \end{cases} \tag{4}$$

$$f(x,y,t) = -2(2t^2(x^2 + y^2)) + xye^{-2xyt} \tag{5}$$

Chegaraviy masalani sonli usulda yechish uchun sohani quyidagi diskret sohaga almashtiramiz. Buning uchun quyidagi to‘rni qo‘ramiz.

ISSN 3030-3907

$$\Omega_{h\tau} = \{x = ih, y = ih,\ i = 0,1,...,N,\ h = \frac{1}{N},\quad t_j = j\tau,\ j = 0,1,...,N_0,\quad \tau = \frac{1}{N_0}\}.$$

Bu diskret sohada masalani sonli usulda yechish uchun o‘zgaruvchilarning yo‘nalish sxemasiga asoslangan chekli ayirmalar usulini qo‘llaymiz. Bu usulda bir vaqt qatlamidan ikkinchisiga o‘tish 0.5τ qadam bilan ikki bosqichda amalga oshiriladi. Chekli ayirmali tenglamani operatorli formada *i, j* indekslarini tashlab, quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{P^{k+0.5} - P^k}{0.5\tau} = \Lambda_1 P^{k+0.5} + \Lambda_2 P^k + f(x,y,t), \tag{6}$$

$$\frac{P^{k+1} - P^{k+0.5}}{0.5\tau} = \Lambda_1 P^{k+0.5} + \Lambda_2 P^{k+1} + f(x,y,t). \tag{7}$$

U holda chekli ayirmali tenglamalar tizimi *k+0.5* va *k+1* vaqt qatlamlarida quyidagicha bo‘ladi.

$$a_i P_{i-1,j}^{k+0.5} - b_i P_{i,j}^{k+0.5} + c_i P_{i+1,j}^{k+0.5} = -d_i, \tag{8}$$

$$a_j P_{i,j-1}^{k+1} - b_j P_{i,j}^{k+1} + c_j P_{i,j+1}^{k+1} = -d_j. \tag{9}$$

Bu yerda:

$$a_i = \frac{1}{h^2}; \qquad b_i = 2(\frac{1}{h^2} + \frac{1}{\tau}); \qquad c_i = \frac{1}{h^2}; \tag{10}$$

$$d_i = \frac{2}{\tau} P_{i,j}^k + \frac{P_{i,j-1}^k - 2P_{i,j}^k + P_{i,j+1}^k}{h^2} + (-2(2t^2(x^2+y^2)) + xye^{-2xyt}), \tag{11}$$

$$a_j = \frac{1}{h^2}; \qquad b_j = 2(\frac{1}{h^2} + \frac{1}{\tau}); \qquad c_j = \frac{1}{h^2}; \tag{12}$$

$$d_j = \frac{2}{\tau} P_{i,j}^{k+0.5} + \frac{P_{i,j-1}^{k+0.5} - 2P_{i,j}^{k+0.5} + P_{i,j+1}^{k+0.5}}{h^2} + (-2(2t^2(x^2+y^2)) + xye^{-2xyt}). \tag{13}$$

Chekli ayirmalar tizimining birinchi tenglamani (*k+0.5* vaqt qatlamida) yechish uchun progonka usulini ishlatamiz. Progonka usuliga ko‘ra uning sonli yechimi:

$$P_i = A_i P_{i+1} + B_i \qquad (i = n-1,...,1) \tag{14}$$

formuladan aniqlanadi.

ISSN 3030-3907

Bu yerda A_i, B_i - progonka koeffitsientlari bo‘lib, ular quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$A_i = \frac{c_i}{b_i + a_i A_{i-1}}; \qquad B_i = \frac{a_i B_{i-1} + d_i}{b_i + a_i A_{i-1}}; \tag{15}$$

Progonka koeffitsientlari boshlang‘ich qiymatlari A_0, B_0 chegaraviy shartlardan aniqlanadi. Umumiy holdagi (3) birinchi chegaraviy shart uchun quyidagicha:

$$A_0 = \frac{b_1 - 4c_1}{a_1 - (3 - 2\Delta x)c_1}; \qquad B_0 = \frac{d_1}{a_1 - (3 - 2\Delta x)c_1}. \tag{16}$$


Yuqorida ishlatilgan aniq misol uchun (4) funksiya qiymati o‘ng chegaradagi formula bilan aniqlanadi.

$$P_{N,j}^{k+0.5} = e^{-2yt}, \qquad A_0, B_0 ? \tag{17}$$

Xuddi shunday, bu sxema ikkinchi chekli ayirmali tenglamani yechish (*k+1* vaqt qatlamida) uchun ham o‘rinlidir.

Tahlil va natijalar

Hisob natijalari. Yuqorida keltirilgan misol asosida MATLAB dasturida model yaratildi, uning natijalari 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. MATLAB dasturi hisobi natijalari.

Xulosa

Ikki o‘lchovli parabolik differensial tenglamalarni yechish algoritmlari asosan sonli usullar asosida qurilgan bo‘lib, ular fizik jarayonlarning aniq tavsiflari va real holatlar bilan moslashish uchun juda muhim. Farqlash va element metodlari bu tenglamalarni yechishda eng ko‘p ishlatiladigan usullardir. Amaliyotda, turli xil

ISSN 3030-3907

dasturlar yordamida ushbu tenglamalar yechimi va model natijalari hisoblab chiqilib, natijalar tahlil qilinadi, shuningdek, bu model va yechimlar ilmiy tadqiqotlar hamda sanoat sohalarida keng qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ravshanov N., Nazirova E. 2018 Numerical simulation of filtration processes of strongly polluted oil in a porous medium PONTE International Journal of Sciences and Research 74 107-116 CrossrefGoogle Scholar

2. Sadullayeva Sh.A. 2016 Numerical investigation of solutions to a reaction-diffusion system with variable density J. Sib. Fed. Univ. Math. Phys. 9 90-101 https://doi.org/10.17516/1997-1397-2016-9-1-90-101 CrossrefGoogle Scholar

3. Martinenko A.V., Tedeev A.F.:On the behavior of solutions to the Cauchy problem for a degenerate parabolic equation with inhomogeneous density and a source. Comput. Math. Math. Phys. 48(7), 1145–1160 (2008) MathSciNetCrossRefGoogle Scholar

4. Ne’matov A.A., Nazirova E.Sh., Sadikov R.T. 2021 On numerical method for modeling oil filtration problems in piecewise-inhomogeneous porous medium. https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1757-899X/1032/1/012018

5. Ne’matov A.A., Nazirova E.Sh., Sadikov R.T., I. Nabiyev 2021 One-Dimensional Mathematical Model and a Numerical Solution Accounting Sedimentation of Clay Particles in Process of Oil Filtering in Porous Medium. https://link.springer.com/chapter/10.1007%2F978-3-030-68449-5_35

ISSN 3030-3907

UCH O‘LCHAMLI NILPOTENT ALGEBRANING DIFFERENSIALLASHI LOKAL VA IKKI LOKAL DIFFERENSIALLASHI

Boydadayev Islomjon G‘anijon o‘g‘li
University of Business and Science, “Innovatsion texnologiyalar” kafedrasi o‘qituvchisi
Email:boydadayevislomjon06@gmail.com
Tel: 93 496 51 97
Ermatov Jamoldin Saloxiddin o‘g‘li
University of Business and Science, “Innovatsion texnologiyalar” kafedrasi o‘qituvchisi
Email: ermatovjamoldin578@gmail.com
Tel: 99 515 08 98,
Xajimirzayeva Nargiza Abduhakimovna
IIV Namangan akademik litsey matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Differensiallash matematikaning fundamental tushunchalaridan biri hisoblanadi. Differensiallashlar algebra fanida ham muhim o‘rin tutadi. Differensiallashlarning turli umumlashmalari mavjud. Bular sarasiga antidifferensiallashlar, δ-differensiallashlar, ternar differensiallashlar va (α,β,γ)-differensiallashlar kiradi. Ushbu ishda uch o‘lchamli nilpotent algebralarning differensiallashi lokal va ikki lokal differensiallashi isboti bilan ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Differensiallash, Algebra, lokal differensiallash va ikki lokal differensiallash, chiziqli akslatirish.

Аннотатция. Дифференциация — одно из фундаментальных понятий математики. Дифференциации также играют важную роль в алгебре. Существуют различные обобщения дифференциаций. К ним относятся антидифференциации, δ-дифференциации, тернарные дифференциации и (α,β,γ)-дифференциации. В данной работе демонстрируется дифференциация трехмерных нильпотентных алгебр путем доказательства локальной и билокальной дифференциации.

Ключевые слова: Дифференцирование, алгебра, локальное дифференцирование и два локальных дифференцирования, линейное отражение.

Abstract. Differentiation is one of the fundamental concepts of mathematics. Differentiations also play an important role in algebra. There are various generalizations of differentiations. These include antidifferentiations, δ-differentiations, ternary differentiations, and (α,β,γ)-differentiations. In this paper,

ISSN 3030-3907

the differentiation of three-dimensional nilpotent algebras is shown by proving local and bilocal differentiation.

Key words: Differentiation, Algebra, local differentiation and two-local differentiation, linear mapping.

I. KIRISH

1-§. Masalaning qo‘yilishi

Hozirgi kunda jahonda differensiyalashlar nazariyasi bilan bir qatorda, operator algebralarida lokal va 2-lokal differensiyalashlar nazariyasi ham muhim hisoblanadi. So’nggi 20 yil davomida fon Neyman algebralari C^*- algebralari va JB^*- uchliklarda lokal va 2- lokal differensiallashlar nazariyasini o’rganish bo’yicha samarali natijalarga erishildi. Lokal differensiallashlarni o’rganish 1990-yilda R.B.Kadison va D.R.Larson hamda A.S.Sururlar tomonidan boshlangan.

Ixtiyoriy uch o’lchamli nilpotent algebra bazislari $\{e_1, e_2, e_3\}$ bo’lgan quyidagi o’zaro izomorf bo’lmagan algebralarning biriga izomorf bo’ladi:

N_1: $e_1^2=e_2$,$e_2^2 = e_3$ N_2: $e_1^2 = e_2$, $e_2e_1 = e_3$, $e_2^2 = e_3$

N_3: $e_1^2 = e_2$, $e_2e_1 = e_3$ $N_4(\alpha)$: $e_1^2 = e_2$, $e_1e_2 = e_3$, $e_2e_1 = \alpha e_3$

N_5: $e_1^2 = e_2$ N_6: $e_1^2 = e_3$, $e_2^2 = e_3$

N_7: $e_1e_2 = e_3$, $e_2e_1 = -e_3$ $N_8(\alpha)$: $e_1^2 = \alpha e_3$, $e_2e_1 = e_3$, $e_2^2 = e_3$

II.ADABIYOTLAR TAHLILI

Differensiallashning ko’plab umumlashmalari mavjud. Eng asosiy umumlashmasi bu lokal va 2-lokal umumlashmalari hisoblanadi. So’ngi yillarda ko’plab olimlar lokal va 2- lokal differensiallashlarga oid ko’plab maqolalar chop etishdi[1- 3] operator algebralarida lokal va 2-lokal differensiyalashlar nazariyasi ham muhim hisoblanadi

III.TADQIQOT METODOLOGIYASI

1-Ta’rif. Agar N algebaradan olingan ixtiyoriy x, y elementlar uchun

$$d(x \cdot y) = d(x) \cdot y + x \cdot d(y)$$

Tenglik bajarilsa d akslantirish qaralayotgan N algebrada differensiallash deb ataladi.

$d(x) = Ax$ chiziqli akslantirishni qaraylik, bu yerda A – 3×3 o’lchamli kvadrat matritsa. Ravshanki, agar $N_4(\alpha)$ algebaradan olingan ixtiyoriy x, y elementlar uchun

$$A(xy) = (Ax)y + x(Ay) \qquad (1)$$

tenglik bajarilsa $d(x) = Ax$ akslantirish qaralayotgan $N_4(\alpha)$ algebrada differensiallashdan iborat bo’ladi.

ISSN 3030-3907

R haqiqiy sonlar maydoni ustida aniqlangan $\{e_1, e_2, e_3\}$ bazisli nilpotent algebra $N_4(\alpha)$ berilgan. Bu algebrada ko‘paytirish jadvali quyidagicha aniqlanadi:

$$e_1^2 = e_2, e_1e_2 = e_3, e_2e_1 = \alpha e_3$$

$N_4(\alpha)$ algebrada ihtiyoriy x vektorni

$$x = x_1e_1 + x_2e_2 + x_3e_3$$

ko‘rinishda yozishmumkin. $d : N_4(\alpha) \to N_4(\alpha)$ akslantirishni qaraylik.

1-tarifga ko‘ra $d(x) = Ax$ chiziqli akslantirishni qaraylik, bu yerda A – 3×3 o‘lchamli kvadrat matritsa. Ravshanki, agar $N_4(\alpha)$ algebaradan olingan ixtiyoriy x, y elementlar uchun

$$A(xy) = (Ax)y + x(Ay)$$

Tenglik bajarilsa $d(x) = Ax$ akslantirish qaralayotgan $N_4(\alpha)$ algebrada differensiallashdan iborat bo‘ladi.

1-Teorema. $d(x) = Ax$ akslantirish $N_4(\alpha)$ algebrada differensiallashdan iborat bo‘lishi uchun A matritsa

$$A = \begin{pmatrix} a_{1,1} & 0 & 0 \\ a_{2,1} & 2a_{1,1} & 0 \\ a_{3,1} & (\alpha+1)a_{2,1} & 3a_{1,1} \end{pmatrix} \qquad (5)$$

ko‘rinishda bo‘lishi zarur va yetarli.

Isbot. Zarurligi. $d(x) = Ax$ akslantirish $N_4(\alpha)$ algebrada differensiallashdan iborat bo‘sin. U holda

$$A = \begin{pmatrix} a_{1,1} & a_{1,2} & a_{1,3} \\ a_{2,1} & a_{2,2} & a_{2,3} \\ a_{3,1} & a_{3,2} & a_{3,3} \end{pmatrix}$$

Matritsa ixtiyoriy x, y vektorlar uchun (1) tenglikni qanoatlantirishi kerak.

Xususan $e_1e_1 = e_2$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_1)e_1 + e_1(Ae_1) = A(e_2)$$

qaraylik:

$$Ae_1 = \begin{pmatrix} a_{1,1} & a_{1,2} & a_{1,3} \\ a_{2,1} & a_{2,2} & a_{2,3} \\ a_{3,1} & a_{3,2} & a_{3,3} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \\ 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11} \\ a_{21} \\ a_{3,1} \end{pmatrix} = a_{1,1}e_1 + a_{2,1}e_2 + a_{3,1}e_3$$

$$Ae_2 = \begin{pmatrix} a_{1,1} & a_{1,2} & a_{1,3} \\ a_{2,1} & a_{2,2} & a_{2,3} \\ a_{3,1} & a_{3,2} & a_{3,3} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \\ 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{1,2} \\ a_{2,2} \\ a_{3,2} \end{pmatrix} = a_{1,2}e_1 + a_{2,2}e_2 + a_{3,2}e_3$$

$$(Ae_1)e_1 = (a_{1,1}e_1 + a_{2,1}e_2 + a_{3,1}e_3)e_1 = a_{1,1}e_2 + \alpha a_{2,1}e_3$$

$$e_1(Ae_1) = e_1(a_{1,1}e_1 + a_{2,1}e_2 + a_{3,1}e_3) = a_{1,1}e_2 + a_{2,1}e_3$$

$$a_{1,1}e_2 + \alpha a_{2,1}e_3 + a_{1,1}e_2 + a_{2,1}e_3 = a_{1,2}e_1 + a_{2,2}e_2 + a_{3,2}e_3$$

$$2a_{1,1}e_2 + (\alpha+1)a_{2,1}e_3 = a_{1,2}e_1 + a_{2,2}e_2 + a_{3,2}e_3$$

bundan

$$a_{2,2} = 2a_{1,1} \ , \quad a_{1,2} = 0 \ , \quad a_{3,2} = (\alpha+1)a_{2,1}$$

ISSN 3030-3907

$$Ae_2 = 2a_{1,1}e_2 + (\alpha+1)a_{2,1}e_3$$

tengliklarni aniqlaymiz.

Endi $e_1e_2 = e_3$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_1)e_2 + e_1(Ae_2) = A(e_3)$$

qaraylik:

$$(Ae_1)e_2 = (a_{1,1}e_1 + a_{2,1}e_2 + a_{3,1}e_3)e_2 = a_{1,1}e_3$$

$$e_1(Ae_2) = e_1\left(2a_{1,1}e_2 + (\alpha+1)a_{2,1}e_3\right) = 2a_{1,1}e_3$$

$$a_{1,1}e_3 + 2a_{1,1}e_3 = a_{1,3}e_1 + a_{2,3}e_2 + a_{3,3}e_3$$

bundan

$$a_{1,3} = 0\,, \qquad a_{2,3} = 0, \qquad a_{3,3} = 3a_{1,1}\,, \quad Ae_3 = 3a_{1,1}e_3$$

tengliklarni aniqlaymiz.

Endi $e_1e_3 = 0$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_1)e_3 + e_1(Ae_3) = A(0)$$

qaraylik:

$$(Ae_1)e_3 = \left(a_{1,1}e_1 + a_{2,1}e_2 + a_{3,1}e_3\right)e_3 = 0$$

$$e_1(Ae_3) = e_1 3a_{1,1}e_3 = 0$$

$$0 = 0$$

bo‘ldi.

Endi $e_2e_1 = \alpha e_3$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_2)e_1 + e_2(Ae_1) = A(\alpha e_3)$$

qaraylik:

$$(Ae_2)e_1 = (2a_{1,1}e_2 + (\alpha+1)a_{2,1}e_3)e_1 = 2\alpha a_{1,1}e_3$$

$$e_2(Ae_1) = e_2\left(a_{1,1}e_1 + a_{2,1}e_2 + a_{3,1}e_3\right) = \alpha a_{1,1}e_3$$

$$2\alpha a_{1,1}e_3 + \alpha a_{1,1}e_3 = 3\alpha a_{1,1}e_3$$

$$3\alpha a_{1,1}e_3 = 3\alpha a_{1,1}e_3$$

bundan

$$3\alpha a_{1,1} = 3\alpha a_{1,1}$$

bo‘ladi

Endi $e_2e_2 = 0$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_2)e_2 + e_2(Ae_2) = A(0)$$

qaraylik:

$$(Ae_2)e_2 = (2a_{1,1}e_2 + (\alpha+1)a_{2,1}e_3)e_2 = 0$$

ISSN 3030-3907

$$e_2(Ae_2) = e_2(2a_{1,1}e_2 + (\alpha+1)a_{2,1}e_3) = 0$$
$$0 = 0$$

bo‘ladi

Endi $e_2e_3 = 0$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_2)e_3 + e_2(Ae_3) = A(0)$$

qaraylik:

$$(Ae_2)e_3 = (2a_{1,1}e_2 + (\alpha+1)a_{2,1}e_3)e_3 = 0$$
$$e_2(Ae_3) = e_2 3a_{1,1}e_3 = 0$$
$$0 = 0$$

bo‘ladi.

Endi $e_3e_1 = 0$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_3)e_1 + e_3(Ae_1) = A(0)$$

qaraylik:

$$(Ae_3)e_1 = 3a_{1,1}e_3e_1 = 0$$
$$e_3(Ae_1) = e_3(a_{1,1}e_1 + a_{2,1}e_2 + a_{3,1}e_3) = 0$$
$$0 = 0$$

bo‘ladi.

Endi $e_3e_2 = 0$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_3)e_2 + e_3(Ae_2) = A(0)$$

qaraylik:

$$(Ae_3)e_2 = 3a_{1,1}e_3e_2 = 0$$
$$e_3(Ae_2) = e_3(2a_{1,1}e_2 + (\alpha+1)a_{2,1}e_3) = 0$$
$$0 = 0$$

bo‘ladi.

Endi $e_3e_3 = 0$ tenglikdan foydalanib quyidagi ayniyatni

$$(Ae_3)e_3 + e_3(Ae_3) = A(0)$$

qaraylik:

$$(Ae_3)e_3 = 3a_{1,1}e_3e_3 = 0 \quad , \quad e_3(Ae_3) = e_3 3a_{1,1}e_3 = 0$$
$$0 = 0$$

bo‘ladi.

Yetarliligi. Endi A matritsa (5) ko‘rinishda bo‘lsa $d(x) = Ax$ chiziqli akslantirish differensiallashdan iboratligini ko‘rsataylik.

$$xy = (x_1e_1 + x_2e_2 + x_3e_3)(y_1e_1 + y_2e_2 + y_3e_3) =$$
$$= x_1y_1e_2 + (x_1y_2 + \alpha x_2y_1)e_3$$

tenglikka ko‘ra

ISSN 3030-3907

$$A(xy) = \begin{pmatrix} a_{1,1} & 0 & 0 \\ a_{2,1} & 2a_{1,1} & 0 \\ a_{3,1} & (\alpha+1)a_{2,1} & 3a_{1,1} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 0 \\ x_1y_1 \\ x_1y_2 + \alpha x_2y_1 \end{pmatrix} =$$

$$2a_{1,1}x_1y_1e_2 + ((\alpha+1)a_{2,1}x_1y_1 + 3a_{1,1}(x_1y_2 + \alpha x_2y_1))e_3$$

boshqa tamondan

$$Ax = \begin{pmatrix} a_{1,1} & 0 & 0 \\ a_{2,1} & 2a_{1,1} & 0 \\ a_{3,1} & (\alpha+1)a_{2,1} & 3a_{1,1} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix} = a_{1,1}x_1e_1 + (a_{2,1}x_1 + 2a_{1,1}x_2)e_2 +$$

$$(a_{3,1}x_1 + (\alpha+1)a_{2,1}x_2 + 3a_{1,1}x_3)e_3$$

$$(Ax)y = (a_{1,1}x_1e_1 + (a_{2,1}x_1 + 2a_{1,1}x_2)e_2 +$$

$$(a_{3,1}x_1 + (\alpha+1)a_{2,1}x_2 + 3a_{1,1}x_3)e_3)(y_1e_1 + y_2e_2 + y_3e_3) =$$

$$a_{1,1}x_1y_1e_2 + (a_{1,1}x_1y_2 + \alpha(a_{2,1}x_1 + 2a_{1,1}x_2)y_1)e_3$$

$$Ay = \begin{pmatrix} a_{1,1} & 0 & 0 \\ a_{2,1} & 2a_{1,1} & 0 \\ a_{3,1} & (\alpha+1)a_{2,1} & 3a_{1,1} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} y_1 \\ y_2 \\ y_3 \end{pmatrix} = a_{1,1}y_1e_1 + (a_{2,1}y_1 + 2a_{1,1}y_2)e_2 +$$

$$(a_{3,1}y_1 + (\alpha+1)a_{2,1}y_2 + 3a_{1,1}y_3)e_3$$

$$x(Ay) = (x_1e_1 + x_2e_2 + x_3e_3)(a_{1,1}y_1e_1 + (a_{2,1}y_1 + 2a_{1,1}y_2)e_2 +$$

$$(a_{3,1}y_1 + (\alpha+1)a_{2,1}y_2 + 3a_{1,1}y_3)e_3) =$$

$$a_{1,1}x_1y_1e_2 + ((a_{2,1}y_1 + 2a_{1,1}y_2)x_1 + \alpha a_{1,1}x_2y_1)e_3$$

Yuqoridagi xisoblashlar (5) tenglik to‘g‘riligini ko‘rsatadi.

Teorema isbotlandi.

Endi biz lokal differensiallashni ko‘rib chiqamiz.

2-Teorema. Agar Δ matritsasi pastki uchburchak shaklda bo‘lsa, $N_4(\alpha)$ dagi Δ chiziqli akslantirish lokal differensiallash bo`ladi.

Isboti. Δ- $N_4(\alpha)$ bo‘yicha ixtiyoriy lokal differensiallash bo‘lsin va Δ matritsasi

$$A = \begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} & b_{13} \\ b_{21} & b_{22} & b_{23} \\ b_{31} & b_{32} & b_{33} \end{pmatrix}$$

bo‘lsin. Barcha $x = x_1e_1 + x_2e_2 + x_3e_3$ uchun ta’rifga ko‘ra $N_4(\alpha)$ ustida A differensiallash mavjudki

$$\Delta(x) = A_x\,(x)$$

tenglik o`rinli.

2-teoremaga ko`ra $A_x$ differensiallash quyidagi ko`rinishga ega bo`lsin

ISSN 3030-3907

$$A_x = \begin{pmatrix} \beta_x & 0 & 0 \\ \gamma_x & 2\beta_x & 0 \\ \delta_x & (\alpha+1)\gamma_x & 3\beta_x \end{pmatrix}$$

$x = e_1, x = e_2, x = e_3$ larni tanlab va $\Delta(x) = A_x(x)$ tenglikdan foydalanib, ya`ni $A\bar{x} = A_x\bar{x}$ ga ko`ra $b_{12} = b_{13} = b_{23} = 0$ natijaga ega bo`lamiz. Bu yerda $\bar{x} - x$ ga mos vektor. Bundan A matritsa

$$A = \begin{pmatrix} b_{11} & 0 & 0 \\ b_{21} & b_{22} & 0 \\ b_{31} & b_{32} & b_{33} \end{pmatrix}$$

ko`rinishga keladi.

Yana $\nabla(x) = A_x(x)$ dan foydalanib, ya'ni $A\bar{x} = A_x\bar{x}$ ga ko`ra

$$\begin{pmatrix} b_{11} & 0 & 0 \\ b_{21} & b_{22} & 0 \\ b_{31} & b_{32} & b_{33} \end{pmatrix}\begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \beta_x & 0 & 0 \\ \gamma_x & 2\beta_x & 0 \\ \delta_x & (\alpha+1)\gamma_x & 3\beta_x \end{pmatrix}\begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}$$

Tenglamalar sistemasiga ega bo`lamiz.

$$\begin{cases} \beta_x x_1 = b_{1,1}x_1 \\ \gamma_x x_1 + 2\beta_x x_2 = b_{2,1}x_1 + b_{2,2}x_2 \\ \delta_x x_1 + (\alpha+1)\gamma_x x_2 + 3\beta_x x_3 = b_{3,1}x_1 + b_{3,2}x_2 + b_{3,3}x_3 \end{cases}$$

Agar $x_1 \neq 0$ bo‘lsa

$$\beta_x = b_{1,1}$$

$$\gamma_x = b_{2,1} + (b_{2,2} - 2\beta_x)\frac{x_2}{x_1}$$

$$\delta_x = b_{3,1} + (b_{3,2} - (\alpha+1)\gamma_x)\frac{x_2}{x_1} + (b_{3,3} - 3\beta_x)\frac{x_3}{x_1}$$

Agar $x_1 = 0,\ x_2 \neq 0$ bo‘lsa,

$$2\beta_x = b_{2,2},$$

$$(\alpha+1)\gamma_x = b_{3,2} + (b_{3,3} - 3\beta_x)\frac{x_3}{x_1}$$

Agar $x_1 = x_2 = 0,\ x_3 \neq 0$ bo‘lsa,

$$3\beta_x = b_{3,3}.$$

Teorema isbotlandi.

Endi 2-lokal differensiallashini bayon etamiz.

ISSN 3030-3907

2-Ta'rif. Akslantirish (chiziqli bo'lishi shart bo'lmagan) $\nabla: A \to A$ 2-lokal differensiallshlari deyiladi, agar har qanday $x, y \in A$ elementlar uchun shunday $\nabla_{x,y}: A \to A$ differensiallshlari mavjud bo'lsaki,

$$\nabla(x) = A_{x,y}(x), \nabla(y) = A_{x,y}(y).$$

3-Teorema. $N_4(\alpha)$ algebraning har bir 2-lokal differensiallashi differensiallashdir.

Isbot. Aytaylik ∇–bu $N_4(\alpha)$ ning ixtiyoriy 2-lokal differensiallashlari bo'lsin.

U holda, 2-tarifga ko'ra har bir $x \in N_4(\alpha)$ element uchun,

$$x = x_1 e_1 + x_2 e_2 + x_3 e_3,$$

$\beta_{x,e_1}, \gamma_{x,e_1}, \delta_{x,e_1}$ shunday elelemt mavjudki

$$A_{x,e_1} = \begin{pmatrix} \beta_{x,e_1} & 0 & 0 \\ \gamma_{x,e_1} & 2\beta_{x,e_1} & 0 \\ \delta_{x,e_1} & (\alpha+1)\gamma_{x,e_1} & 3\beta_{x,e_1} \end{pmatrix},$$

$\nabla(x) = A_{x,e_1}\bar{x}$, bu yerda $\bar{x} = (x_1, x_2, x_3)^T$–$x$ ga mos vektor va

$$\nabla(e_1) = A_{x,e_1}\overline{e_1} = (\beta_{x,e_1}, \gamma_{x,e_1}, \delta_{x,e_1})^T.$$

Tengliklar $\nabla(e_1) = A_{x,e_1}(e_1) = A_{y,e_1}(e_1)$o'rinli bo'lgani uchun

$$\nabla(e_1) = (\beta_{x,e_1}, \gamma_{x,e_1}, \delta_{x,e_1})^T =$$

$$= (\beta_{y,e_1}, \gamma_{y,e_1}, \delta_{y,e_1})^T$$

$N_4(\alpha)$ dagi elementlarning har bir x, y juftligi uchun.

Shunday qilib,

$$\beta_{x,e_1} = \beta_{y,e_1}, \gamma_{x,e_1} = \gamma_{y,e_1}, \delta_{x,e_1} = \delta_{y,e_1}.$$

Shuning uchun

$$\nabla(x) = A_{y,e_1}\bar{x}$$

Har qanday $x \in N_4(\alpha)$uchun va $\nabla(x)$ matritsasi x ga bog'liq emas.

SHunday qilib, 3-teoremaga ko'ra, ∇ differensiallashdir.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupov Sh.A.,Elduque A., Kudaybergenov K.K. *Local derivations and automorphisms of Cayley algebras T.: Journal of Pure and Applied Algebra. - 2023. - 227(5), 107277.*
2. Arzikulov F., Karimjanov. I.A. *A criterion of local derivations on the seven-dimensional simple Malcev algebra. Operators and Matrices. 2022, 16(2), 495-511*
3. Kadison R.V. *Local derivations, Journal of Algebra T.:Vol.130,p.494-509, 1990.*
4. De Graaf W.A. *Classification of nilpotent associative algebras of small dimension T.:. Int. J. AlgebraComput. 28(1), 2018, 133-161*
5. Islomjon B., Madyor Q. TABIIY FANLARDA MATEMATIKANI QO ‘LLANILISHI //Research and Publications. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 350-352.
6. O’G B. I. G. A. et al. UCH O’LCHAMLI NILPOTENT ALGEBRANING DIFFERENSIALLASHI //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 18. – C. 285-289.
7. O‘G, Boydadayev Islomjon G‘Anijon, Jamoliddinova Munisa Qalandar Qizi, and Mustapaqulova Mehribon Adxamjon Qizi. "TO ‘RT O ‘LCHAMLI NILPOTENT ALGEBRANING DIFFERENSIALLASHI." Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences 5.2 (2024): 5-11.
8. O’G, Boydadayev Islomjon G’Anijon, and O. Qirg’Izov Madyor. "UCH O’LCHAMLI NILPOTENT ALGEBRANING DIFFERENSIALLASHI." Science and innovation 3.Special Issue 18 (2024): 285-289.
9. O‘G, Boydadayev Islomjon G‘Anijon, Jamoliddinova Munisa Qalandar Qizi, and Mustapaqulova Mehribon Adxamjon Qizi. "TO ‘RT O ‘LCHAMLI NILPOTENT ALGEBRANING DIFFERENSIALLASHI." Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences 5.2 (2024): 5-11.

ISSN 3030-3907

INNOVATSION GIBRID BURG‘ILARNING TEXNOLOGIK TUZILISHI VA AFZALLIKLARINI ASOSLASH.

Nurmatov Jaxongir Togaymuradovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, dotsent v.b.
Qarshi, O‘zbekiston.
e-mail: jaxongir1977@mail.ru
Samadov Aziz Xasanovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi, O‘zbekiston.
mustaqil tadqiqotchi, dotsent v.b
e-mail: azizbek_samadov1986@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada neft va gaz sanoatining asosiy ustuni bo‘lgan neft va gaz quduqlarini samarali burg‘ilash, ularni o‘z vaqtida ishga tushirish va burg‘ilash jarayonida avaraiyalarni oldini olish, burg‘ilash sanoati jihoz uskunalarni rivojlantirish, burg‘ilarning zamonaviy va innovasion ishlanmalarni yaratish va ushbu zamonaviy burg‘ilar orqali quduqlarni kam vaqt, eng tejamkor va samarali burg‘ilash imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: gibrid burg‘i, PDC burg‘i, innovasion ishlanmalar, burg‘ilash sanoati, tog‘ jinslari, yangi texnologiyalar, burg‘ilash texnologiyasi.

Аннотация. В статье речь идет об эффективном бурении нефтяных и газовых скважин, которое является основной опорой нефтегазовой отрасли, их эксплуатации и предотвращении аварий в процессе бурения, развитии бурового оборудования, современных и инновационных разработках буровых установок. В предложение по созданию и увеличению возможностей бурения скважин с помощью этих современных долот в короткие сроки, наиболее экономичным и эффективным способом.

Ключевые слова: гибридное долото, долото PDC, инновационные разработки, буровая отрасль, горные породы, новые технологии, технология бурения.

Annotation. The article deals with the effective drilling of oil and gas wells, which is the main support of the oil and gas industry, their operation and prevention of accidents during the drilling process, the development of drilling equipment, modern and innovative developments of drilling rigs. The proposal is to create and increase the ability to drill wells using these modern bits in a short time, in the most economical and efficient way.

Key words: hybrid bit, PDC bit, innovative developments, drilling industry, rocks, new technologies, drilling technology.

Kirish


ISSN 3030-3907

Neft va gaz mahsulotlarining jadallik bilan ortib borishi hozirgi sharoitlarda xalq xo`jaligi tarmoqlarining rivojlanishiga turtki beradi. Neft va gaz konlarini izlab topish, o`zlashtirish, tarqalish qonuniyatlarini, zahiralarini, kelajakdagi istiqbollarini aniqlashda burg`ilash sohasining o`rni beqiyosdir.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlari kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalarida neft va gaz mahsulotlariga yuqori talablarni keltirib chiqaryapti, ayniqsa texnologiyalarni global rivojlanishi natijasida keng avj olayotgan resurslar yetishmasligi vujudga kelyapti. Bunga barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida yangi neft va gaz konlarini izlab toppish, quduqlarni samarali va sifatli burg`ilash, quduqlarni halokatlarsiz o`zlashtirish hisoblanadi. Yangi konlarni izlab toppish va ularni o`zlashtirish jarayonini uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda. [1].

Respublikamizning xalq xo‘jaligining neftga bo‘lgan yuqori talabi mavjudligi sharoitida neft va gaz resurslarini qazib chiqarish xalq xo‘jaligining to‘liq qondirish uchun yangi konlarni izlab topish, ularni o`zlashtirish xozirgi kunning dolzarb va ustuvor vazivasi bo`lib hisoblanadi. Quduqlarni izlab topishda va ularni o`zlashtirishda xozirgi kunda eng kerakli bo`lgan jihoz va uskunalardan biri bu burg`ilar hisoblanadi. Amalda burg`ilarning bir necha turlari mavjud bo`lib xozirgi vaqtda jahon burg`ilash amaliyotida mavjud bo`lgan zamonaviy va innovatsion burg`ilardan eng mukammali hisoblanuvchi gibdrid burg`ilardir. [2].

***Gibrid PDC burg`i*** - bu sharoshkali burg`i va PDC burg`ining afzalliklarini umumlashtirilgan burg`i hisoblanadi. Gibrid burg`i uch sharoshkali burg`i va PDC burg`ining afzalliklarini birlashtiradi, u allaqachon ko'p marta sinovdan o'tgan bo`lib va u qattiq tog` jinslarini burg`ilashda eng yaxshi ko`rsatkichlarga ega bo`lgan zamonaviy innovatsion burg`i hisoblanadi.



1 – rasm. Gibrid burg`ilarning tuzilishi.

Bu turdagi sharoshkali va PDC turdagi olmos burg`ining umumlashtirilishidan hosil qilingan. Yangi mahsulotlar, yangi texnologiyalar, Xitoyda ishlab chiqarish qiymati yuqori bo‘lgan keng ko‘lamli burg`ilardir. Gibrid burg`ilar yordamida qattiq va yumshoq, qumoq qatlamlardan iborat bo`lgan har xil

ISSN 3030-3907

tuzilishdagi murakkab qatlamlarni burg`ilab o`tishda ularni yer yuzasiga chiqarib, almashtirishni oldini oladi, bu esa bir muncha vaqt, energiya ishchi kuchi va sarf xarajatni oldini oladi.

Ushbu gibrid burg`ilar haqida qisqacha ma`lumot 1 – jadvalda berilgan.

1 – jadval

Jihozning nomi	**PDC gibrid burg`ilar**
Material turi	Import qilingan PDC keskichi va yuqori sifatli po'lat
Qo`llanilishi	Neft va gaz quduqlarini burg`ilash
Ishlatilishi	Quduqni burg'ilash
O`lchamlari	8 1/2 9 1/2 (2 ta sharoshka va 2 keskich)
	12 1/2 va 17 1/2 (3 ta sharoshka va 3 keskich)



2 – rasm. Gibrid burg`ilarning ko`rinishlari.

Baker Hughes kompaniyasining gibrid burg'ilash texnologiyasi eng murakkab sharoitlarda burg'ilash vaqtini va tushirish – ko`tarish ishlarini qisqartirish uchun sharoshkali va polikristal olmosli ixcham (PDC) qattiq burg`ilarni yagona, patentlangan konstruksiyasini birlashtiradi. Sharoshkali burg`ilarining mustahkamligi va barqarorligi, shuningdek, olmos burg`ilarning keskirligi va uzluksiz ishlashi natijasida burg`ilab o`tish tezligini oshiradi, ushbu texnologiya quduq tubini shlamdan tozalashni oshiradi. [1].

***Sharoshkali burg`ilarga nisbatan burg`ilab o`tish yuqori potentsial tezligi.*** Sharoshkali burg`ilar bilan solishtirganda, gibrid burg`iga og'irlikni kamaytirish va burg`ining sakrashini minimallashtirish orqali burg`ilashni mexanik tezligini oshirish mumkin. [4].

PDC bilan solishtirganda optimallashtirilgan burg'ilash dinamikasi.

ISSN 3030-3907

PDC bilan solishtirganda, gibrid burg`ilar alohida murakkab qatlamlarni burg'ilashda sezilarli darajada bardoshli va samaralidir. Ular sirpanishni kamaytiradi va burg'ilash momentini boshqarishni osonlashtiradi, uni yanada izchil qiladi, turli qatlamlar orqali silliq burg`ilab o'tishni ta'minlaydi. Takomillashtirilgan barqarorlik va yo‘nalishni boshqarish ishonchli vertikal boshqaruvni, shuningdek, qiyalangan uchastkalarda yuqori burg`ilab o`tishini tezligi ta`minlaydi.

“Baker Hughes” an’anaviy burg`ilar uchun murakkab sharoitlarda qo‘llanish sohasini kengaytirish va yuqori ishlab chiqaruvchilikni ta’minlash maqsadida gibrid burg‘ilash burg`ilar texnologiyasini rivojlantirishda davom etadi. **“**Baker Hughes” gibrid burg'ulash uchlari an'anaviy burg'ulash uchlari uchun tasdiqlangan o'rnini egallab, tezroq va ishonchli burg'ulash ko`rsatkichlarini ta'minlaydi. [7].

Kymera™ Mach 5 gibrid burg`ining texnik xususiyatlari.

Kymera™ Mach 5 gibrid burg'ilar quduq uzunligini sodda qiya qismlardan kombinatsiyalangan uchastkalarigacha uzaytiradi, bu operatsiyalar, sharoshkali burg`ini polikristalli olmos kompaktli (PDC) burg`ilar bilan almashtirishlar sonini kamaytirish imkonini beradi. Kymera Mach 5 turidagi burg`i qiya yo`nalishda burg`ilash orqali samaradorlikni oshiradi. [8].

Samaradorlikni oshirish – Kymera Mach 5 gibrid konstruktsiyali aniq muvozanatlangan kuraklar soni va sharoshkani optimallashtirishni o'z ichiga oladi, bu esa isbotlangan ish faoliyatini samaradorligini bosqichma-bosqich o'zgartirishga olib keladi. Kuraklar sonining ko'payishiv barqarorlikni yanada yaxshilaydi, bu esa yeyilishga qarshi turish uchun biroz tajovuzkor bo'ladi. Chuqur kesgichlar olmos hajmini oshiradi, bu esa burg`ini ushlab turish va burg'ilash masofasini uzaytirish uchun chidamlilikni yaxshilaydi. O‘tkir, zich sharoshka jamlanmalari qo‘shimcha ravishda burg`ilab o`tish tezligini yaxshilash imkonini beradi. Burg`i turlariga burg‘ilash tezligi va samaradorligini oshirish uchun qiyin burg‘ilash sharoitida yuqori yuklanishlarga mo‘ljallangan burg`ilar sifatida maxsus tanlangan Dynamus™ burg`ilari, StayTrue™ shakllantirilgan olmos elementlari texnologiyasi va ikki burchakli Stabilis™ frezerlari kiradi. [1].

Burg`ilarni almashtirishiga ta’sir etuvchi omillar.

Asboblarni tushirish va ko’tarish vaqti $T_{T.K} = 7200\,s,$ burg`ining har 900 sekunda kovlashi $h_1 = 5;\ h_2 = 4;\ h_3 = 3;\ h_4 = 2{,}5;\ h_5 = 2;\ h_7 = 1;\ h_8 = 0{,}3;$ metr bo’lganda quduqni 1000 metrga burg’ilash uchun burg`ilarni almashtirishning zaruriyati quyidagicha aniqlanadi. Burg`i ishning maksimal samaradorligini olish uchun reysli tezlikga $V_p$ mo`ljal qilinadi. [10]. U quyidagicha ifodalanadi:

$$T_{T.K} = t_n = t_g + t_c.$$

ISSN 3030-3907

Ayrim oraliq vaqtlar uchun reysli tezlik quyidagi fomula bo'yicha aniqlanadi:

$$V_{pi} = \frac{\sum h_i}{\sum t_{\delta.i} + T_{t.k}},$$

Bu yerda $\sum h_i = \sum t_{\delta.i}$ burg'ilash vaqtida dolota kovlashining yig'indisi. Keyin, birinchi 900 sekund burg'ilashning reysli tezligi aniqlanadi. [5].

$$V_{pi} = \frac{h_1}{t_{\delta 1} + T_{mк}} = \frac{5}{0{,}25 + 2} = 2{,}22 m/soat$$

1800, 2700, 3600 sekundlar uchun reysli tezlik quyidagicha aniqlanadi:

$$V_{p_2} = \frac{5+4}{0{,}5+2} = 3{,}6 m/soat$$

$$V_{p_3} = \frac{5+4}{0{,}75+2} = 4{,}6 m/soat$$

$$V_{p_4} = \frac{5+4+3+2{,}5}{1+2} = 4{,}38 m/soat$$

$$V_{p_5} = \frac{5+4+3+2{,}5+2}{1+2} = 5 m/soat$$

$$V_{p_6} = \frac{5+4+3+2{,}5+2+1{,}5}{1+2} = 5{,}46 m/soat$$

$$V_{p_7} = \frac{5+4+3+2{,}5+2+1{,}5+1}{1{,}75+2} = 5{,}46 m/soat$$

$$V_{p_8} = \frac{5+4+3+2{,}5+2+1{,}5+1+0{,}5}{2+2} = 4{,}81 m/soat$$

$$V_{p_9} = \frac{5+4+3+2{,}5+2+1{,}5+1+0{,}5+0{,}3}{2{,}25+2} = 4{,}6 m/soat$$

Hisoblardan ko'rinib turibdiki $V_{p\max} = V_{p_6} = 5{,}46 m/soat$ bo'lganda burg`ini ko'tarish kerak bo'ladi. [8]. Bunda burg`ini kovlash yig'indisi quyidagini tashkil qiladi:

$$\sum h_i = 5+4+3+2{,}5+2+1{,}5 = 18 m;$$

Keyin burg`ining quduq tubida umumiy ishlash vaqti topiladi:

$$\sum t_\delta = 6 + 0{,}25 = 1{,}5 s,$$

Tushirish – ko'tarish vaqtini hisobga olganda:

$$\sum t_\delta = T_{t.k} = 1{,}5 + 2 soat = 3{,}5 soat,$$

Agar $V_{p_9} = 4{,}46 m/soat$ bo'lganda burg`i ko'tarilsa, unda kovlashning yig'indisi quyidagini tashkil qiladi:

$$\sum h_i = 5+4+3+2{,}5+2+1{,}5+1+0{,}5+0{,}3 = 19{,}8 m;$$

ISSN 3030-3907

Umumiy vaqt:

$$\sum t_{\delta} = 9 \cdot 0{,}25 = 2{,}25 soat = 8100\, s,$$

Tushirish – ko'taish vaqtini hisobga olganda:

$$4{,}25 - 3{,}5 = 0{,}75 soat = 2700\, s\ ,$$

Shunday qilib vaqtlarning farqi quyidagini tashkil qiladi:

$$4{,}25 - 3{,}5 = 0{,}75 soat = 2700\, s$$

Bu vaqtda yangi burg`i bilan yana 5+4+3=12 m kovlash mumkin.

Birinchi holatda ikki burg`ining 15300 sekundda kovlash yig'indisi $18 + 12 = 30 m$ ikkinchi holatda esa 19,8 m ni tashkil qiladi. [6].

Bunda samaradorlik 30-19,8=10,2 mni tashkil qiladi.

Ushbu masala orqali gibrid burg`ilarning boshqa turdagi burg`ilardan afzalligini ko`ramiz. [10].

Xulosa

Maxsus turdagi burg'ilar bilan burg'ilangan quduqlarni qayta burg'ilash, kengaytirish, yon devorlarni tiklash va quvurlarni o'rnatish, olmosli burg'ilar, turbobur va rotor usullarda tik va qiya yo'nalgan quduqlarni burg'ilash, qumoq, dolomit, ohaktosh va boshqa o`ta qattiq jinslarni burg'ilash, hozirgi paytda qo'llaniladigan olmosli burg'ilarni ishlab chiqarilishi haqidagi ma'lumotlar, maxsus mo'ljallangan burg'ilarni qo`llashni taqozo etadi. Quduqlarni burg`ilash sohasida ma`lumki, bitta maxsus turdagi burg`i yigirmadan ortiq sharoshkali burg`ini o`rnini bosadi. Bunda nafaqat burg`ilarning tannarxidan balki energiyadan, yoqilg`idan, texnika va texnologiyalarni ortiqcha ishlatishdan, ishchi kuchi, moylash materiallari va vaqtdan samarali foydalanish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

[1] Samadov.A.X., "Neft va gaz quduqlarini burg`ilash texnologiyasi va texnikasi" fanidan amaliy mashg`ulotlar bo`yicha o`quv qo`llanma. Qarshi. "Intellekt" nashriyoti, 2023 yil. – 4-5 betlar.

[2] Nurmatov J.T., Samadov.A.X., Abdiraximov.I.E., Tog`ayev.A.I., Kurbanov.A.T., Samadova.M.X. "Neft va gaz konlari asoslari" fanidan amaliy mashg`ulotlar bo`yicha o`quv qo`llanma. Qarshi. "Intellekt" nashriyoti, 2023 yil. – 5-7 betlar.

[3] "Halliburton". Drill bits and service, каталог технических решений- 2014г. 20-26 стр.

[4] Sunnatov.Z.U., "Neft va gaz quduqlarini burg`ilash" fanidan darslik. 2020 yil.

[5] Yuldashev.T.R., Mirzayev.E.S., Shonazarov.E.B., Samadov.A.X., "Neft va gaz quduqlarini burg`ilash texnologiyasi va texnikasi" fanidan amaliy mashg`ulotlar bo`yicha o`quv qo`llanma. Toshkent. "Voris" nashriyoti, 2020 yil.

ISSN 3030-3907

[6] Yuldashev.T.R., Nurmatov.J.T., Samadov.A.X., “Neft va gaz quduqlarini burg`ilash” fanidan o`quv uslubiy majmua. 2019 yil.
[7] Технология радиального бурения // http://www. Radialdrilling. Com/technology.htm.
[8] Yuldashev.T.R., Xolbazarov.I.R., Samadov.A.X., “Neft va gaz quduqlarini burg`ilash” fanidan ma’ruza matnlari to`plami. “Uzoq bobo” XSICHF 2016 yil. – 130-135 betlar.
[9] Tidwell, V.C., and Wilson, J.L.: «Heterogeneity, Permeability Patterns, and Permeability Upscaling: Physical Characterization of a Block of Massillon Sandstone Exhibiting Nested Scales of Heterogeneity, » SPEREE (August 2010), 283.
[10] Mirzayev.E.S., Shonazarov.E.B., Samadov.A.X., “Neft va gaz quduqlarini burg`ilash texnologiyasi va texnikasi” fanidan o`quv uslubiy majmua. 2019 yil. 68-69 betlar.
[11] Blekhman, V., Diaz, D., and Corbett, C.: «Calibrating Log-Derived Permeability Data to PTA for Geostatistical nIntegration into a Fluid-Flow Simulation Model» paper SPE 69473 presented at the 2001 Latin American and Caribbean Petroleum Engineering Conference, Buenos Aires, Argentina, 25–28 March.
[12] Morrow N. Interplay of capillary, viscous and buoyancy forces in the mobilization of residual oil//Journ. of canad. petr. techn., 1999, vol. 18, N 3, e. 61–65.

ISSN 3030-3907

UDK 677.021.125

MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALAYDIGAN LABORATORIYA USKUNASIGA TURLI XIL TO‘RLI YUZA O‘RNATIB TAJRIBALAR O‘TKAZISH

Ulug‘muradov Xamroz Yusuf o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti “TTMIBT” kafedrasi v.b. dotsenti, t.f.f.d., PhD. xamrozulugmuradov@gmail.com
Altmishov Bobur Sunnatbekovich
Jizzax politexnika instituti tadqiqotchisi, (JizPI).
Muradov Rustam Muradovich
Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, t.f.d.prof
rustam.m.@list.ru.
Novruzov Sobirjon Otaqul o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti “TTMIBT” kafedrasi assistenti.

Annotatsiya: Maqolada paxtani mayda ifloslikdardan tozalash mashinasi va uning asosiy elementlari o‘rganilgan. Tozalash uskunasining laboratoriya variant yasalib, uning ishlash prinsipi yoritib berilgan. To‘rli yuzalar har xil o‘lchamda va shaklda tayyorlanib foydali yuzasi aniqlangan. Tadqiqot vazifalari belgilab olinib har-xil shakldagi to‘rli yuzalarni laboratoriya uskunasiga o‘rnatib tajribalar o‘tkazilgan va natijalar olingan. Paxtani tozalashda to‘rli yuza shaklining o‘zgarishi uskuna tozalash samaradorligiga, chigit shikastlanishiga hamda toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdoriga ta’siri tahlil qilingan. Olingan natijalar tahlil qilinib uskuna tozalash samaradorligi, tola va chigit shikastlanish darajalari davlat standartlariga mosligi o‘rganilgan.

Аннотация: В статье рассматривается машина для очистки хлопка от мелких примесей и ее основные элементы. Создан лабораторный вариант очистного оборудования и объяснен принцип его работы. Сетчатые поверхности изготавливаются различных размеров и форм, а также определяется полезная площадь поверхности. После определения целей исследования были проведены эксперименты по установке сетчатых поверхностей различной формы в лабораторное оборудование и получению результатов. Проанализировано влияние изменения формы поверхности сетки в процессе очистки хлопка на эффективность очистки оборудования, повреждение семян, а также количество дефектов и примесей в волокне. Полученные результаты анализировались с целью определения эффективности очистки оборудования и соответствия уровня повреждения волокон и семян государственным нормам.

ISSN 3030-3907

Annotation: The article studies information about a machine for cleaning cotton from small impurities and its main elements. A laboratory version of the cleaning equipment was created and its operating principle was explained. Information about mesh surfaces is provided. Mesh surfaces were prepared in various sizes and shapes, and the useful surface area was determined. The research tasks were determined, experiments were conducted by installing mesh surfaces of various shapes on laboratory equipment, and the results were obtained. The effect of changing the shape of the mesh surface during cotton cleaning on the cleaning efficiency of the equipment, damage to the grain, and the amount of defects and impurities in the fiber was analyzed. The results obtained were analyzed and the compliance of the cleaning efficiency of the equipment, the levels of fiber and grain damage with state standards was studied. The results obtained were analyzed and it was recognized that the cleaning efficiency increased.

Kalit so‘zlar: paxta, tozalash, tola, to‘rli yuza, qoziqli baraban, samaradorlik, mayda ifloslik, nuqson, chigit, iflos aralashma, nav, arrali jin.

Ключевые слова: хлопок, очистка, волокно, сетчатая поверхность, ворсовый барабан, эффективность, мелкая грязь, дефект, семена, грязная смесь, сорт, пила-джин.

Keywords: cotton, clean, fiber, mesh surfacye, pile drums, efficiyency, cotton, cleaning, fiber, mesh surface, pile drum, efficiency, small contaminants, defect, seed, dirty mixture, grade, saw gin.

Kirish

Mustaqillik yillarida respublikamizda paxta mahsulotining iste’mol xususiyatlarini yaxshilanishiga olib keladigan, paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonlarini va ishlab chiqarishning yuqori samaradorlikka ega, boshqarish tizimlarini yaratishga oid bo‘lgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Bu borada, jumladan, paxta tozalash korxonalarida boshlang‘ich ko‘rsatkichlariga bog‘liq ravishda qayta ishlanayotgan xom-ashyodan belgilangan sifatli paxta mahsulotini olish, paxtani mayda iflosliklardan tozalash texnikasi hamda texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga paxta tozalash samaradorligini va ishlab chiqarish unumdorligini pastligi dolzarb masala bo‘lib kelmoqda [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Paxtaning tarkibidan mayda iflosliklarni ajratib olish, asosan qoziqli baraban va to‘rli yuza yordamida amalga oshiriladi [2].

Qurilmaning asosiy kamchiligi shuki, paxta xom ashyosini mayda iflosliklardan tozalash jarayoni asosan qo‘zg‘almas to‘rli yuza va qoziqli barabanda amalga oshirilganligi sababli paxtaning shikastlanish darajasi ortib ketishi va ish unumdorligining pastligidir [3].

ISSN 3030-3907


TADQIQOT METODOLOGIYASI. Taklif etilayotgan paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni tozalash uskunasini takomillashtirilgan elastik qoziqchali baraban bilan chizmalari tayyorlandi hamda ushbu chizmalar asosida laboratoriya qurilmasi ishlab chiqildi. Elastik qoziqchali plankali baraban takomillashtirilgan tozalagich korpusida joylashgan taminlovchi valiklar 1 yordamida paxta elastik qoziqli-plankali baraban 2 ga o‘tkaziladi, ular yordamida paxta to‘rli yuza 3 dan sidirib olib o‘tilishi natijasida xomashyo tarkibidan mayda iflosliklarni ajratib olish jarayoni amalga oshiriladi. Paxta xomashyosi tarkibidan ajratilgan iflosliklar 4 ifloslik bunkeriga, tozalangan xomashyo esa tozalangan paxta bunkeri 5 ga tushadi.

Tozalash uskunasining laboratoriya nusxasida ishchi qismlarning, qoziqchali-plankali baraban geometrik o‘lchamlari, ta’minlovchi valiklar shakli, tezliklari va qoziqchali-plankali barabanlar bilan to‘rli yuza orasidagi masofa, to‘rli yuza shaklini turli o‘lchamlarda tayyorlanganligi tozalash samaradorligiga ta’siri tajribada aniqlandi [4].

Tajriba o‘tkazish uskunasining umumiy ko‘rinishi 3.2-rasmda keltirilgan.

Taklif etilayotgan paxtadan mayda ifloslarni tozalash laboratoriya uskunasining eni 400 mm ga, balandligi 1700 mm ga, ta’minlovchi valiklar bilan qoziqchali-plankali baraban o‘qlari oraliq masofasi 300 mm ga, qoziqchali-plankali barabanlar va to‘rli yuza oraliq masofasi 14-18 mm ga teng.

Tajriba uskunasi quyidagicha ishlaydi: bir-biriga qarab aylanuvchi ta’minlovchi valiklar 1 paxtani qoziqchali-plankali baraban 2 ga uzatib beradi. Qoziqchali-plankali baraban paxtani to‘rli yuza 3 sirtida titib-sudrab tashishda paxtadan mayda iflosliklarni ajratib, tozalash jarayonini amalga oshiradi. Paxtadan ajratilgan iflosliklar to‘rli yuza teshiklari oraqali ifloslik bunkeri 4 ga tushadi. Tozalangan paxta chiqish bo‘g‘izi 5 orqali paxta bunkeriga yig‘iladi [5].



1-rasm.Tajriba o‘tkazish uskunasining umumiy ko‘rinishi

1-ta’minlovchi valiklar, 2- qoziqchali-plankali baraban,

ISSN 3030-3907

3-to‘rli yuza, 4-ifloslik bunkeri, 5-tozalangan paxta chiqish bo‘g‘izi.

Tajribalar quyidagi variantlarda olib borildi:

– qoziqchali-plankali barabanlarda mavjud tozalash texnologik jarayonida;

– mavjud qoziqchali-plankali barabanning aylanishlar sonini o‘zgartirmagan holda va taklif etilayotgan texnologik jarayonda;

–mavjud to‘rli yuzani o‘zgartirmagan holda va taklif etilayotgan to‘rli yuza shakli o‘rnatilgan texnologik jarayonda;


–to‘rli yuza shakli va o‘lchamlarining paxta xomashyosiga ta’siri, texnologik jarayonida;

–to‘rli yuza teshiklarining o‘lchami, to‘rli yuza bilan qoziqchali-plankali baraban orasidagi 14-18 mm masofani, uskuna tozalash samaradorligiga ta’siri. Har bir tajriba 8 marotaba takrorlandi va erishilgan natijalarning o‘rtacha qiymatlari olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Namunalar tozalagichdan oldin va keyin olindi. Har bir olingan paxta namunalarini namligi, iflosligi aniqlandi. Tadqiqot ishlari davrida to‘rli yuzaning foydali yuzasi, to‘rli yuzalarning paxta xomashyosiga ta’siri o‘rganib borildi. Tajriba davrida olingan namuna tahlillari “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrasi laboratoriyasida O‘zDst 632:2016, O‘zDSt 644:2006, O‘zDSt 592:2018 davlat standartlarida keltirilgan metodikalar asosida bajarildi [6].

Quyidagi 3.3 va 3.4- rasmlarda mavjud va taklif etilayotgan to‘rli yuzalar ko‘ndalang kesim sxemasi va umumiy ko‘rinishi keltirilgan.

Dastlab tozalash uskunalarida mavjud bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanning 400 mm uzunlikdagi, 400 mm diametrdagi laboratoriya nusxasi tayyorlanib tajribalar o‘tkazildi (1- rasm). Tajriba natijalari 1- jadvalda keltirilgan.



2. Быстрицкий Г. Ф. Энергосиловое оборудование промышленных предприятий: учебное пособие / Г. Ф. Быстрицкий. - 2-е издание., стер. - М. : Издательский центр «Академия», 2005. - 304 с.
3. M. Bogdevicius, J. Januteniene, R. Didziokas, S. Razmas, V. Skrickij, P. Bogdevicius. Investigation of the hydrodynamic processes of a centrifugal pump in a geothermal system. Transport. Lithuania. 2018. Volume 33 (1). – P. 223-230
4. Atakulov L.N., Kurbonov O. M. Исследование по повышению работоспособности насосного оборудования // Journal of Advances in Engineering Technology. Vol.1(1). 2020/ - 21-24 p.p.
5. Makhmudov A., Kurbonov O. M., Safarova M. D. Research of the pressure characteristics of the centrifugal water drainage plant of the WCP 25-60G brand // Australian Journal of Science and Technology. – Australia, June 2020. – Vol. 4. – Issue 2. – pp. 279-282 (23. Scientific Journal Impact Factor. Импакт-фактор 5,99).
6. Махмудов А.М., Курбонов О.М. The method and arrangement to increase the efficiency and utilization of submersible pumping equipment // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2021. – №1. – С. 4-7 (05.00.00. №7).

ISSN 3030-3907

KARYER BIR CHO‘MICHLI EKSKAVATOR STRELASI PO‘LAT SIM ARQONLARINING DINAMIK YUKLAMALAR TAHLILI

Haydarov Shohid Bahriddinovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
E-mail: shohidh@mail.ru
Usmonov Maftunjon Zohidjon o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayanch doktoranti
E-mail: usmonovmaftunjon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada karyer ekskavatorlarining po‘lat sim arqonlari ekspluatatsion jarayonda uchraydigan statik va dinamik yuklanishlari chuqur tahlil qilinadi. Ekskavator strelasi bilan po‘lat sim arqonlari tizimi o‘rtasidagi kuch ta’sirlari mexanik muvozanat tenglamalari va chiziqli tebranishlar nazariyasi asosida aniqlanadi. SolidWorks modellashtirilgan tizimda yuklarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi, kuchlanishlarning maksimal holatlari, uzilish chegaralari va ehtimoli baholanadi. Taklif etilgan konstruktiv yechim sifatida sim arqonlarning taqsimotini o‘zgartirish orqali dinamik nomutanosiblikni kamaytiradi va xizmat muddati oshirilishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: ekskavator, po‘lat sim arqonlari, yuklanish, dinamik muvozanat, statik muvozanat.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются статические и динамические нагрузки, возникающие в процессе эксплуатации стальных тросов карьерных экскаваторов. Силовые взаимодействия между стрелой экскаватора и системой стальных тросов определяются на основе уравнений механического равновесия и теории линейных колебаний. В моделируемой системе SolidWorks оценивается изменение нагрузок во времени, максимальные состояния напряжений, пределы разрыва и вероятность. Предлагаемое конструктивное решение уменьшает динамическую диспропорцию за счет изменения распределения проволочных тросов и обеспечивает увеличение срока службы.

Ключевые слова: экскаватор, стальные тросы, нагрузка, динамическое равновесие, статическое равновесие.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the static and dynamic loads encountered during the operation of steel cables of quarry excavators. The force interactions between the excavator boom and the steel cable system are determined based on the mechanical equilibrium equations and the theory of linear oscillations. In the SolidWorks simulated system, the change in loads over time, maximum stress states, breakdown limits, and probability are assessed. As a proposed

ISSN 3030-3907

structural solution, it reduces dynamic imbalance by changing the distribution of wire ropes and ensures an increase in service life.

Keywords: excavator, steel cables, load, dynamic equilibrium, static equilibrium.

Kirish

Karyer ekskavatorlari konstruksiyasida strelaning barqarorligini ta’minlovchi asosiy elementlardan biri bu - po‘lat sim arqonlari hisoblanadi. Bu po‘lat sim arqonlar yukni ko‘tarish, tutib turish va yuklamalarni taqsimlash vazifasini bajaradi. Ular ish jarayonida murakkab yuklanish - statik, zarbli (impuls), tebranuvchi va doimiy o‘zgaruvchan kuch ta’sirida ishlaydi. Ekskavatorlar, ayniqsa EKG-8I va EKG-10 modellari, katta massali yuk bilan ishlashi sababli, bu po‘lat sim arqonlaridagi yuklar ancha yuqori bo‘lib, ularni to‘g‘ri hisoblash - ishonchlilikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo bo‘ylab ekskavatorlar ishchi a’zolarining ishonchliligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Po‘lat sim arqonlari ekskavatorlarning yuk ko‘tarish samaradorligi va ishonchliligini mexanik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [2]. Ekskavatorlarda po‘lat sim arqonlari asosan, EKG-8I ekskavatorlarida ϕ45,5 mm diametrli po‘lat sim arqonlar, EKG-10 ekskavatorlarida ϕ52 mm diametrli po‘lat sim arqonlardan foydalaniladi. Ushbu po‘lat sim arqonlari ishlab chiqaruvchiga qarab GOST 2688-80 standartlariga muvofiq ishlab chiqariladi [3,4].


ADABIYOTLAR TAHLILI.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, po‘lat sim arqonlar ekskavatorning muhim elementlaridan biri bo‘lib, ularning statik va dinamik yuklanishi chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi. Aksariyat ishlar statik yondashuvga asoslangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda sonli metodlar va raqamli simulyatsiya asosida dinamik kuchlanishlarni tahlil qilish dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu esa, SolidWorks asosidagi konstruktiv takliflarning ilmiy asoslanganligini mustahkamlaydi. Karyer ekskavatorlarining mexanik ishonchliligi, ayniqsa strelaning barqaror ishlashida asosiy yukni qabul qiluvchi po‘lat sim arqonlar (vant troslari)ning holatini to‘g‘ri baholash, mashinaning xizmat muddati va xavfsizligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega []. Ekskavator ishchi organlarining (strela, ruqoyat, tros) dinamik modeli asosida zarbli yuklanish holatlaridagi stress konsentratsiyalarni ko‘rsatgan. Ayniqsa, cho‘mich zarbasi paytida tushuvchi impuls kuchlar troslardagi kuch taqsimotining nomutanosib bo‘lishiga olib keladi []. Ekskavator troslari uchun texnik talablar va ularni hisoblash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar GOST 3062-80 va GOST 3241-91 da aniq ko‘rsatilgan. Ushbu standartlar tros diametri, uzilish kuchi va xavfsizlik koeffitsientlariga doir talablarni belgilaydi [].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

ISSN 3030-3907

Hozirgi kunda EKG-8I va EKG-10 tipidagi ekskavatorlarning po‘lat sim arqonlari konstruksiyasi strelaga po‘lat sim arqonlarni o‘rnatganda arqonlarga yuklama to‘g‘ri taqsimlanmasligi ekskavator strelasining xizmat qilish vaqtini kamayishiga, po‘lat sim arqonlrga nuqsonlar va uzilib ketishiga olib kelidi. Ekskavatorning po‘lat sim arqonlari bir xil uzunlik yoki taranglikka ega bo‘lmasa, strela dinamik va statik yuklamalar ta’sirida notekis joylashadi. Quyidagi 1-rasmda ekskavator ishchi a’zosi va po‘lat sim arqonlarida hosil bo‘ladigan kuchlar ko‘rsatilgan.



1-rasm. Ekskavator ishchi a’zosi va po‘lat sim arqonlarida hosil bo‘ladigan kuchlar

Ekskavator cho‘michining harakat trayektoriyasi koordinatalar tizimi (1) va (2) ifodalar orqali ifodalanadi [1,2]:

$$X_k = X_{o1} + L_1 \cdot cos(\alpha_1) + L_2 \cdot cos(\alpha_2) \quad (1)$$

$$Y_k = Y_{o1} + L_1 \cdot sin(\alpha_1) + L_2 \cdot sin(\alpha_2) \quad (2)$$

Cho‘michining burilish burchagi (ɵ) va og‘irlik kuchi (G_k) hisobga olindi. Harakatni differensial tenglamalar (3) va (4) orqali aniq ifodasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{d^2X_k}{dt^2} = -\omega^2 X_k + 2\omega \frac{dY_k}{dt} \quad (3)$$

$$\frac{d^2Y_k}{dt^2} = -g + 2\omega \frac{dX_k}{dt} \quad (4)$$

Bu yerda: ω-burilish burchak tezligi, g-erkin tushish tezlanishi.

Cho‘michni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlar quyidagicha ifodalanadi:

$$F_k = P_o + G_k + N_k \quad (5)$$

Bu yerda: P_o– qazib olish qarshilik kuchi, G_k– cho‘michning og‘irligi, N_k– normal reaksiya kuchi.

Ishqalanish va deformatsiyani hisobga olish uchun yangi parametrlar qo‘shiladi:

ISSN 3030-3907

$$F_k = P_o + G_k + N_k + \mu_k F_s \quad (6)$$

Bu erda μ_k– ishqalanish koeffitsienti, F_s– strukturaning elastik reaksiya kuchi.


Ekskavatorning ishchi holatida vant troslariga ta’sir etuvchi kuchlar quyidagicha ifodalanadi.

Strelaning oxiriga ulanadigan vant troslari uchun statik muvozanat shartlari:

$$\sum F_y = 0 \text{ va } T_1 sin\alpha_1 + T_2 sin\alpha_2 = G_s + Q, \quad (7)$$

$$\sum F_x = 0 \text{ va } T_1 cos\alpha_1 = T_2 cos\alpha_2, \quad (8)$$

Bu yerda α_1, α_2 – mos ravishda chap va o‘ng troslarning vertikal bilan hosil qilgan burchaklari.



2-rasm. Yuqori (a, b) va balkalarning xarakterli kesimlari (a, c) va hisoblash sxemalari (b, d) strelaning pastki (c, d) seksiyalari:

I - V - kesimlar; AB, BV, VG, BD, DE, JZ, ZI, IK, ZL – balkalar strelalar; P1, P2, P3, P4, P5 - strelaning yuqori va pastki seksiyalarining kuchlari

Vibratsiyali yuklanish quyidagi tebranish differensial tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$m\ddot{x} + c\dot{x} + kx = F(t) \quad (9)$$

Bu yerda: m - trosga tushuvchi ekvivalent massa, c – koeffitsient, k - ekvivalent qattiqlik, $F(t)$-vaqtga bog‘liq tashqi kuch (masalan, kovsh zarbasi)

Chiziqli tizim uchun umumiy yechim:

$$x(t) = e^{\tau\omega_n t}(Acos\omega_d t + Bsin\omega_d t) + x_{part}(t) \quad (10)$$

Bu yerda: ω_n- tabiiy tebranish chastotasi, τ- so‘nish darajasi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Vant troslarining dinamik yuklanishiga doir ilgari qilingan tadqiqotlar ularning statik tahliliga asoslangan bo‘lsada, bu maqola shuni ko‘rsatadiki, har bir zarba va vibratsiya trosning ish muddatiga bevosita ta’sir qiladi. Ekskavatorning ish sikli davomida zarba kuchlari ularning minimal xizmat muddati chegarasini buzadi. SolidWorks dasturi yordamida quyidagi natijalar olindi:

ISSN 3030-3907

- 3D modelda troslar to‘liq parametrik holatda chizildi;
- Nonmutanosib yuklanish rejimlari (g‘ayri-elastik cho‘zilish) kiritildi;
- Troslar uchun ASTM A586 po‘lat materiali tanlanib, quyidagi xossalar kiritildi: E=2.1 10^5 MPa, v=0.3 m/s va δ=1200 MPa

Yuklanish holatlari quyidagicha sinovdan o‘tkazildi:

- To‘satdan kuch berilishi (impuls zarba);
- To‘xtatish va qayta ishga tushirish holati;
- Maksimal ish holatida 15 soniyali dinamik tebranish.


Troslarda maksimal kuchlanishlar quyidagi 1- jadvalda qayd etildi:

1- jadval

Troslarda maksimal kuchlanishlar

Ekskavator tipi	Maksimal kuchlanish δ_{max} MPa	Toliqish xavfi
EKG-8I	860	Yuqori
EKG-10	940	O‘ta yuqori

SolidWorks dasturi yordamida esa aniq zonalar, kuchlanish gradientlari va resurs chegaralari aniqlanishi mumkin. Taklif etilgan geometriya o‘zgarishi troslarga taqsimlanadigan kuchni tenglashtiradi, shunday qilib resurs tejamkorligini oshiradi.





3-rasm. SolidWorks dasturi yordamida ekskavator ishchi uskunalarining 3D modeli

Ishchi organ elementlaridagi kuchlanishlar va strela osma troslaridagi kuchlarning hisoblash natijalari ekskavator ishchi organi elementlarining ikkita joylashuv sxemasi uchun quyida keltirilgan. Har bir sxemada variantlar ikki oyoqli tayanch konfiguratsiyasini o‘zgartirish orqali olingan. Quyidagi 2-jadvalda olingan natijalar va ikki sxemadagi turli variantlar sxemasi va qiymatlari ko‘rsatilgan.

2-jadval

Ishchi organ elementlaridagi kuchlanishlar sxeamsi va qiymatlari

ISSN 3030-3907

1-sxema uchun kuchlanish qiymatlari	
	1-Pastki strela seksiyasi - 47,0 MPa; 2-Yuqori strela seksiyasi - 38,1 MPa; 3-Ikki oyoqli tayanchning orqa bog‘lamasi - 21,0 MPa; 4-Ikki oyoqli tayanchning old bog‘lamasi - 23,8 MPa; 5-Strela bog‘lamasi - 14,2 MPa; 6-Strela osma trosidagi kuch - 830 kN.
2-sxema uchun ishchi a’zo elementlarining kuchlanish qiymatlari	
	1-Pastki strela seksiyasi - 24,1 MPa; 2-Yuqori strela seksiyasi - 36,3 MPa; 3-Ikki oyoqli tayanchning orqa bog‘lamasi - 6,0 MPa; 4-Ikki oyoqli tayanchning old bog‘lamasi - 14,6 MPa; 5-Strela bog‘lamasi – 98,8 MPa; 6-Strela osma trosidagi kuch - 570kN.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida EKG-8I va EKG-10 tipidagi karyer ekskavatorlarining vant troslariga ta’sir etuvchi statik va ayniqsa dinamik yuklanishlar murakkab modellashtirish orqali o‘rganildi. SolidWorks muhitida o‘tkazilgan sonli tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zarbli va o‘zgaruvchan yuklanishlar natijasida troslarda yuqklamalar nomutanosib taqsimlanishi yuzaga keladi. Bu esa, ayrim troslarning erta ishdan chiqishiga, shuningdek, strelani xizmat muddatini kamayishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida ilgari surilgan konstruktiv yechim – vant troslari burchaklarini optimallashtirish va kuchlarni muvozanatlashtiruvchi elementlar kiritish orqali yuklarning teng taqsimlanishiga erishildi. Buning natijasida maksimal kuchlanish darajasi 10–15% gacha kamaydi, troslarning xizmat muddati 70% gacha uzaytirildi, umumiy ekspluatatsion ishonchlilik oshirildi.

Shuningdek, ekskavatorlarning texnik xizmat ko‘rsatish strategiyasini individual ravishda shakllantirish, hamda favqulodda nosozliklarning oldini olish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ochiq konchilik korxonalarida

ISSN 3030-3907

amaliyotga tadbiq etish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lazizjon A., Shoxid H., Maftun U. Improved Application of Ecg Excavator Compressor Filter in Quarries //Naturalista Campano. – 2024. – Т. 28. – №. 1. – С. 3210-3215.
2. Haydarov, S. B., & Usmonov, M. Z. (2023). Ekskavator ishchi a’zolarining ish samaradorligini oshirishda ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 1(2), 70-78.
3. Usmonov M. Studies of factors affecting tire wear //Технические науки: проблемы и решения. – 2021. – С. 117-121.
4. Атакулов Л. Н. и др. Theory of forces influencing the process of excavator bucket operation //X Юбилейной международной научно-практической конференции, посвященной «Институт высоких технологий» актуальные проблемы урановой промышленности. – 2022. – С. 24-26.
5. Комиссаров А. П. и др. Обоснование рабочей характеристики карьерного экскаватора //Горное оборудование и электромеханика. – 2017. – №. 2. – С. 7-10.
6. Лукашук О. А., Летнев К. Ю. Определение режимных параметров рычажного механизма карьерного экскаватора //Известия высших учебных заведений. Горный журнал. – 2021. – №. 2. – С. 94-102.
7. Raza M. A., Frimpong S. Mechanics of electric rope shovel performance and reliability in formation excavation //Lagrangian mechanics. – 2017. – С. 107-133.
8. Yuan Y. et al. Dynamic analysis of the rigid-flexible excavator mechanism based on virtual prototype //Facta Universitatis, Series: Mechanical Engineering. – 2022. – Т. 20. – №. 2. – С. 341-361.
9. Альшанская А. А. Повышение надежности экскаваторов на основе прогноза отказов и цифровых моделей нагруженности силовых конструкций : дис. – Сибирский федеральный университет, 2024.
10. Juhasz A., Virag Z. Dynamic Analysis of a Bucket Wheel Excavator Boom Using FEA //Mining Revue/Revista Minelor. – 2024. – Т. 30.
11. Закирьянов А. М. Электропривод механизма подъема экскаватора ЭКГ-15. – 2018.

ISSN 3030-3907

UDK 62-868

SHLAMLI REJIMNI HOSIL BO'LISHINI BARTARAF ETISH MAQSADIDA TOG' JINSINI PARCHALOVCHI ASBOBNING KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Mustafayev Oybek Bobomuradovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, "Konchilik elektr mexanikasi" kafedrasi dotsenti PhD
Tel.: +99899-757-88-01
E-mail: oybek.3112@mail.ru
Boltayev Muhammad A'zamovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti "Konchilik elektr mexanikasi" kafedrasi assistenti.
Tel.: +99893-955-12-01
E-mail: oybek.3112@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада. Суюқлик билан скважинани тубини тозалаб бурғилашда турли қовушқоқликдаги тог ъ жинсларини бурғилашда скважина тубида тог ъ жинсини парчаловчи асбобнинг самарадорлигига салбий таъсир кўрсатувчи омиллар шламли режим ҳосил бўлиши натижасида тоғ жинсини парчаловчи асбобнинг самарадорлигини камайиши муаммолари юзага келади. Скважиналарни суюқлик ёрдамида тозалаб бурғилаш жараёнида, уч шарошкали долотада ва каронкада ҳосил қилинган винтли чизиқ бурғилашда сламли режим ҳосил бўлишини олдини олиш учун тог ъ жинсини парчаловчи асбобнинг такомиллашган конструкцияси ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар. Скважина, уч шарошкали долота, винтли чизиқ, каронка, жинс парчаловчи асбоб, шлам.

Аннотация. В данной статье. Факторы, отрицательно влияющие на эффективность инструмента для разрушающих горных пород на дне скважины при бурении скважины с очисткой дна жидкостью при бурении горных пород различной вязкости возникают проблемы снижения эффективности инструмента для разрушения горных пород в результате образования шламового режима. В процессе бурения скважин с жидкостной очисткой была разработана усовершенствованная конструкция инструмента для разрушения горных пород, чтобы предотвратить образование неровностей при бурении винтовой линии, образованной в трехшарнирной долоте и каронке.

Ключевые слова: Скважина, долота трёхшарощечный , винтовая линия, инструмент разрушающий породы, каронка, шлам.

Annotation. In this article. When drilling the surface of the surface of the surface

ISSN 3030-3907

with liquid, when drilling rocks of different viscosity, factors that negatively affect the effectiveness of a rock-shattering tool on the bottom of the surface of the surface of the surface cause problems of reducing the effectiveness of a rock-shattering tool as a result of the formation of a slurry regime. In the process of cleaning and drilling the skewers using liquid, an improved construction of a rock flicker tool was developed to prevent the formation of a slurry mode when drilling a screw line formed in a three-ball dolota and a caronka.

Keywords: Skvajina, three-ball dolota, screw line, karonka, gender flicker tool, sludge.

Кириш

Геотехнологик, технологик ва геологик қидирув скважиналарини тўлиқ забой билан бурғилашда уч шарошкали долоталар кенг қўлланилади, аксарият ҳолатларда ушбу долоталарнинг иш ресурси белгиланганга нисбатан анча паст кўрсаткичга эга.

Бурғиланаётган скважина забойини шлам заррачаларидан самарали тозалаш ва шламли режимнинг салбий оқибатларини бартараф этиш мақсадида тоғ жинсини парчаловчи асбобнинг конструкцияси такомиллаштирилди. Бунда, уч шарошкали долотанинг панжа қисми винтли чизиқ бўйлаб уюрмали эгилтирилди ва куракчалар ўрнатилди, долотанинг ҳаракати давомида ушбу куракчалар ёрдамида шламли суюқликни уюрмали кўтарувчи куч ҳосил қилади, ва шунингдек, шлам заррачаларини долота остки қисмидан скважина деворлари томонга максимал йўналтириб, шлам оқимини таъминлайди.

Уч шарошкали долотанинг панжа қисмининг винтли чизиқ бўйлаб уюрмали эгилтириш бурчаги қуйидаги ифода орқали аниқланди [1;]:

$$\beta = arctg\frac{x}{2\pi d}, \qquad (1)$$

бу ерда, *x* -винтли чизиқнинг йўли,

d–долотанинг ўртача диаметри.

$$x = \frac{Q}{0.1\cdot\frac{\pi}{4}\cdot d\cdot n}, \qquad (2)$$

бу ерда, Q – ювувчи суюқликнинг сарфи, л/с;


n–долотанинг айланишлар сони, мин$^{-1}$.


Ҳисоблар натижасида $\beta = 50 - 55°$ катталигида олинди.

Такомиллаштирилган диаметри 76 мм бўлган уч шарошкали

ISSN 3030-3907

долотанинг чизмаси 1-расмда келтирилган.





1-расм. Такомиллаштирилган уч шарошкали долотанинг чизмаси

Уч шарошкали долотанинг панжа қисмини радиал йўналиш бўйича 50°га эгилтирилди, панжа қисмининг устидан эса β=40° бурчак остида қалинлиги 4 мм, баландлиги 2 мм бўлган қаттиқ қотишмали куракча ўрнатилди.

Уч шарошкали долотанинг базавий ва такомиллаштирилгандан кейинги ҳолатларининг кўриниши 1.2 – расмда келтирилган.

ISSN 3030-3907



А Б

2-расм. Базавий (а) ва такомиллаштирилган (б) уч шарошкали долота (∅76 мм)

Уч шарошкали долотанинг панжа қисми конструкциясини такомиллаштиришда, унинг панжасини шаклини ўзгаришининг эвазига ювувчи суюқлик чиқувчи панжалар орасидаги бўшлиқнинг ҳажми ошди, бу 2-расмдан ҳам яққол кўриниб турибди, бунинг эвазига эса, суюқликнинг тескари оқими ҳосил бўлмайди ва шу орқали шламнинг қайта майдаланиши камаяди.

Шунингдек, уч шарошкали долоталарнинг панжа қисмининг ва уюрмали куракчаларни винтли чизиқ бўйлаб турли хил бурчаклар остида эгилтирилган ҳолатлари ишлаб чиқилди (3-расм).

ISSN 3030-3907



А б

а - (β= 60°); б - (β= 65°)


3-расм. Уч шарошкали долоталарнинг панжа қисмининг ва уюрмали куракчаларини винтли чизиқ бўйлаб турли хил бурчаклар остида эгилтирилганлиги

Геологик-қидирув бурғилаш ишларида геологик маълумотларни сифатли олиш мақсадида скважинадан керн шаклидаги намуна олиб бурғиланади, ушбу ҳолатда эса ҳалқасимон коронкалар қўлланилади. Колонкавий бурғилашда ҳам, коронкаларнинг чидамлилигига ва бурғилашнинг механик тезлигига шламли режим салбий таъсир кўрсатади. Бурғилаш коронкаларининг самарадорлигини шламли режим ҳосил бўлишини бартараф этиш асосида ошириш мақсадида уларнинг ҳам конструкциясига ўзгартириш киритилди.


Бурғилаш коронкаларининг конструкциясини такомиллаштиришда, шламли режимни бартараф этувчи куракчаларнинг винтли чизиқ бўйлаб уюрмали эгилтириш бурчаги юқорида келтирилган (7) ифода орқали танлаб олинди.

Қуйида 4-6-расмларда қаттиқ қотишмали тишли ва олмос тишли коронкаларнинг такомиллаштирилган конструкциялари чизмаси ва ҳақиқий кўринишлари келтирилган.

ISSN 3030-3907



А



б

1.4-расм. Олмос тишли (а) ва қаттиқ қотишмали тишли (б) коронканинг такомиллаштирилган конструкциялари (∅76 мм)



А **б** **в**

5-расм. Қаттиқ қотишмали коронканинг такомиллаштирилган конструкциялари

Юқорида 5-расмда келтирилган қаттиқ қотишмали коронкаларлар винтли чизиқ бўйлаб уюрмали эгилтирилган куракчаларининг параметрлари билан фарқланади.

5 а-расмда кўрсатилган коронкада уюрмали эгилтирилган қаттиқ қотишмали куракчаларининг сони 12 та, ҳар бирининг узунлиги 50 мм, коронка танасига 40° бурчак остида ўрнатилган, куракчанинг эни 3,5 мм, баландлиги 2 мм ни ташкил этади.

5 б-расмда келтирилган коронкада эса куракчаларнинг узунлиги ҳудди юқоридаги каби 50 мм ни, сони 6 тани, коронка танасига ўрнатилиш бурчаги эса 35° ни ташкил этади.

5 в-расмда келтирилган коронкада эса куракчалар сони 6 тани, узунлиги 35 мм, ни коронка танасига ўрнатилиш бурчаги эса 30° ни ташкил этади.

ISSN 3030-3907



А б

6-расм. Олмос тишли коронканинг такомиллаштирилган конструкциялари

Диаметри 76 мм бўлган олмос тишли коронка 2 турда такомиллаштирилди 6 а-расмда келтирилган олмос тишли коронкада куракчалар сони 8 та, узунлиги эса 50 мм, коронка танасига жойлашиш бурчаги 40° ни ташкил этади, 6 б-расмда келтирилган коронкада куракчаларини сони юқоридаги каби 8 тани, узунлиги эса 30 мм ни, куракчаларни коронка танасига жойлашиш бурчаги 35° ни ташкил этади.

Такомиллаштирилган тоғ жинсини парчаловчи асбобларнинг экспериментал тадқиқотлари

Скважина тубида шламли режимни ҳосил бўлишини камайтириш ва бартараф этиш мақсадида конструкцияси такомиллаштирилган тоғ жинсини парчаловчи асбобларнинг самарадорлигини аниқлаш учун саноат тажриба-синов ишлари ўтказилди.

Дала шароитида ўтказилган тажриба-синов ишларининг мақсадини тоғ жинсини парчаловчи асбобларнинг чидамлилигини ва бурғилашнинг механик тезлигига таъсирини аниқлаш, ҳамда такомиллаштирилган долоталарнинг юқори эксплуатация кўрсаткичларини таъминловчи рационал иш режимларини аниқлаш ташкил этди.

Тажриба-синов ишлари Навоий кон-металлургия комбинати Давлат корхонаси Геологик қидирув экспедициясининг Марказий геологик қидирув партиясида ҳамда Регионал геология ДУК нинг Марказий-Ўзбекистон партиясида олиб борилди.

Дала шароитида ўтказилган тажриба-синов ишлари қуйидаги тартибда

ISSN 3030-3907

бажарилди, оддий ва такомиллаштирилган уч шарошкали долоталар бир турдаги геологик шароитларда, бурғилашнинг турли хил режимларида долотанинг тўлиқ ишдан чиққунига қадар эксплуатация қилинди. Экспериментал бурғилаш ишлари қаттиқлиги f=7÷8 тоифага тенг бўлган тоғ жинсларида, техник сув ва гил асосида тайёрланган (ППБ маркали гил порошоги (8%), кальцийли сода (0,5%), техник сув (91,5%) бурғилаш суюқлигини қўллаган ҳолатда амалга оширилди. Ҳар бир бурғилаш режими учун тажриба-синовлари 3 мартадан такрорланди.

Тажриба-синов ишлари долотага бериладиган ўқий босим кучи ($P_{ос}$) 7,5 кН, 10 кН, 12,5 кН ва 15 кН катталиклари, ва худди шундай долотанинг айланишлар сони (n) хар бир ўқий босим кучи катталиги учун 80, 100, 120 ва 140 мин$^{-1}$ катталикларида бажарилди.


Бажарилган тажриба-синов ишларининг умумлаштирилган ўртача натижалари И. 1-жадвалда келтирилган. [2, 3]

Ўтказилган тажриба-синов ишларининг натижалари уч шарошкали долотанинг скважина ўтиш қобилиятини ҳамда бурғилашдаги механик тезлигини бурғилаш режимининг кўрсаткичларига ва долотанинг конструктив тузилишига, яъни уч шарошкали долотанинг панжа қисмининг ва куракчаларини винтли чизиқ бўйлаб уюрмали эгилганлик бурчагига боғлиқлигини аниқлаш имконини берди.

Тажриба-синов ишлари давомида такомиллаштирилган уч шарошкали долоталарнинг панжа қисмининг ва куракчаларини винтли чизиқ бўйлаб β= 60° ва β= 65° уюрмали эгилганлик бурчакларида оддий долотага нисбатан бурғилашнинг механик тезлиги ($V_м$) ўртача 2 % га, долотанинг чидамлилиги эса 3 % гача ошгани кузатилди.


Уч шарошкали долотанинг панжа қисминини радиал йўналиш бўйича 50° га эгилтирилган, панжа қисмининг устидан эса β=40° бурчак остида куракча ўрнатилган конструкцияси эса тажриба-синовлари давомида яхши натижа кўрсатди. Қуйида 4.8- ва 4.9-расмларда оддий ва такомиллаштирилган долотанинг (β= 40°) бурғилаш механик тезлигини ўқий босим кучи ва айланишлар сонига боғлиқлик графиги келтирилган.

ISSN 3030-3907



7-расм. Оддий долотанинг бурғилаш механик тезлигини ўқий босим кучи ва айланишлар сонига боғлиқлиги графиги

Оддий долота билан тажриба-синов ишларини амалга оширганда ўқий босим кучи 7,5 кН ни, долотанинг айланишлар сони 80 мин$^{-1}$ ни ташкил этганда бурғилашнинг механик тезлиги ($V_м$) 3,1 м/соат ни ташкил этди. Ўқий босим кучини ва айланишлар сонини ошириш билан бирга бурғилашнинг механик тезлигини ошиб бориши кузатилди, бунда ўқий босим кучи максимал 15 кН, айланишлар сони 140 мин$^{-1}$ ни ташкил этганда бурғилашнинг механик тезлиги ($V_м$) 11,6 м/соатга етди (4.8-расм).




8-расм.Такомиллаштирилган долотанинг (β= 40°) бурғилаш механик тезлигини ўқий босим кучи ва айланишлар сонига боғлиқлиги графиги

Уч шарошкали долотанинг такомиллаштирилган конструкциясини қўллаганда эса ўқий босим кучи 7,5 кН ни, долотанинг айланишлар сони 80 мин$^{-1}$ ни ташкил этганда бурғилашнинг механик тезлиги ($V_м$) 3,3 м/соат ни ташкил этди. Ўқий босим кучини 15 кН ва айланишлар сонини 140 мин$^{-1}$

ISSN 3030-3907

катталигида таъминланганда эса бурғилашнинг механик тезлиги ($V_м$) 12,8 м/соатни ташкил этди. Бунда такомиллаштирилган долотани қўллаш бурғилашнинг механик тезлигини ўртача 6 % гача ошириши кузатилди (4.9-расмга қаранг). Бурғилаш режимининг қолган кўрсаткичларида ҳам бурғилашнинг механик тезлигининг ($V_м$) ҳудди шундай ўсиши кузатилди. [3, 4]


Тажриба-синов ишлари давомида оддий ва такомиллаштирилган уч шарошкали долоталарнинг чидамлилигини бурғилаш режимларига боғлиқлиги тадқиқ қилинди. Қуйида 1.9- ва 4.10-расмларда оддий ва такомиллаштирилган долоталарнинг чидамлилигини ўқий босим кучи ва айланишлар сонига боғлиқлик графиклари келтирилган.



9-расм. Оддий долотанинг чидамлилигини ўқий босим кучи ва айланишлар сонига боғлиқлиги графиги

Скважинани оддий долота билан бурғилаш давомида бурғилаш режимининг қуйидаги катталикларида $P_{ўқ}$=7,5 кН, n=80 мин$^{-1}$, G=6,8 л/с, долотанинг чидамлилиги (ўтиш ресурси) 132 метрни ташкил этди. Айланишлар сонини ҳар 20 мин$^{-1}$ га оширганда долотанинг чидамлилиги 3-4 метрга камайиб борди. Ўқий босим кучини 10 кН га оширганда долотанинг чидамлилиги 128 метрни, ўқий босим кучини 12,5 кН ва 15 кН га оширганда эса 108 ва 91 метрни ташкил этди (4.10-расм). Ўқий босим кучининг ҳудди шундай катталикларида долотанинг айланишлар сонини ошириш долотанинг чидамлилигини камайишига олиб келди. Бурғилаш режими кўрсаткичларининг ошиб бориши натижасида долотанинг чидамлилиги (ўтиш ресурси) камайиб бориши кузатилди.


ISSN 3030-3907



10-расм. Такомиллаштирилган долотанинг (β= 40°) чидамлилигини ўқий босим кучи ва айланишлар сонига боғлиқлиги графиги

Такомиллаштирилган долотани қўллаганда эса (10-расм) бурғилаш режимининг $P_{ўк}$=7,5 кН, n=80 мин$^{-1}$, G=6,8 л/с катталикларида долотанинг чидамлилиги 135 метрни, айланишлар сонини 100мин$^{-1}$ га оширганда 130 метрни ташкил этди. Долотанинг айланишлар сонининг 80 ва 100мин$^{-1}$кўрсаткичларида оддий долотани қўллаганга нисбатан такомиллаштирилган долотада деярли чидамлилик ошмади. Долотанинг айланишлар сонининг 120 ва 140 мин$^{-1}$га етказилганда чидамлилик ўртача 8-10 метргача ошгани аниқланди. Бундан келиб чиқиб шуни хулоса қилиш мумкинки такомиллаштирилган долотанинг самарадорлигига долотанинг айланишлар сони 120 мин$^{-1}$ дан ошганда эришилади.

Оддий ва такомиллаштирилган долоталарнинг чидамлилигини долотанинг айланишлар сонининг (n) 120 ва 140 мин$^{-1}$ катталикларида қиёсий графиклари 11- ва 12-расмларда келтирилган. [5,6]




а-оддий долота; б-такомиллаштирилган долота

ISSN 3030-3907

11-расм. Оддий ва такомиллаштирилган долотанинг айланишлар сони (*n* = 120)бўлганда чидамлилигини ўқий босим кучи ва айланишлар сонига боғлиқлиги графиги

Долотага бериладиган ўқий босим кучининг 7,5 кН катталигида айланишлар сони 120 мин$^{-1}$ бўлганда (11-расм), оддий долотанинг чидамлилиги 123 метрни, такомиллаштирилган долотанинг чидамлилиги эса 133 метрни ташкил этди. Ўқий босим кучини ошиб бориши натижасида ҳар иккала долотада ҳам чидамлилик камайиб борди, бироқ такомиллаштирилган долотанинг чидамлилиги ўртача 7-8 % га юқорилиги сақланиб қолди.



а-оддий долота; б-такомиллаштирилган долота

12-расм. Оддий ва такомиллаштирилган долотанинг айланишлар сони (*n* = 140) бўлганда чидамлилигини ўқий босим кучи ва айланишлар сонига боғлиқлиги графиги

Долотанинг айланишлар сони (n) 140 мин$^{-1}$ га етказилганда (12-расм), ўқий босим кучининг ($P_{ос}$) 7,5 кН катталигида оддий долотанинг чидамлилиги 116 метрни, такомиллаштирилган долотанинг чидамлилиги эса 130 метрни ташкил этди, бунда долотанинг чидамлилиги 14 метрга ошди. Ўқий босим кучининг бошқа кўрсаткичларида ҳам ҳудди шундай ўсиш кузатилди.

Юқорида келтирилган тажриба-синов ишларини натижаларини таҳлил қилиш асосида шуни таъкидлаш мумкинки, такомиллаштирилган уч шарошкали долота скважина забойида шламли режим ҳосил бўлишини камайтириш асосида бурғилашнинг механик тезлигини ($V_м$) ва долотанинг чидамлилигини оширади. Шунингдек, ўтказилган тажриба-синовлари натижасида шу аниқландики, таклиф этилаётган долотанинг юқори самарадорлилиги унинг айланишлар сони (n) 120-140 мин$^{-1}$, ўқий босим кучи 10-12,5 кН катталикларида таъминланади.

Шундай қилиб, уч шарошкали долотанинг панжа қисмини радиал йўналиш бўйича 50° га эгилтирилиб, панжа қисмининг устидан эса β=40°

ISSN 3030-3907

бурчак остида қаттиқ қотишмали куракча ўрнатилиб такомиллаштирилган конструкциясини қўллаш, бурғилашнинг муъайян режимларида оддий долоталарга нисбатан бурғилашнинг механик тезлигини 6 % гача, долотанинг чидамлилигини 8 % гача ошириши аниқланди.

Хулоса

Шундай қилиб, уч шарошкали долотанинг панжа қисмини радиал йўналиш бўйича 50° га эгилтирилиб, панжа қисмининг устидан эса β=40° бурчак остида қаттиқ қотишмали куракча ўрнатилиб такомиллаштирилган конструкциясини қўллаш, бурғилашнинг муъайян режимларида оддий долоталарга нисбатан бурғилашнинг механик тезлигини 6 % гача, долотанинг чидамлилигини 8 % гача ошириши аниқланди.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mustafayev O.B., Djurayev R.U., Urunova X.Sh., Normayev Q.X. Burg'ilash snaryadining yangi konstruktsiyasini ishlab chiqish asosida jins parchalovchi asboblarning samaradorligini oshirish // Innovatsion texnologiyalar. – Qarshi, 2021. – № 3. – 12-16 б.

2. Мустафаев О.Б., Джураев Р.У., Хатамова Д.Н., Нормаев К.Х. Исследование факторов и влияния температурного режима на эффективность работы породоразрушающего инструмента // Инновационные технологии. – Карши, 2022. – № 1. – 12-16 б.

3. Djurayev R.U., Mustafayev O.B. Skvajinalarni havo yordamida burg'ilashning energiya samaradorligini oshirish // O`zbekiston konchilik xabarnomasi. – Navoiy, 2017. – №2. – S. 45-47.

4. Mustafayev O.B., Djuraev R.U., Adixakimova M. A. Improving of the efficiency of cleaning of the bottom of the borehole from the crushed slurry on the basis of improving of the construction of a three-ballchisel // The american journal of engineering and technology. – USA, 2022. – pp. 79-91.

5. Mustafayev O.B., Djuraev R.U., Adixakimova M. A. Increasing the efficiency of gender crushing equipment on the basis of eliminating the production of slimming regime at the bottom of the well // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – Indonesia, 2022. – Vol. 3. – Issue 5. – pp. 270-275.

6. Mustafayev O.B., Djuraev R.U., Khatamova D.N., Khamzaev A.A. Mathematical Modeling of Thermal Conditions of Drilling Bits in Air Drilling // IJARSET. – India, 2022. – № 3 – pp. 19046-19052.

ISSN 3030-3907

YUQORI KUCH UZATMA JAMLANMASINING TEXNIK KO`RSATKICHLARI VA AFZALLIKLARINI TAVSIFLASH

Bekjonov Rozisher Soatmurodovich
Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent
Qarshi, O`zbekiston
E-mail: rozisher@mail.ru
Samadov Aziz Xasanovich
Qarshi davlat texnika universiteti, mustaqil tadqiqotchi, dotsent v.b
Qarshi, O`zbekiston
E-mail: azizbek_samadov1986@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada neft va gaz quduqlarini burg‘ilash sanoatida qo‘llaniladigan zamonaviy, eng yangi texnologik jihozlar kompleksi bo‘lgan yuqori kuch uzatmasi jamlanmasining qo‘llanilishi, burg‘ilash jarayonini soddalashtirib, ish unumdorligini oshirish, ortiqcha sarf xarajat, texnika va texnologiyasi, vaqt va ishchi kuchini sarfini kamaytirish imkonini beradi. Burg‘ilash qurilmasining yuqori kuch uzatma jamlanmasi bir qator murakkab texnologik operatsiyalarni ta’minlashi mumkin bo‘lgan burg‘ilash qurilmalari uchun printsipial yangi turdagi mexanizmlar shaklida taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: quduq, quduqlarini burg‘ilash, texnologik jihozlar kompleksi, burg‘ilash sanoati, dizel agregati, quvurlar tizmasi, burg‘ilash uskunasi.

Аннотация Применение в статье современных, новейших комплексов технологического оборудования, применяемых в буровой промышленности нефтяных и газовых скважин, позволит упростить процесс бурения, повысить производительность работ, сократить затраты на перерасходы, технику и технологии, время и рабочую силу. Верхний силовой привод буровой установки представлена в виде принципиально нового типа механизмов для буровых установок, которые могут обеспечить ряд сложных технологических операций.

Ключевые слова: бурение скважин, скважина, комплекс технологического оборудования, буровая промышленность, дизельный агрегат, трубопровод, буровое оборудование.

Annotation: The use in the article of modern, state-of-the-art technological equipment used in the oil and gas well drilling industry will make it possible to simplify the drilling process, increase the productivity of work, reduce the cost of overspending, equipment and technologies, time and labor. The upper power drive of the drilling rig is presented in the form of a fundamentally new type of mechanism for drilling rigs, which can provide a number of complex technological operations.

ISSN 3030-3907

Keywords: well drilling, well, complex of process equipment, drilling industry, diesel unit, pipeline, drilling equipment.

Kirish

Yuqori kuch uzatma jamlanmali burg‘ilash qurilmalari – bu, asosan, aylantirgichning harakatli turi bo‘lib, salnik-vertlyug bilan ta’minlangan. Bugungi kunda yuqori kuch uzatma jamlanmalari jahonda burg`ilash ishlari amaliyotida keng qo‘llanilmoqda.



1 – rasm. Burg‘ilash qurilmasining yuqori kuch uzatma jamlanmasi.

Yuqori kuch uzatma jamlanmasining ishlash prinsipi.

Yuqori kuch uzatma jamlanmali o‘zining mukammalligi, keng ko‘lamli imkoniyatlari, birinchi navbatdagi funktsiyalar va texnologik operatsiyalarni bajarishga qobiliyati tufayli burg‘ilash sohasida jahon amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Uskunalar birinchi navbatda quduqlarni burg‘ilash jarayonida burg‘ilash tizmasining uzluksiz aylanishini ta’minlab beradi. Bundan tashqari, ushbu tizim quduq devoriga ishlov berish va quduq diametrini kengaytirishda qo‘llanilishi mumkin. Yuqori kuch uzatma jamlanmali burg‘ilash qurilmalari quduqni burg‘ilash vaqtida qo‘llaniladigan burg`ilash quvurlarini qo‘shish va quduqlarni mustahkamlash uchun jalb qilinishi mumkin. Elektr yoki dizel agregatli

ISSN 3030-3907

yuqori kuch uzatma jamlanmasi quvurlar tizmasini biriktirish orqali burg‘ilash quvurlar tizmasini hosil qilishda katta yordam ko‘rsatishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, elektr yoki dizel agregatli yuqori kuch uzatma jamlanmasi mustahkamlash tizmalarini tushirishga qaratilgan operatsiyalarni sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin. Bundan tashqari, tizim quduq tubi dvigateli qo`llanilganida burg'ilash quvurlar tizmasini aylantirishga yordam beradi. Ushbu tizim quduqni tezroq yuvish va quvurlarni quduqqa tushirishni osonlashtirishi mumkin.

Burg‘ilash qurilmasining yuqori kuch uzatma jamlanmasi ko‘rinishida taqdim etilgan tizim, ya’ni uning harakatli qismi vertlyug va burg‘ilash reduktoridan iborat bo‘lib, ular sirg`a yordamida tal blokining traversiga o‘rnatiladi. Bu tizim barcha turdagi jinslarni burg‘ilashni yanada yaxshilaydi. Shuningdek, bu usulda burg'ilash ayniqsa, uzoq shimolning ekstremal sharoitida amalga oshirilishi mumkin. Vertlyug-reduktor tizimi joylashgan qopqoq ikki gidromotor bilan jihozlangan. Burg‘ilash shu tarzda yuz beradi, gidroval konstruksiyasiga kiruvchi gidroval reduktor valining korpusi bilan bevosita ulanadi. Tizim shunday yaratilganki, gidravlik tormoz burg'ilash tizmasini tormozlash uchun maxsus mo'ljallangan gidravlik dvigatellardan biriga o'rnatiladi. Yon tomonidan vertlyug korpusiga rama o‘rnatiladi. Rama orqali tizim yo‘naltiruvchi uskunaga aylanish momentini uzatadi. Quvur manipulyatori elevatorni zarur yo‘nalishda aylantiradi. Bu qabul qiluvchi ko‘priklar, quvurlarni uzaytirish uchun mo‘ljallangan shurf yoki boshqa tomon bo‘lishi mumkin.

Burg'ilash moslamasining yuqori kuch uzatma jamlanmasi quvur qisqichi bilan jihozlangan bo'lib, bu vertlyug yechilganda quvurning yuqori muftasini ushlab turish va aylanishini oldini olish uchun kerak. Agregat shunday jihozlanganki, vertlyug tanasi va nippel orasiga qo‘lda sozlanuvchi sharli kran o`rnatilgan. U tizimga vertlyug o‘rtasidagi ichki teshikni operatish berkitish uchun kiritilgan. UnI ichki preventor o`rnida ishlatish mumkin. Uning yordamida burg'ilash tizmasini aylantirgandan keyin to'plangan yuvish suyuqligining qoldiqlari saqlanib qoladi.

Sirg`alar tizimi elevatorni quduq o‘rtasiga olib kelish va yaqinlashishni amalga oshiradi. U traverslarning yon shoxlariga biriktiriladigan sirg`alar shaklida namoyish etiladi.

Sirg`alarning qarama-qarshi tomonida gidravlik tsilindrlar biriktirilgan bo'lib, ularning u yoki bu yo'nalishda og'ishini ta'minlaydi.

Burg'ilash moslamasining yuqori kuch uzatma jamlanmasining asosiy xususiyati - burg'ilash jarayonini parallel ravishda to'xtatmasdan, quduqni

ISSN 3030-3907

burg'ilashning davom etayotgan har qanday bosqichlarida qurilmani o'rnatish mumkin.

Burg'ilash moslamasining yuqori kuch uzatma jamlanmasining turlari.

Burg'ilash uskunasining yuqori kuch uzatma jamlanmasining elektr ta'minoti iste`moli usullariga qarab tasniflanadi, ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Doimiy tok tarmog‘i orqali;
2. O‘zgaruvchi tok tarmog‘i orqali;
3. Gidravlik;
4. Elektr.

Bundan tashqari, ushbu agregatlarni qo‘llash usullariga qarab bir necha sinflarga ajratiladi. Ular quyidagicha:

1. Dengizda;
2. Quruqlikda;
3. Statsionar;
4. Mobil.

Zamonaviy tizimlar umumiy o'lchamlarni sezilarli darajada qisqardi. Bu, birinchi navbatda, jihozni loyihalashda ikkita ixcham elektrodvigateldan foydalanish bilan bog'liq. Bundan tashqari, ushbu elektrodvigatellar endi o'zgaruvchan tokdan foydalangan holda ko'pgina qurilmalarda ishlaydi.

Bu tezlik va aylanish momenti kabi xususiyatlarning sifat jihatidan yaxshilanishiga olib keladi. Burg‘ilash uskunasining yuqori kuch uzatma jamlanmasining zamonaviy tizimlarida qo‘llaniladigan o‘zgaruvchi tok dvigateli kommunikatsiya tizimlari va himoya vositalariga ehtiyoj bo‘lmaydi. Bu murakkab va xavfli sovitish tizimini bekor qilish imkonini beradi. O‘zgaruvchi tok dvigatellari orqali aylantirish momenti 350 ot kuchi hosil qilinmoqda. Ularning har biri 1200 ot kuchiga teng quvvatga ega bitta elektr dvigatel tomonidan yaratilgan momentga teng. Taqdim etilgan dvigatellar to'xtash joyidan to'liq tezlashishga maksimal nominal o'tish bilan aylanish moment hosil qilishga qodir. Bunga asoslanib, 220 aylanish tezligiga qadar daqiqada 110 momentga teng tezlikda moment 47,300 kg/m ni tashkil qiladi. Konstruksiya shunday loyihalanganki, ikkita oddiy o'zgaruvchan tok dvigateli butun burg'ilash tizimining eng muhim qismiga aylandi. Oddiy rejimdagi dvigatellar burg'ilash qurilmasi tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan 600 va 480 voltli o'zgaruvchan kuchlanishli tarmoqdan ishlashga qodir. Bundan tashqari, kerakli kuchlanish 50 voltga teng doimiy tokni o‘zgartirish natijasida mumkin va yuqori kuchlanishli elektr uzatish tizimlariga uzatilishi mumkin. Bu xususiyatlar uskunani har qanday elektr tizimida ishlatishga imkon beradi. Zamonaviy agregatlarda yo‘naltiruvchi balkaning

ISSN 3030-3907

og`irligi kamaydi. Endi tizim 44 metr balandlikdagi machtalarga o'rnatilishi mumkin, bunda bo'shliq 3,6 metrdan oshmaydi.

Yangi modifikatsiyalarda aylanish momenti machta korpusiga emas, balki yo‘naltiruvchi balka bo‘ylab, to'g'ridan-to'g'ri tashuvchi ramaga va pastki poydevorga uzatiladi. Zamonaviy tizimlarning o'rtacha yuk ko'tarish quvvati 400 tonnaga yetishi mumkin va uning ishlashi kichik va o'rta turdagi burg'ilash qurilmalarida amalga oshiriladi. Butun konstruktsiyani sezilarli darajada soddalashtirish natijasida agregatni ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar darajasi sezilarli darajada kamaytirildi. Ikkinchi darajali integratsiyalangan gidravlika tizimini qo‘shish natijasida montaj ishlarining barcha bosqichlari sezilarli darajada soddalashtirildi. Jihozning eng yaxshi xususiyatlaridan biri - bu dvigatelning yuqori samaradorlik bilan xavfsiz ishlashini ta'minlaydigan intervalgacha momentning mavjudligi. Bu, ayniqsa, qo'shimcha burg'ilash elementlarini biriktirish va yechishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu konstruktorlik yechimi quvur qisqichi yoki quvur manipulyatoriga bo'lgan ehtiyojni yo'q qiladi. Bularning barchasi agregatning konstruksiyasini sezilarli darajada soddalashtiradi, uning og'irligi va narxini sezilarli darajada kamaytiradi. Qisqichning oddiy konstruksiyasi shunday ishlab chiqilganki, yuqori va o'rta qulfni ushlaganda, burg'ilovchi quvurlar tizmasini to`liq aylantiradi. Qurilma ikkita o'rnatilgan xavfsizlik klapanlari bilan jihozlangan. Yuqori qismi masofadan boshqarilishi mumkin va burg`ilash eritmasi ruxsatsiz chiqarilganda yuqori darajadagi xavfsizlikni kafolatlaydi. Klapan aylanuvchi kuch uzatmasi boshiga ulanadi, buning yordamida shamlar va qiyalanuvchi sirg`a mexanizmlari bilan ishlash mumkin.

Qiyalanuvchan sirg`alar ikki tomonlama gidravlik mexanizm tarkibiga kiradi, u qiyalanuvchan sirg`alarlarni qo`llash tufayli harakatlanuvchi elementlarning 60 santimetrdan ortiq masofaga chekinishini ta’minlaydi. Gidravlik kompensator tizimining mavjudligi svecha bog`lovchi bilan ulangan vaqtda kompensator amortizatsiya paydo bo'lishiga imkon beradi. Bunday holda, quvurlar ohista polga qo`yiladi va vintni ochish paytida shpal muftadan ajratiladi.

Oddiy va ixtisoslashgan muzlatish tizimi xizmat ko‘rsatuvchi kontur, nasos va oraliq sovutgichning qo'shmaslik qo‘ymaslik uchun qo‘llaniladi. Agregatni o'rnatish jarayoni o'rtacha sakkiz soatdan oshmaydi. Bunday holda, ulanish ishlarining bir qismi butun o'rnatish keyingi ish joyiga kelgunga qadar amalga oshirilishi mumkin. Shlang kabeli o'ttiz metr balandlikda, machtaga biriktirilgan.

Xizmat ko‘rsatuvchi konturga ulanishni ta'minlash uchun tez ajraladigan ulash elementlaridan iborat bo`lgan uzel oldindan hosil bo'ladi. Ushbu maqsadlar

ISSN 3030-3907

uchun maxsus taqsimlash qutisi ham ishlatilishi mumkin. Boshqaruv amalga oshirilayotgan asosiy konsol burg'ilash panelida joylashgan.

Boshqaruv paneliga o'rnatilgan harfli – raqamli monoxrom displeyning mavjudligi nazorat va o'lchash guruhi asboblarining barcha ko`rsatkichlarini kuzatishni ancha osonlashtiradi. U joriy xizmat ko'rsatish rejimi, bajarilgan ish vaqti, soniyada aylanishlar soni va boshqalarga oid ma'lumotlarni ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

[1] Nurmatov J.T., Samadov.A.X., Abdiraximov.I.E., Tog‘ayev.A.I., Kurbanov.A.T., Samadova.M.X. “Neft va gaz konlari asoslari” fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 2023.-6-7 b.

[2] “Halliburton”. Drill bits and service, каталог технических решений- 2014.-20-26 с.

[3]Yuldashev.T.R., Mirzayev.E.S., Shonazarov.E.B., Samadov.A.X., “Neft va gaz quduqlarini burg`ilash texnologiyasi va texnikasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Voris” nashriyoti, 2020.

[4] Sunnatov.Z.U., “Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash” fanidan darslik, 2020.

[5]Технология радиального бурения // http://www. Radial drilling.com /technology.htm.

[6] Yuldashev.T.R., Nurmatov.J.T., Samadov.A.X., “Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash” fanidan o‘quv uslubiy majmua, 2019.

[7] Aminov A.M., Elmurodov E.B., Nazarbekova D.K. “Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash jarayonida qo‘llaniladigan namunaviy masala va hisoblashlarning uslubiy ma’lumotnomasi. “Kvinta Print” MChJ, Toshkent, 2014 yil. – 361-362 b.

[8] Yuldashev.T.R., Xolbazarov.I.R., Samadov.A.X., “Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash” fanidan ma’ruza matnlari to‘plami. “Uzoq bobo” XSICHF 2016.-165-167 b.

[9] Tidwell, V.C., and Wilson, J.L.: «Heterogeneity, Permeability Patterns, and Permeability Upscaling: Physical Characterization of a Block of Massillon Sandstone Exhibiting Nested Scales of Heterogeneity, » SPEREE (August 2010), 283.

[10] Mirzayev.E.S., Shonazarov.E.B., Samadov.A.X., “Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash texnologiyasi va texnikasi” fanidan o‘quv uslubiy majmua, 2019.-56-57 b.

[11] Samadov.A.X. “Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash texnologiyasi va texnikasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, Qarshi, “Intellekt” nashriyoti, 2023.-8-10 b.

ISSN 3030-3907

KARYER GIDRAVLIK EKSKAVTORLARNING TO‘XTALISH SABABLARINING TAHLILI

Jurayev Akbar Shavkatovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
Turdiyev Sardorjon Abdumuminovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizning foydali qazilma konlarida qo‘llaniladigan gidravlik ekskavatorlarning asosiy nosozliklari tahlili o‘tkazilgan bo‘lib, gidravlik qismlarining nosozliklari tufayli to‘xtalishlar ulishlari keltirilgan. Ishlab chiqish jarayonida gidravlik tizimlarning ish holati va yuzaga kelgan salbiy omillarning tadqiqoti olib borilgan va ularning natijalari tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: Gidravlik tizimlar, ishchi suyuqlik, bosim, harorat, yuqori bosim rukav, zichlagichlar,gidrodvigatel, nasos.

Аннотация. В данной статье проведен анализ основных неисправностей гидравлических экскаваторов, применяемых на месторождениях полезных ископаемых нашей страны, приведены доли остановок из-за неисправностей гидравлических деталей. В процессе разработки проводилось исследование рабочего состояния гидросистем и возникших неблагоприятных факторов, анализировались их результаты.

Ключевые слова: гидравлические системы, рабочая жидкость, давление, температура, рукав высокого давления, уплотнитель, гидродвигатель, насос.

Abstract. This paper analyses the main faults of hydraulic excavators used in the mineral deposits of our country, the shares of stoppages due to faults of hydraulic parts are given. In the process of development the research of the working condition of hydraulic systems and the adverse factors occurred was carried out, their results were analyses.

Key words: hydraulic systems, working fluid, pressure, temperature, high-pressure hose, seal, hydraulic motor, pump.

Kirish

Gidravlik ekskavatorlarning to‘xtalishlari berilgan reja asosida, ekspluatasion, texnologik va texnik normativlaridan belgilanmagan holatidir. Gidravlik ekskavatorning to‘xtalishlarini keltirib chiqaruvchi sabablari rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan bo‘ladi [1,2,3].


Rejalashtirilgan holatida to‘xtalishlar gidravlik ekskavatorning ekspluatasiyasi normativ hujjatlari asosida berilgan reglamentga asosan amalga oshiriladi. Bularga kabel liniyalarining montaji, rejali profilaktika ta'mirlash, yoqilg‘i quyish, burg‘ilash portlatish ishlarining olib borilishi, texnik xizmat ko‘rsatish va zaboyni tayyorlash ishlari kiradi [4,5].

ISSN 3030-3907

Rejalashtirilmagan holatida texnik va tashkiliy to‘xtalishlarga ajraladi. Texnik holatiga turli xil ta'mirlash ishlari kiradi. Tashkiliyga esa avtosamosvalni yuklashda kutish, yoqilg‘ining tugab qolishi, elektr energiyaning oshishi, burg‘ilab portlatish ishlarini berilgan normadan oshib ketishi, negabaritlarning xalaqit berishi, yo‘l sharoiti, ta'mirlash ishlarining muddati oshib ketishlari kiradi [6,7].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mamlakatimizning foydali qazilma konlarida qo‘llaniladigan gidravlik ekskavatorlarning ishini tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘xtalishlarning 2 % akkumulyatorning, 27 % ichki yonuv dvigatelining, 11 % nasosning, 2% avtomatik moylash tizimi, 38% gidravlik tizim butlovchi detallarining yo‘qligi natijasida to‘xtalish, 3% gidravlik qismlarining, 2% cho‘michning, 10% yuqori bosim rukavlari, 5% gidrotizim gidroyuritmasining nosozliklariga to‘g‘ri keladi[8].

1- rasmda gidravlik ekskavatorlarning to‘xtalishlari sabablarining hissalari ko‘rsatilgan.



1 – akkumulyatorning nosozligi; 2 – ichki yonuv dvigatelning nosozligi; 3 – nasosning nosozligi; 4 – avtomatik moylash tizimi nosozligi; 5 – gidravlik tizimning detallarini tiklash uchun zahira yo‘qligi uchun to‘xtalishi; 6 – gidravlik qismlarning nosozliklari; 7 – cho‘michning nosozligi; 8 – yuqori bosim rukavlari nosozligi; 9 – gidrotizim gidroyuritmasining nosozligi


This radar chart illustrates the multifaceted impact of Special Economic Zones (SEZs) across five key dimensions: Economic Growth, Regional Development, Trade Enhancement, Investment Attraction, and Geopolitical Influence. The values represent a comparative assessment of SEZ effectiveness in each area on a scale of 0-100. Economic Growth and Trade Enhancement show the highest impact, reflecting specific experiences from Uzbekistan and Bangladesh, while Investment Attraction and Regional Development demonstrate strong but varied outcomes. Geopolitical Influence indicates the emerging role of SEZs in international relations. This visualization captures the complex interplay of factors influencing SEZ success and future prospects across different economic contexts.

VI. Conclusion

In conclusion, the role of Special Economic Zones (SEZs) as a strategic tool for fostering economic growth cannot be overstated. Their ability to attract foreign direct investment, promote local employment, and stimulate industrial development is evident across various contexts, including the modest contributions noted in Zambia (RAMALOKO et al., 2024) and the significant advancements seen in Indonesias Blue Economy through initiatives like the Galang Batang SEZ (Lamidi et al., 2024). Moreover, as the world increasingly seeks sustainable energy solutions, the potential of Enhanced Geothermal Systems in hard rock formations illustrates the pressing need for innovative approaches in zone management (Khankishiyev et al., 2024). To fully realize the economic potential of SEZs, a cohesive development strategy that prioritizes technological advancement and collaboration with higher education entities is essential (Bilici et al., 2024). Thus, adopting best practices informed by empirical research will enhance the efficacy and sustainability of SEZs, ensuring they contribute meaningfully to national and global economies while aligning with modern developmental objectives. The flowchart in encapsulates these interconnections, further underscoring the integral framework required for successful implementation.

The findings of this study reveal significant insights into the operational framework and effectiveness of Special Economic Zones (SEZs) across various contexts, highlighting their potential for economic enhancement through strategic development and management. As noted, SEZs play a vital role in boosting economic activity by providing tailored policies that attract investment and foster regional development, as evidenced by their contributions to gross domestic production and trade in countries like Uzbekistan (Ahn et al., 2024). Additionally, the research underscores the importance of implementing place-based industrial policies to address local economic disparities, particularly in developing nations

ISSN 3030-3907

such as Egypt (Shaban et al., 2025). Moreover, the significance of integrating sustainable transport infrastructure with SEZ initiatives is emphasized, as it can support broader economic objectives while enhancing environmental sustainability (Bénichou et al., 2024). The development of specific SEZs, such as the Galang Batang, further illustrates the need for effective management to navigate challenges and fully realize their economic potential (Lamidi et al., 2024). An illustration depicting the structure of SEZs reinforces the significance of these zones in economic discussions.

REFERENCES

1. RAMALOKO, MOKGADI PHOEBE (2024) Special Economic Zones in Zambia. doi: https://core.ac.uk/download/638786788.pdf
2. Ahn, Young-Jin, Gu, Ji-Yeong, Juraev, Zuhriddin (2024) Analyzing Free Economic Zones in Uzbekistan for Sustainable Growth. doi: https://core.ac.uk/download/616458959.pdf
3. Bryan, Gharad, Lee, Neil, Mulder, Niels, Oliveira Cunha, et al. (2024) Unlocking economic prosperity in the Zambian Copperbelt. doi: https://core.ac.uk/download/603238628.pdf
4. Sarosa, Chaviannisa Sagitha (2024) Local Economic Potential Changes in Sei Mangkei in Simalungun District, North Sumatra. doi: https://core.ac.uk/download/621739190.pdf
5. RAMALOKO, MOKGADI PHOEBE (2024) Special Economic Zones in Zambia. doi: https://core.ac.uk/download/638786788.pdf
6. Ahn, Young-Jin, Gu, Ji-Yeong, Juraev, Zuhriddin (2024) Analyzing Free Economic Zones in Uzbekistan for Sustainable Growth. doi: https://core.ac.uk/download/616458959.pdf
7. Aluko, Akinseye Olatokunbo, Aromolaran, Adeyemi, Coker, Toyin, Mulholland, et al. (2024) Small and Medium-Sized Enterprises and the Socioeconomic Factors in a Globalized Digital Era in Nigeria. doi: https://core.ac.uk/download/624275251.pdf
8. Shaban, Nashwa (2025) Unlocking Local Economic Potential: Understanding the Role of Place-based Industrial Policy in Egypt. doi: https://core.ac.uk/download/618255912.pdf
9. Jauhar, Safiullah (2024) Implementing a Sustainable Green Revolution Strategy for Comprehensive Economic Development in Afghanistan. doi: https://core.ac.uk/download/636464333.pdf
10. Lamidi, Lamidi (2024) Galang Batang SEZ Advancing the Blue Economy through Strategic Development. doi: https://core.ac.uk/download/622355247.pdf

ISSN 3030-3907

11. Azasi, Esther (2024) PROMOTING HEALTH SYSTEMS RESILIENCE IN THE FRAGILE CONTEXT OF NORTHERN GHANA: A STUDY OF COMMUNITY-BASED HEALTH PLANNING AND SERVICES (CHPS) EFFECTIVENESS. doi: https://core.ac.uk/download/604031423.pdf
12. Albert-Seifried, Vicky, Alpagut, Beril, Balsategui, Sergio Diaz de Garayo, Bisello, et al. (2024) Positive Energy Districts: Fundamentals, Assessment Methodologies, Modeling and Research Gaps. doi: https://core.ac.uk/download/621426950.pdf
13. Ahn, Young-Jin, Gu, Ji-Yeong, Juraev, Zuhriddin (2024) Analyzing Free Economic Zones in Uzbekistan for Sustainable Growth. doi: https://core.ac.uk/download/616458959.pdf
14. University for Business and Technology - UBT (2024) 13th International Conference on Business, Technology and Innovation 2024. doi: https://core.ac.uk/download/622109125.pdf
15. Aluko, Akinseye Olatokunbo, Aromolaran, Adeyemi, Coker, Toyin, Mulholland, et al. (2024) Small and Medium-Sized Enterprises and the Socioeconomic Factors in a Globalized Digital Era in Nigeria. doi: https://core.ac.uk/download/624275251.pdf
16. Lamidi, Lamidi (2024) Galang Batang SEZ Advancing the Blue Economy through Strategic Development. doi: https://core.ac.uk/download/622355247.pdf
17. Г. М. Исмаилов, S.A. Lomovskaya, V.S. Nevinitsyna, S.S. Ismailova (2024) FEATURES OF CONDUCTING CLASSES ON THE SUBJECT OF "TECHNOLOGY" IN CORRECTIONAL GENERAL EDUCATION SCHOOLS. doi: https://doi.org/10.34660/inf.2020.79.33.008
18. Christopher Ansell, Eva Sørensen, Jacob Torfing, Jarle Trondal (2024) Robust Governance in Turbulent Times. . doi: https://doi.org/10.1017/9781009433006
19. Panagiotis Skaloumpakas, Elissaios Sarmas, Michalis Rachmanidis, Vangelis Marinakis (2024) Reshaping the energy landscape of Crete through renewable energy valleys. Volume(14). Scientific Reports. doi: https://doi.org/10.1038/s41598-024-57471-7
20. Zhuhuan Liu, Nicole Kringos (2024) Transition from linear to circular economy in pavement engineering: A historical review. Volume(449), 141809-141809. Journal of Cleaner Production. doi: https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2024.141809
21. Fahim, Nader S., Farag, Yasser B.A., Gunbeyaz, Sefer Anil, Kurt, et al. (2024) Development and research directions in ship recycling : a systematic

ISSN 3030-3907

literature review with bibliometric analysis. doi: https://core.ac.uk/download/603344796.pdf

ISSN 3030-3907

CHIGITLI PAXTA QURITISHNING UMUMLASHGAN KINETIK MODELI

Mamatov Alisher Zulunovich
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Prof.
https://orcid.org/0009-0006-2458-7047
Raxmanov Jamshidbek Turdalievich
Guliston davlat pedagogika instituti Katta o‘qituvchi.
https://orcid.org /0009-0006-2520-188X

Annotatsiya. Bu tadqiqot ishi chigitli paxta quritish jarayonining umumlashtirilgan kinetik modeliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda quritish dinamikasini matematik usullar bilan ifodalash, differensial tenglamalar yordamida jarayonni modellashtirish va eksperimental ma’lumotlar asosida model parametrlarini aniqlash ko‘rib chiqilgan.

Quritish jarayoni "yumshoq rejim" (past harorat) sharoitida ko‘rib chiqilgan, bunda barcha davrlar uchun differensial tenglamalar ishlab chiqilgan. Asosiy tenglama birinchi tartibli trigonometrik ko‘rinishdagi differensial tenglama sifatida taqdim etilgan. Modelning asosiy parametrlari *(m, K)* eksperimental ma’lumotlar va kichik kvadratlar usuli yordamida aniqlangan. Model paxta quritish sanoatida jarayonni optimallashtirish, energiya sarfini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyatlarini beradi.

Kalit so‘zlar: chigitli paxta, quritish kinetikasi, differensial tenglamalar, matematik model, yumshoq rejim, kichik kvadratlar usuli.

Аннотация. Данная исследовательская работа посвящена обобщенной кинетической модели процесса сушки семян хлопка, которая рассматривает выражение динамики сушки с помощью математических методов, моделирование процесса с помощью дифференциальных уравнений и определение параметров модели на основе экспериментальных данных.

Рассмотрен процесс сушки в условиях «мягкого режима» (низкой температуры), для которого разработаны дифференциальные уравнения для всех периодов. Основное уравнение представлено как тригонометрическое дифференциальное уравнение первого порядка. Основные параметры модели (m, K) определялись с использованием экспериментальных данных и метода наименьших квадратов. Модель предоставляет возможности для оптимизatsii процесса, снижения энергопотребления и повышения качества продукции в отрасли сушки хлопка.

Ключевые слова: хлопок с семенами, кинетика сушки, дифференциальные уравнения, математическая модель, мягкий режим, метод наименьших квадратов.

ISSN 3030-3907

Abstract. This research work is devoted to the generalized kinetic model of the seed cotton drying process, which considers the expression of drying dynamics using mathematical methods, modeling the process using differential equations and determining the model parameters based on experimental data.

The drying process under "soft mode" (low temperature) conditions is considered, for which differential equations are developed for all periods. The main equation is presented as a first-order trigonometric differential equation. The main parameters of the model (m, K) were determined using experimental data and the least squares method. The model provides opportunities for process optimization, reducing energy consumption and improving product quality in the cotton drying industry.

Key words: cotton with seeds, drying kinetics, differential equations, mathematical model, soft mode, least squares method.

Kirish

Paxta quritish – bu qishloq xo‘jaligi va tekstil sanoatida mahsulot sifatini saqlash, saqlash muddatini oshirish va keyingi qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Aniqrog‘i, chigitli paxta quritish jarayonida namlikning to‘g‘ri yo‘qolishi tolalarning mexanik mustahkamligini saqlab qolish, mikroorganizmlar rivojlanishining oldini olish va energiya sarfini minimallashtirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda quritish jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, biroq chigitli paxta uchun uning murakkab tuzilishi (ko‘p qavatli tolalar, turli namlik bog‘lanish shakllari) va sezgirligi (yuqori haroratda buzilish xavfi) tufayli aniq matematik modellashtirish qiyinchiliklar tug‘diradi. Ayniqsa, "yumshoq rejim" deb ataladigan past haroratli quritish usullarida jarayonning kinetik qonuniyatlarini tavsiflovchi umumiy model hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqot ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, birinchi marta chigitli paxta quritishining umumlashtirilgan kinetik modeli taklif etilmoqda bo‘lib, u:

Biz quyida quritish jarayonini havo temperaturasini katta olmagan xolda (yumshoq rejim) hamma davrlarini ifodalovchi, hamda materialning ko‘p komponentligini hisobga oluvchi umumlashgan kinetik tenglamani ko‘ramiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

1. Tadqiqotning umumiy hajmi va maqsadi

Tadqiqotning asosiy maqsadi – chigitli paxta quritish jarayonining umumlashtirilgan kinetik modelini ishlab chiqish, uni matematik jihatdan asoslash va eksperimental usullar bilan tasdiqlash. Model quyidagilarga qaratilgan:

ISSN 3030-3907

Asosiy tadqiqot usullari

a) nazariy tadqiqotlar

Adabiyotlar tahlili:

Quritish kinetikasi, diffuziya nazariyasi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishga oid so‘nggi tadqiqotlarni tahlil qilish mualliflar Mujumdar, Strumillo, Sacilik ishlari ishlarida uchraydi [1-3], [14].

Quritishning nazariy asoslari quritish jarayonlarining umumiy prinsiplari **Mujumdar (2006)** ning "Handbook of Industrial Drying" asari quritishning fizik-kimyoviy jihatlarini tizimli bayon qiladi. Asarda: a) massa uzatishning asosiy mexanizmlari (diffuziya, kapillyar harakat) b) quritishning turli bosqichlari (dastlabki tez quritish, doimiy tezlik davri) c) paxta kabi tolali materiallar uchun maxsus quritish rejimlari muhokama qilingan

Kinetik modellashtirish. Strumillo va Kudra (1986) tomonidan ishlab chiqilgan klassik model: a) quritish tezligini tavsiflovchi empirik tenglamalar (Page, Henderson-Pabis modellari) Arrhenius tenglamasining quritish jarayoniga tatbiqi b) Paxta uchun optimal quritish harorati 45-60°C oralig‘ida ekanligi ta’kidlangan [4-8]

Matematik modellashtirish:

Asosiy tenglama: Birinchi tartibli differensial tenglama (1) - formula trigonometrik funksiyalar asosida taklif etiladi.

Quyida o‘ng tarafi trigonometrik darajali ko‘rinishdagi birinchi tartibli differensial tenglamaga qo‘yilgan boshlang‘ich masalани qaraymiz:

$$\begin{cases} -\dfrac{dW}{d\tau} = K(W_B - W_M)Sin^m\left[\dfrac{\pi(W - W_M)}{2(W_B - W_M)}\right] \\ W\Big|_{\tau=0} = W_B \end{cases} \qquad (1)$$

Bu yerdan ko‘rinib turibdiki boshlangich va muvozanat namliklarda quritish tezligi nolga teng. Berilgan differensial tenglamani yechish uchun uni integgrallab quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz:

$$\int_{W_B}^{W} \frac{dW}{K(W_B - W_M)Sin^m\left[\dfrac{\pi(W - W_M)}{2(W_B - W_M)}\right]} = -\int_0^{\tau} d\tau$$

Bu yerdan,

$$\tau = -\int_{W_B}^{W} \frac{dW}{K(W_B - W_M)Sin^m\left[\dfrac{\pi(W - W_M)}{2(W_B - W_M)}\right]}$$

ISSN 3030-3907

Belgilash kiritib:

$$X = \frac{\pi(W - W_M)}{2(W_B - W_M)}, \quad X_B = \frac{\pi}{2} \qquad (3)$$

va integral ostida turgan funksiya argumentida ham almashtirish qilsak

u holda

$$\tau = \frac{2 \cdot}{\pi K} \int_X^{X_B} \frac{dt}{Sin^m t} \qquad (4)$$

quritish vaqti hisoblash uchun formulani hosil qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Umumlashgan kinetik modelning *m, K*-parametrlarini tajriba natijalari va kichik kvadratlar usuli yordamida topish mumkin [9-13].

Xususan, quritish koeffitsiyenti *K* ni quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$K = \frac{\sum_{i=1}^{N} Z_i^2}{\sum_{i=1}^{N} \tau_i \cdot Z_I} \qquad (3.5)$$

bu yerda

$$Z_i = Z(W_i) = \frac{2}{\pi} \int_X^{X_Б} \frac{dt}{Sin^m t} \qquad (3.6)$$

Ko‘p sonli tajriba natijalarini qayta ishlash natijasida, (1) –modelning m-parametrini quyidagi qiymatlari olingan:

$$m = \begin{cases} 2 & \text{chigit uchun} \\ 3 & \text{paxta uchun} \\ 4 & \text{tola uchun} \end{cases}$$

Demak, chigit kinetikasini o‘rganish modeli:

ISSN 3030-3907

$$\begin{cases} -\dfrac{dW}{d\tau} = K(A - W_M)Sin^2\left[\dfrac{\pi(W - W_M)}{2(A - W_M)}\right] \\ W\big/_{\tau=0} = W_B \end{cases} \quad (3.7)$$

(3.7) masalani yechish uchun quyidagi integral formulasidan

$$\int \frac{dx}{\sin^2 x} = -ctg\, x + C$$

va boshlang‘ich shartdan foydalanamiz.

U holda, chigit quritish vaqti:

$$\tau = \frac{2}{K\pi}\left[ctg(X) - ctg(X_Б)\right] \quad (3.8)$$

bu yerda X, X_B –(3.3) formulalar bilan hisoblanadi.

Bu yerda X o‘zgaruvchini topsak

$$ctg(X) = ctg(X_B) + \frac{K\pi}{2}\tau$$

$$X = arcctg\left[\frac{K\pi\tau + 2ctg(X)}{2}\right] + \alpha \cdot \pi$$

ya’ni

$$X = arctg\ \frac{2}{K\pi\tau + 2ctg(X_Б)} + \alpha \cdot \pi$$

bu yerda

$$\alpha = \begin{cases} 1 \quad agar \quad K_{n\pi + 2 \cdot ctg\, X_Б} \le 0 \\ 0 \quad agar \quad K_{n\pi + 2 \cdot ctg\, X_Б} \ge 0 \end{cases}$$

(3.3) –belgilashdan foydalansak, chigit namligini hisoblash formulasini hosil qilamiz:

$$W = W_M + \frac{2(A - W_M)}{\pi} \cdot arctg\left[\frac{2}{K \cdot \pi \cdot \tau + 2ctg(X_Б)}\right] + \alpha \cdot \pi \quad (3.9)$$

Agar boshlang‘ich muvozanat namlik o‘rniga boshlang‘ich namlikni qo‘ysak,

$$W = W_M + \frac{2(W_Б - W_M)}{\pi} \cdot arctg\left[\frac{2}{K \cdot \pi \cdot \tau}\right] \quad (3.10)$$

ifodani hosil qilamiz.

ISSN 3030-3907

Chigit quritish tezligi esa

$$q=-\frac{dW}{d\tau}=\frac{(A-W_M)\cdot K}{1+\left[\frac{K\pi\tau}{2}+ctg\,X_Б\right]^2} \qquad (3.11)$$

formula bilan hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Huddi shuningdek, paxta *(m=3)* va tola *(m=4)* quritish vaqtini topish uchun quyidagi integral formulalardan foydalansak

$$\int\frac{dX}{Sin^3X}=\frac{1}{8}\left[Ctg^2\frac{X}{2}-tg^2\frac{X}{2}-4\cdot\ln(tg\frac{X}{2})\right]+C,$$

$$\int\frac{dX}{Sin^4X}=\frac{1}{48}\left[tg^3\frac{X}{2}-ctg^3\frac{X}{2}+9\cdot tg\frac{X}{2}-9\cdot ctg\frac{X}{2}\right]+C.$$

U holda, paxta quritish vaqti uchun

$$\tau=\frac{1}{4K\pi}\left[\left(ctg^2\frac{X}{2}-tg^2\frac{X}{2}-4\cdot\ln\left|tg\frac{X}{2}\right|\right)-\left(ctg^2\frac{X_Б}{2}-tg^2\frac{X_Б}{2}-4\cdot\ln\left|tg\frac{X_Б}{2}\right|\right)\right]$$

va tola quritish vaqti uchun

$$\tau=\frac{1}{24K\pi}\left[\begin{array}{l}\left(tg^3\frac{X}{2}-ctg^3\frac{X}{2}+9\cdot tg\frac{X}{2}-9\cdot ctg\frac{X}{2}\right)-\\ \left(tg^3\frac{X_Б}{2}-ctg^3\frac{X_Б}{2}-9\cdot tg\frac{X_Б}{2}-9\cdot ctg\frac{X_Б}{2}\right)\end{array}\right]$$

formulalarini hosil qilamiz.

Paxta va tola namligini hisoblash uchun xosil bo‘lgan transsendent tenglamalar biron bir sonli usul yordamida yechiladi.

Xulosa va takliflar. Bu ishda chigitli paxta quritish jarayonini matematik jihatdan aniq ifodalovchi **umumlashtirilgan kinetik model** taklif etilgan. Modelning asosiy innovatsion jihati shundaki, u:

a) Quritishni **"yumshoq rejim"** (past harorat)da tahlil qiladi, bu esa paxta tolalarining strukturaviy buzilishini minimallashtirish imkonini beradi.

b) **Ko‘p komponentli materiallar** (namlikning bir nechta bog‘lanish shakllari) uchun moslashuvchan differensial tenglamalardan foydalanadi.

c) **Trigonometrik funksiyalar** asosidagi yondashuv orqali quritish tezligining nochiziqli dinamikasini yaxshiroq tavsiflaydi.

2. Modelning matematik asoslari

- **Asosiy tenglama** (1) birinchi tartibli differensial tenglama bo‘lib, integral usuli yordamida yechilgan (2–4) formula.

ISSN 3030-3907

- **Parametrlarni optimallashtirish** (*m*, *K*) kichik kvadratlar usuli va eksperimental ma‘lumotlar asosida amalga oshirilgan.
- **Quritish koeffitsiyenti *(K)*** uchun ishlab chiqilgan formula (3.5) jarayonni boshqarishda muhim hisoblanadi.
- Model natijalari **haqiqiy quritish sharoitlari** bilan solishtirilgan, bu uning ishonchliligini ko‘rsatadi.

3. Amaliy qo‘llash imkoniyatlari

Model quyidagi sohalarda samarali qo‘llanilishi mumkin:

a) **Energiya tejovchi texnologiyalar:** Past haroratli rejimlar energiya sarfini 15-20% kamaytirishi mumkin.

b) **Sifat nazorati:** Namlikning bir tekis yo‘qolishi paxta tolalarining mexanik mustahkamligini saqlab qoladi.

c) **Sanoat avtomatlashtirish:** Quritish jarayonini real vaqt rejimida boshqarish uchun matematik model asos bo‘lishi mumkin.

Takliflar:

a) Modelni **harorat gradientlari** va **havo oqimi turbulentsiyasi** ta‘sirini hisobga olgan holda kengaytirish.

b) **Boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari** (misol uchun, don, meva) uchun modelni adaptatsiya qilish.

Taklif etilgan umumlashtirilgan kinetik model nafaqat nazariy jihatdan quritish jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki paxta quritish sanoatida **resurs samaradorligi** va **mahallot sifatini oshirish** uchun amaliy yechimlar taklif etadi. Modelning aniqligi va moslashuvchanligi uni qo‘shimcha tadqiqotlar va texnologik jarayonlarni optimallashtirish uchun istiqbolli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mujumdar, A.S. (2006). *Handbook of Industrial Drying* (3rd ed.). CRC Press. “Quritishning barcha turlarini qamrab olgan ensiklopedik qo‘llanma”
2. Strumillo, C., & Kudra, T. (1986). *Drying: Principles, Applications and Design*. Gordon and Breach.
3. Henderson, S.M., & Perry, R.L. (1995). *Agricultural Process Engineering*. Wiley. “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishning muhandislik jihatlari”.
4. Bennamoun, L., & Léonard, A. (2012). *Solar Drying: Fundamentals, Applications and Innovations*. Springer. “Quyosh energiyasidan foydalangan holda quritish texnologiyalari”. (Paxta kabi mahsulotlar uchun energiya tejovchi usullar tavsiflangan)

ISSN 3030-3907

5. Sacilik, K. (2007). "The Thin-Layer Drying Characteristics of Organic Cotton". *Journal of Food Engineering*, 78(4), 1367-1375.
“Organik paxtaning nozik qatlamli quritish kinetikasi.Turli matematik modellarning (Page, Henderson–Pabis)
6. Zhang, Q., & Litchfield, J.B. (1991). "An Optimization of Intermittent Corn Drying in a Laboratory Scale Thin-Layer Dryer". *Drying Technology*, 9(2), 383-395. “O‘zgaruvchan rejimda quritishning samaradorligi”
7. Pangavhane, D.R., & Sawhney, R.L. (2002). "Review of Research and Development Work on Solar Dryers for Grapes". *Drying Technology*, 20(2), 197-224. “Quyosh quritgichlari dizayni bo‘yicha tahlil”.
8. Dincer, I., & Sahin, A.Z. (2004). "A New Model for Thermodynamic Analysis of a Drying Process". *International Journal of Heat and Mass Transfer*, 47(4), 645-652. “Quritish jarayonining termodinamik modeli”
9. Rahimov, A., & Karimov, K. (2018). "Optimization of Cotton Drying Parameters in Uzbek Climatic Conditions". *Journal of Agricultural Sciences of Uzbekistan*, 12(3), 45-52. “O‘zbekiston iqlimida paxta quritish rejimlarini optimallashtirish”
10. Toshev, D., et al. (2020). "Mathematical Modeling of Seed Cotton Drying in Convective Dryers". *Eurasian Journal of Applied Mathematics*, 6(1), 33-44. “Konvektiv quritgichlarda chigitli paxta namligining o‘zgarishi.Differensial tenglamalar asosida modellashtirish”
11. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qishloq xo‘jaligi instituti (2021). "Paxta Quritish Texnologiyalarining Zamonaviy Tendensiyalari". *Ilmiy Axborotnoma*, 4, 28-35. “Mahalliy quritish qurilmalarining tahlili. Energiya tejash uchun tavsiyalar”
12. Mamatov, A.Z., Pardaev, X.N., Mardonov, J.S.H., Plekhanov, A.F. Determining of the heat-moisture stateof raw cotton in a drum dryer. Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii, Seriya Teknologiya Tekstil'noi Promyshlennostithis link is disabled, 2021, 391(1), C. 46–49.
13. Mamatov A., Parpiyev A., Kayumov A., Mathematical models of the heat and mass exchange process during pneumo-transportation of cotton-raw// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science , p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) , Year: 2020 Issue: 11 ,Volume: 91 P.508-513.
14. ScienceDirect (www.sciencedirect.com) *Drying Technology, Journal of Food Engineering*

ISSN 3030-3907

EKOLOGIK TOZA YUQORI OZUQAVIY QIMMATLI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI OLISH UCHUN QOVOQ URUG‘INI QAYTA ISHLASH USULINI ISHLAB CHIQISH

Yoqubov Muxridin Erkin o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti
Xaitov Rauf Arifovich
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqola yuqori ozuqaviy qiymatga ega mahsulotlarni olish uchun qovoq urug‘ini qayta ishlash usulini ishlab chiqishga qaratilgan. Qovoq urug‘lari oqsillar, yog‘lar, vitaminlar va minerallar bilan boy bo‘lib, ular funktsional oziq-ovqatlar ishlab chiqarish uchun qimmatli tarkibiy qismlardir. Biroq, qovoq urug‘larining ozuqaviy potensiali to‘liq o‘zlashtirilmagan, chunki ularni qayta ishlash texnologiyalari ozuqaviy qiymatni saqlab qolishda samarali emas. Maqolada qovoq urug‘larining ozuqaviy xususiyatlarini maksimal darajada saqlab qoladigan yangi qayta ishlash usuli taklif qilinadi. Bu usulga urug‘larni tozalash, qovurish va yog‘ini ajratish kabi jarayonlar kiradi, ular turli oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, atıştırmalıklar, yog‘lar va oziq-ovqat qo‘shimchalarini ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Maqola, shuningdek, qovoq urug‘larining biokimyoviy tarkibini va ularning inson salomatligiga foydalarini, ayniqsa, zarur yog‘ kislotalari, antioksidantlar va mikroelementlar bilan ta’minlashdagi ahamiyatini ko‘rib chiqadi. Innovatsion qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish orqali maqola qovoq urug‘larini ozuqaviy va salomatlikka foydali bo‘lgan yuqori qiymatli oziq-ovqat mahsulotlariga aylantirish mumkinligini namoyish etadi. Ushbu tadqiqotlar asosida olingan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini yaxshilash uchun qayta ishlash usullarini optimallashtirishning muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Qovoq urug‘lari, ozuqaviy qiymat, qayta ishlash usuli, funktsional oziq-ovqat, yog‘ ajratish, biokimyoviy tarkib, antioksidantlar, yog‘ kislotalari, oziq-ovqat qo‘shimchalari, oziq-ovqat texnologiyasi.

Annotation. The article focuses on the development of a method for processing pumpkin seeds to obtain high-nutritional value products. Pumpkin seeds are known for their rich composition of proteins, fats, vitamins, and minerals, making them a valuable component in the production of functional foods. However, the potential of pumpkin seeds has not been fully realized in the food industry due to the lack of effective processing technologies that preserve their nutritional content.

The article proposes a novel method for processing pumpkin seeds that maximizes the retention of their nutritional properties. This includes techniques for cleaning, roasting, and extracting oil, which can be used in various food products

ISSN 3030-3907

such as snacks, oils, and dietary supplements. The article also examines the biochemical composition of pumpkin seeds and their benefits for human health, particularly in terms of providing essential fatty acids, antioxidants, and micronutrients. By utilizing innovative processing technologies, the article demonstrates how pumpkin seeds can be transformed into high-value food products that are both nutritious and beneficial to health. This research highlights the importance of optimizing processing methods to improve the quality of food products derived from plant-based sources.

Keysword: Pumpkin seeds, nutritional value, processing method, functional food, oil extraction, biochemical composition, antioxidants, fatty acids, dietary supplements, food technology.

Аннотация. Статья посвящена разработке метода переработки тыквенных семян для получения продуктов с высокой питательной ценностью. Тыквенные семена известны своим богатым составом белков, жиров, витаминов и минералов, что делает их ценным компонентом в производстве функциональных продуктов питания. Однако потенциал тыквенных семян в пищевой промышленности еще не реализован в полной мере из-за отсутствия эффективных технологий переработки, которые бы сохраняли их питательные свойства.

В статье предлагается новый метод переработки тыквенных семян, который максимизирует сохранение их питательных свойств. Этот метод включает в себя такие технологии, как очистка, обжарка и экстракция масла, которое может быть использовано в различных пищевых продуктах, таких как снеки, масла и пищевые добавки. В статье также рассматривается биохимический состав тыквенных семян и их преимущества для здоровья человека, особенно в плане обеспечения организма необходимыми жирными кислотами, антиоксидантами и микроэлементами. Используя инновационные технологии переработки, статья демонстрирует, как тыквенные семена могут быть превращены в продукты с высокой добавленной стоимостью, которые не только питательны, но и полезны для здоровья. Это исследование подчеркивает важность оптимизации методов переработки для улучшения качества продуктов питания, получаемых из растительных источников.

Ключевые слова: Тыквенные семена, питательная ценность, метод переработки, функциональное питание, экстракция масла, биохимический состав, антиоксиданты, жирные кислоты, пищевые добавки, пищевая технология.

Kirish

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksport salohiyatini oshirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biridir. Qovoq urug‘i mahalliy sharoitda etishtiriladigan, tarkibida qimmatli moddalar tutuvchi va to‘liq qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan strategik ahamiyatga molik xomashyo hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PF-5924-son "2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur Farmonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan oqilona foydalanish, ularni chuqur qayta ishlash hamda eksport salohiyatini oshirish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmonida ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-fevraldagi "Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 67-sonli qarori asosida mahalliy xomashyodan yuqori ozuqaviy qimmatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-46-son "2023-2025-yillarda qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning maqsadli ko‘rsatkichlarini belgilab bergan.

Qovoq urug‘i (Cucurbita spp.) tarkibida insoniyat salomatligini yaxshilash va yuqori ozuqaviy qiymatga ega mahsulotlar tayyorlash uchun zarur bo‘lgan qimmatli moddalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Qovoq urug‘i tarkibida 35-52% oqsil, 35-55% yog‘, 25-30% uglevodlar, shuningdek, E, C, B guruh vitaminlari, temir, rux, fosfor, kaliy, magniy, kalsiy, marganes kabi minerallar, omega-3 va omega-6 yog‘ kislotalari, antioksidantlar, kukurbitin, fito-sterollar va boshqa biologik faol moddalar mavjud. Ushbu birikmalar yurak-qon tomir kasalliklari, prostata muammolari, qandli diabet va immunitet tizimi faoliyatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

Bugungi kunda dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, aholi sonining ortib borishi (BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga kelib dunyo aholisi 9,7 milliard kishiga etishi kutilmoqda) natijasida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi, shuningdek, to‘laqonli va yuqori biologik qiymatga ega oqsillar taqchilligi global muammolarga aylanmoqda. FAO ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha 735 million kishi to‘yib ovqatlanmagan, 2,4 milliard kishi esa oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan.

Qovoq urug‘ini qayta ishlashning mavjud an’anaviy usullari (masalan, quritish, qovurish, yog‘ siqib olish va h.k.) xomashyoning barcha qimmatli xususiyatlaridan to‘liq foydalanish imkonini bermaydi. Jumladan, qovoq urug‘idan yog‘ ajratib olish jarayonida hosil bo‘ladigan kunjarada qimmatli oqsillar va biologik faol moddalar ko‘p miqdorda saqlanib qoladi. Lekin bu kunjaralar ko‘p hollarda em-xashak sifatida ishlatiladi yoki chiqindi sifatida yo‘qotiladi. Bu esa qimmatli ozuqaviy va biologik faol moddalardan samarali foydalanish imkonini bermaydi.

Qovoq urug‘i mahsulotlariga global bozordagi talabning o‘sishi ham mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi. Global Market Insights kompaniyasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda qovoq urug‘i va undan olinadigan mahsulotlar bozorining hajmi 1,45 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, 2024-2030 yillarda o‘rtacha 6,8% yillik o‘sish sur’ati bilan 2030-yilga kelib 2,3 milliard dollarga etishi prognoz qilinmoqda. Allied Market Research ma’lumotlariga ko‘ra esa, qovoq urug‘i yog‘i bozori 2022-yilda 133,4 million dollarni tashkil etgan bo‘lib, 2031-yilga kelib 203,8 million dollarga etishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda yiliga o‘rtacha 680-720 ming tonna poliz mahsulotlari, jumladan qovoq etishtiriladi. Biroq, qovoq urug‘larini qayta ishlash darajasi atigi 12-15% ni tashkil etadi. Bu esa qovoq urug‘lari qayta ishlash salohiyatidan to‘liq foydalanmaslikka va qimmatli mahsulotlar iste’molida import mahsulotlariga qaramlikka olib kelmoqda.

Mazkur tadqiqot qovoq urug‘ini kompleks qayta ishlash va yuqori biologik qiymatga ega mahsulotlar olish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, bu sohadagi ilmiy-amaliy muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Qovoq urug‘i va undan olinadigan mahsulotlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lami keng bo‘lib, ularni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilish mumkin:

Qovoq urug‘i tarkibi turli olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotlar natijalariga ko‘ra urug‘ tarkibidagi asosiy komponentlar quyidagilardan iborat: oqsillar (25-52%), yog‘lar (35-55%), uglevodlar (18-30%), ozuqaviy tolalar (6-

ISSN 3030-3907

15%), minerallar (4-5%), shuningdek vitaminlar, organik kislotalar va fitokimyoviy birikmalar (Martínez va boshq., 2020; Alsuhaibani va boshq., 2021).

Adams va boshq. (2022) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida qovoq urug‘i tarkibidagi oqsillarning aminokislota tarkibi aniqlangan bo‘lib, ular tarkibida barcha almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar mavjud. Oqsil tarkibidagi lizin miqdori 5,3-6,1%, metionin 1,5-2,2%, treonin 3,2-3,8%, izoleytsin 3,8-4,5% ni tashkil etishi aniqlangan. Bu ko‘rsatkichlar FAO/JSST tomonidan tavsiya etilgan aminokislotalar miqdoriga mos keladi.

Wang va boshq. (2023) qovoq urug‘i yog‘i tarkibida 70-80% to‘yinmagan yog‘ kislotalari borligi, jumladan linol (omega-6), linolen (omega-3), olein (omega-9) kislotalari yuqori miqdorda ekanligi aniqlangan. Qovoq urug‘i yog‘i tarkibida omega-6 va omega-3 yog‘ kislotalarining nisbati 6:1 bo‘lib, bu insonning kunlik ehtiyoji uchun optimal hisoblanadi.

Singh va boshq. (2021) tadqiqotlarida qovoq urug‘i tarkibidagi antioksidant moddalar (E vitamini, karotinoidlar, fenol birikmalar) miqdori o‘rganilgan. Qovoq urug‘i tarkibida E vitamini miqdori 100 grammda 35,1 mg ni tashkil etadi, bu kunlik ehtiyojning 175% ga teng. Shuningdek, 100 gramm qovoq urug‘ida 12,5 mg rux mavjud bo‘lib, bu kunlik ehtiyojning 114% ini qoplaydi.

An’anaviy qayta ishlash usullari (quritish, qovurish, yog‘ siqib olish) qovoq urug‘ini qayta ishlashning keng tarqalgan usullari hisoblanadi. Johnson va boshq. (2019) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, an’anaviy usullar bilan qayta ishlashda qovoq urug‘ining umumiy ozuqaviy qiymatining 60-65% idangina foydalanish mumkin.

Kim va boshq. (2021) ekstraksiya jarayonining qovoq urug‘idan yog‘ olish samaradorligiga ta’sirini o‘rganib, sovuq presslab yog‘ olish usulida yog‘ning chiqishi 70-75%, issiq presslashda esa 85-90% ni tashkil etishini, biroq issiq presslashda antioksidant faollikda 25-30% pasayish kuzatilishi aniqlangan.

Zhao va boshq. (2022) qovoq urug‘i kunjarasini fermentativ gidroliz qilish orqali oqsil konsentrati olish usulini taklif etgan. Bu usul yordamida kunjaradagi oqsillarning 85-90% ini ajratib olish va 80-85% oqsil tarkibiga ega konsentrat olish mumkinligi aniqlangan.

Nazarova va boshq. (2020) ultratovush yordamida qovoq urug‘i kunjarasidan bioaktiv peptidlar olish texnologiyasini ishlab chiqqan. Bu texnologiya orqali antioksidant, antimikrob va qon bosimini pasaytiruvchi xususiyatlarga ega peptidlarni olish imkoniyati yaratilgan. O‘tkazilgan in vitro tadqiqotlarga ko‘ra, bu peptidlarning antioksidant faolligi sintetik antioksidantlarga (BHT) nisbatan 1,4-1,8 marta yuqori ekanligi aniqlangan.

ISSN 3030-3907

Qovoq urug‘i tarkibidagi kukurbitin, fitosterollar, tokoferollar, karotinoidlar, fosfolipidlar va boshqa biologik faol moddalar uning farmakologik xususiyatlarini belgilaydi. Martinez-Villaluenga va boshq. (2020) tadqiqotida qovoq urug‘i ekstraktining prostata adenomasi va prostata giperplaziyasiga qarshi samarali ta’siri aniqlangan.

Miller va boshq. (2021) tomonidan o‘tkazilgan klinik tadqiqotlarda qovoq urug‘i yog‘ining antioksidant va yallig‘lanishga qarshi ta’siri o‘rganilgan. Kuniga 15 g qovoq urug‘i yog‘ini iste’mol qilgan guruhlarda antioksidant enzimlar (superoksid dismutaza, katalaza) faolligining 25-30% ga oshishi va CRP (yallig‘lanish markeri) miqdorining 18-22% ga kamayishi kuzatilgan.

Lee va boshq. (2023) qovoq urug‘i oqsilidan olingan gidrolizatlarning antidiabetik ta’sirini o‘rganib, ular α-glyukozidaza va α-amilaza fermentlarini ingibitorlash orqali qonda glyukoza miqdorini pasaytirishi aniqlangan.

Chen va boshq. (2022) tadqiqotida qovoq urug‘i peptidlarining immunomodulyatorlik xususiyatlari o‘rganilgan va ular T-limfotsitlar, makrofaglar faolligini kuchaytirishi, shuningdek IgA va IgG sintezini 18-25% ga oshirishi aniqlangan.

So‘nggi yillarda qovoq urug‘ini qayta ishlashning yangi usullari ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Cruz va hamkorlari (2022) subkritik CO_2 ekstraksiyasi yordamida qovoq urug‘idan ekologik toza yog‘ olish texnologiyasini ishlab chiqqan. Bu usul 92-95% chiqish darajasi bilan fitosterollarga boy yog‘ olish imkonini bergan.

Khalid va boshq. (2023) mikroto‘lqinli va ultratovushli ishlov berish kombinatsiyasidan foydalanib qovoq urug‘i kunjarasidan oqsil izolati olish usulini taklif qilgan. Bu usul oqsillarning 90-95% ini ajratib olish va 95-98% tozalikdagi oqsil izolati olish imkonini bergan.

Park va boshq. (2023) fermentativ gidroliz va membranali filtratsiya usullari kombinatsiyasi asosida qovoq urug‘i oqsillaridan funksional peptidlar olish texnologiyasini ishlab chiqqan. Bu texnologiya natijasida antioksidant, antimikrob, gipokolesterolemik ta’sirga ega peptidlar olingan.

Qovoq urug‘lari inson organizmi uchun juda foydali hisoblanadi. Ularning tarkibidagi omega-3 va omega-6 yog‘ kislotalari yurak va qon tomir tizimi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qovoq urug‘laridagi antioksidantlar erkin radikallarni neytrallashtirishga yordam beradi, bu esa yallig‘lanish jarayonlarini kamaytiradi va qarish jarayonini sekinlashtiradi.

Qovoq urug‘lari shuningdek, immun tizimini mustahkamlash, suyaklarni kuchaytirish va xolesterin darajasini normal holatda ushlab turishda yordam beradi.

ISSN 3030-3907

Urug‘lar tarkibidagi magniy va rux elementlari tananing energiya darajasini oshiradi va nerv tizimining salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Qovoq urug‘larini qayta ishlashda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, ularning ozuqaviy qiymatini oshirish va turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday mahsulotlar nafaqat oziq-ovqat sanoatida, balki kosmetika va farmatsevtika sohalarida ham keng qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, qovoq urug‘lari eksport uchun ham potensial resurs sifatida ishlatilishi mumkin, bu esa mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Kelajakda qovoq urug‘laridan olingan mahsulotlar ishlab chiqarishni optimallashtirish, ekologik jihatdan toza va yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yaratishga imkon beradi.

Xulosa. Ushbu ishda yuqori ozuqaviy qiymatga ega mahsulotlarni olish uchun qovoq urug‘larini qayta ishlash usulini ishlab chiqish masalasi ko‘rib chiqildi. Qovoq urug‘lari o‘zining boy ozuqaviy tarkibi, jumladan, oqsillar, yog‘lar, vitaminlar va minerallar bilan ajralib turadi. Ularning tarkibida omega-3 va omega-6 yog‘ kislotalari, E vitamini, rux kabi mikroelementlar mavjud bo‘lib, bu ularni sog‘liq uchun foydali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladigan xom ashyo sifatida ajralib turadi.

Ushbu ishda qovoq urug‘larining ozuqaviy xususiyatlarini maksimal darajada saqlab qolish uchun yangi qayta ishlash usuli taklif qilindi. Ushbu usulda urug‘larni tozalash, qovurish va yog‘ ajratish texnologiyalari qo‘llanilgan. Qovoq urug‘laridan ajratilgan yog‘ sifatli o‘simlik yog‘i sifatida foydalidir va u oziq-ovqat qo‘shimchalari, kosmetika sanoati hamda sog‘liqni saqlashda ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari, qovoq urug‘larining biokimyoviy tarkibi va ularning inson salomatligiga ta’siri ham chuqur tahlil qilindi. Qovoq urug‘lari yurak-qon tomir tizimi, immun tizimi va oshqozon-ichak tizimi uchun foydali bo‘lib, organizmni zarur ozuqaviy moddalarga to‘ldiradi. Ular antioksidantlar va mikroelementlar bilan boy bo‘lib, yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, qovoq urug‘larining qayta ishlash texnologiyalarini optimallashtirish va ularni sanoat miqyosida keng qo‘llash imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi. Ushbu usullarni ishlab chiqish orqali qovoq urug‘larini yuqori sifatli va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga aylantirish mumkin. Mahalliy ishlab chiqarish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy o‘sishga katta hissa qo‘shilishi mumkin.

Bularning barchasi qovoq urug‘larining qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish va samarali qo‘llash bo‘yicha yangi imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda ushbu sohada yanada kengroq o‘rganishlar va texnologiyalarning

ISSN 3030-3907

takomillashtirilishi kutilmoqda, bu esa ozuqaviy qiymati yuqori, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada samarali qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kamilov, M. (2021). *Qovoq urug‘larining ozuqaviy qiymati va ularning sanoatdagi o‘rni*. Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi.

2. Tursunov, B., & Yuldashev, D. (2019). *Qovoq urug‘laridan yog‘ ajratish texnologiyalari*. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.

3. Soliev, A. (2020). *Funktsional oziq-ovqatlar ishlab chiqarish texnologiyalari*. Tashkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.

4. Mammadov, S. (2018). *Biokimyoviy tarkib va ozuqaviy moddalar*. Toshkent: O‘qituvchilar nashriyoti.

ISSN 3030-3907

ФАРҒОНА “АЗАМАТ САВДО ЗИЁ” МЧЖ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАСИ ЧИҚИНДИ СУВЛАРИНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИЩИ ВА ТОЗАЛАЩ ТЕХНОЛОГИЯСИ.

Хурмаматов Абдугаффор Мирзабдуллаевич

Ислом Каримов номидаги Тошкент техника университети Олмалиқ филиали, техника фанлари доктори, профессор.

Мирсаидов Махмуджон Хабибуллаевич

Наманган Муҳандислик-қурилиш институти ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада саноат ишлаб чиқариш корхонаси чиқинди сувларининг ҳосил бўлищи ва тозалащ технологияси ўрганилди. Бунга кўра “Азамат Савдо Зиё” МЧЖ дан Фарғона шаҳрининг канализациясига чиқадиган оқава сувлар ва уларни қайта ишлаш тўғрисида фикр юритилган. Чиқинди сувнинг кимёвий таркиби ўрганиш натижасида керакли реагент ва тозалаш технологияси ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Калит сўзлар: чиқинди сувлар, “Азамат Савдо Зиё” МЧЖ, оқава сувлар, фосфатлаш, мойсизлантириш, дисперс системалар, тозалаш, ифлословчи компонент, оҳак сути.

Аннотация: В данной статье изучены образование и технологии очистки сточных вод промышленных предприятий. В частности, рассматриваются сточные воды, сбрасываемые с ООО "Азамат Савдо Зиё" в канализацию города Ферганы, а также их переработка. В результате изучения химического состава сточных вод целесообразно разработать необходимые реагенты и технологии очистки.

Ключевые слова: сточные воды, "Азамат Савдо Зиё" МЧЖ, дренажные воды, фосфатирование, обезжиривание, дисперсные системы, очистка, загрязняющий компонент, известковое молоко.

Abstract: This article examines the formation and treatment technologies of industrial wastewater. In particular, it considers the wastewater discharged by LLC "Azamat Savdo Ziyo" into the sewer system of the city of Fergana, as well as their processing. As a result of studying the chemical composition of the wastewater, it is advisable to develop the necessary reagents and treatment technologies.

Keywords: wastewater, "Azamat Savdo Ziyo" LLC, drainage water, phosphatation, degreasing, dispersed systems, purification, contaminating component, lime milk.

Кириш

Ишлаб чиқариш корхоналарининг саноат чиқинди сувларини тозалаб технологияга жорий этиш иқтисодиётга ҳамда экологияга жуда катта фойда келтиради.

ISSN 3030-3907

Сувни муҳофаза қилиш обектларининг қурилиши ва сувни қайта ишлатиш тизими қувватини ошириш сув манбаларини умуман қуришдан ёки ифлосланишдан яхшироқ мухофаза қилиш, корхоналарда сувдан фойдаланишнинг нооқова тизимини қўллаш ва шунингдек, сув хўжалиги комплексларини бошқаришнинг автоматлашган тизимини ташкил этиш, мамлакатимиздаги сув ресурсларидан тўғри фойдаланиш, уларни хўжалик, саноат корхона чиқиндилари орқали ифлосланишдан сақлаш ва сувни тозалаш жараёнини яхши ташкил этиш орқали амалга оширилади. Юқоридагилардан кўриниб турибдики атроф-муҳитни ва сув ҳавзаларини муҳофаза қилиш учун оқова сувларни ҳавзаларга ташлашдан олдин чуқур тозалаш керак. Бундан ташқари ишлаб чиқариш (саноат) оқова сувлари жуда заҳарли ҳисобланиб, кимёвий (реагент) элементларга бой бўлади. Шу сабабдан ҳам ишлаб чиқариш (саноат) корхоналари оқова сувини қайта ишлашда ёпиқ тизим қўлланилса мақсадга мувофиқ ҳисобланади[1].

Экспериментал қисм. Саноат чиқинди сувларининг коллоид, эриган заррачалардан тозалашда деярли мураккаб усулларни қўллашга тўғри келади. Усулни танлаш заррачани қайси ҳолатда коллоид, молекуляр ёки диссоциаланган ион бўлганлигига боғлиқ. Коллоид заррачаларни йўқотиш учун қўйидаги физик-кимёвий усуллар – флотация, коагуляция ва флокуляциядан, коллоид заррачаларни кинетик барқарорлигини йўқотишда фойдаланилади. Физик-кимёвий усуллар эриган заррачаларни йўқотиш учун ҳам қўлланилади. Молекуляр ҳолатда бўлган заррачалардан тозалашда турли хил сорбентлар, аэрация усулида десорбциялаш, экстракция, дистилляция ва мембранали усулларидан фойдаланилади. Ионларни диссоциацияланган моддалардан тозалашда ион алмашиниш, қайтар (тескари) осмос ва сувга магнит билан ишлов бериш усуллари самарали ҳисобланади [2].

Саноат чиқинди сувларининг таркиби ҳамда экология ва атроф муҳитга таъсири даражаси ўрганиб чиқилди. Бунга кўра: кальций ва магний комплексометрик усул билан аниқланди. Бу усул кальций ва магний ионларининг трилон Б билан ўзаро таъсирида индикатор рангининг ўзгаришига асосланади Натрий эса оловли фотометрик усул билан аниқланади [3].

Сульфатлар гравиметрик усулда аниқланди. Бу усулда кислотали муҳитда сульфатларни барий хлорид билан чўктиришга, сўнгра чўкмани ювиш ва тортиш орқали аниқланади [4].

Хлор ҳажмий аргонтометрик усул билан аниқланди. Бу усулда кумуш ионларининг калий бихромат билан ўзаро таъсири кумуш хлорид чўкмаси суспензиясининг ранги ўзгаришига асосланган. Ишлаб чиқилаётган

ISSN 3030-3907

технологияда бирламчи хом-ашё ювилган оқава сувлар ва қайта ишлов берилган элекролитлар аралашмасидир [5].

Тадқиқотнинг мақсади ва усуллари. Фарғона “Азамат Савдо Зиё” МЧЖ оғир саноатга асосланган ишлаб чиқариш корхонасида ҳозирги кунда бурама мих (самарез) ишлаб чиқариш йўлга қўйилган. Ишлаб чиқариш кўлами йилдан йилга сезиларли ортиб сифат кўрсаткичлари ҳам яхшиланиб бормоқда. Корхонада бурама мих ишлаб чиқариш жараёнининг кетма-кетлиги қуйидагича.

1. Сим чўзиш
2. Пиширириш
3. Сим юзасини қоплама қилиш (фосфатирования)
4. Калибровка тўғрилаш
5. Кесиш каллак очиш
6. Резба очиш
7. Пиширириш
8. Галваника (фосфатирования)
9. Қадоқлаш

Бурама мих ишлаб чиқариш жараёнида сим юзасини фосфат қоплама қилиш ҳамда, пиширириш (термообработка) жараёнидан сўнг мих юзасини қоплама қилиш галваника яъни емирилиш, занглашга қаршилигини ошириш учун қўлланилади. Фосфатлашнинг моҳияти маҳсулот юза қисмида темир, рух ёки марганец фосфатидан ташкил топган ҳимояловчи қобиқни ҳосил қилишдан иборатдир. Қоплама қилиш жараёнида ҳар қандай параметр алоҳида эътибор бермоқ лозим, чунки жараёнда қайсидир параметрда (ҳарорат, босим, консентрация) ўзгариш бўлса чиқаётган махсулот сифатига катта таъсир кўрсатади. Шундай экан ишлаб чиқариш автоматик линиясини ишлаш режими ҳамда ишчи параметрларини тўғри тақсимлаш доим назоратда тутиш жуда муҳим технологик омил ҳиссобланади. Юқоридаги кетма-кетликдан келиб чиққан ҳолда сим ишлаб чиқариш ҳамда мих ишлаб чиқариш жараёнидаги қоплама, яъни фосфат қоплама қилиш орқали чиқаётган чиқинди сувни тозалаш ва ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш корхона иқтисодиётига ҳамда экологияга жуда катта фойда келтиради.

Ускуна автоматик равишда қуйидаги кетма кетликда ишлайди.

Технологик жараён кетма-кетлиги: юклаш → ёғсизлантириш → ювиш → водород хлорид билан тозалаш (травление) → ювиш → юза қисмини активлаштириш → фосфатлаш → ювиш → юкни тушириш → дегидрация (қуритиш) → мойлаш → дегидрация (қуритиш).

ISSN 3030-3907

Бу операциялар, мойсизлантиришдан бошлаб якуний ювишга қадар кетма-кет ванналарда амалга оширилди. Маҳсулот махсус барабанларга юкланади ва бу барабанлар ускунанинг ўзидаги релс бўйлаб ҳаракатланувчи кран ёрдамида ванналарга автоматик равишда тушиб чиқади. Юклаш термик кайта ишлаш бўлимидан келган тайёр махсулот махсус барабанларга тўғрилагич ёрдамида юкланади.

Саноат ривожланиши натижасида, чекланган сув бассейнининг ифлосланиши, Ўзбекистонда табиий сувларни муҳофазалаш муаммосини жуда актуаллигини кўрсатади.

Сув ресурсларини саноат томонидан ифлосланишидан муҳофазалаш қуйидаги йўналишларда олиб борилмоқда:

- корхонанинг ўзида оқава сувларни канализацияга ташлашдан олдин локал тозалаш иншоотларида тозалаш;
- қайтар ва берк сув таъминотини жорий этиш, тозаланган сувни қайта ишлатиш;
- тозалашнинг кам чиқиндили технологиясини қўллаш.

“Азамат Савдо Зиё” МЧЖда Фарғона шаҳрининг канализациясига оқава сувларни ташлаш меъёрларига жавоб берадиган оқава сувларни тозалаш технологиясини танланди. Фосфатлаш линиясидаги оқава сувлар тозалашга йўналтирилади.

1-жадвал

“Азамат Савдо Зиё”МЧЖда Фарғона шаҳрининг канализациясига оқава сувларни ташлаш сифат ва миқдор таркиби

№	Жараён номи	Жиҳозлар сони, дона	Ванна таркиби, %	Ванна ҳажми, $м^3$	Оқизиш такрор ланиши	Тозалов тури
1.	Қайноқ мойсизлан Тириш	2	35-45	0,822	2-3 хафта	Барабан
2.	Зарарлан-тириш (травление)	2	22-28	0,822	2-3 хафта	Барабан
3.	Юза активацияси	1	0,1	0,63	Ҳар куни	Барабан
4.	Фосфатлаш	2	40-50	1,164	Оқизмас дан	Барабан
5.	Ювиш	6		0,63	Тўхтов сиз	Барабан

Мойсизлантирувчи қайта ишланган фосфатли ва рухли эритма мойсизлантириш эмульгирлаш маҳсулоти, механик юқорига олиб чиқувчи (взвеси) ва мойлар бўлган мураккаб тўрт фазали коллоид-дисперс тизимдир.

ISSN 3030-3907

Мойсизлантириладиган эритма юзасидан мойларни дастлабки олиб ташлаш маҳсулотларини тўхтовсиз технологик схемаси бўйича мойсизлантириш жараёнида содир бўлади. Бунинг учун тиндиргич типидаги мослама ишлатиш мақсадга мувофиқдир. Плёнкали мойлар ва енгил сувда эрийдиган фракциялар оқизма карманга, сўнг мой фракцияларини ажратувчи мосламага оқиб ўтади.

1-жадвалда келтирилган маълумотларга кўра, ҳулоса қилиш мумкинки, “Азамат Савдо Зиё” МЧЖда фосфатлаш ва рухлаш участкасида оқава сувларни ифлословчилар фосфат, рух, темир, мойлар ионлари ва канализацияга ташлаш меъёрларига жавоб бермайдиган ва дастлабки тозаловни талаб этадиган *pH* миқдори концентрациясидир.

Муҳокама ва натижалар. Саноат чиқинди сувларини очиқ сув ҳавзаларига ташлаш санитария қоида ва меъёрларига риоя қилишни талаб қилади. Шунинг учун, саноат чиқинди сувларини канализация тизимига ташлашдан аввал бир неча босқич тозалаш усулларини қўллаб, санитария ҳолатига салбий таъсир кўрсатмайдиган тозалаш усулларидан фойаланиб, саноат чиқинди сувларини сув ҳавзасига ташлаш керак.


Оқава сувларни тозалаш иншоотларини унуморлиги, ишлаб чиқариш жараёнида ҳосил бўлаётган чиқинди сувнинг таркибига бевосита боғлиқ. Юқорида келтирилган маълумотлар асосида, оқава сувнинг таркибидаги табиат ва ҳайвонот оламига зарар етказиши мумкин бўлган кимёвий моддалардан тозалашга қаратилган.

Фарғона “Азамат Савдо Зиё” МЧЖ ишлаб чиқариш корхоналарида металлар юзасини каррозияга чидамлилигини ошириш (фосфатлаш, рухлаш) мақсадида кимёвий ишлов берилади. Ушбу жараёнда ҳосил бўлаётган саноат чиқинди сувларини тозалаш ҳамда ишлаб чиқаришда синов жараёнларини амалга ошириш, мақсадида тавсия этилаётган лаборатория қурилмаси ишлаб чиқилди (1-расм).

Корхона шароитида ҳосил бўладиган иккиламчи-ифлосланган техник сувлар, сув тозалаш бўлимига келганидан сўнг, чиқинди сувни йиғиш *1* бункерида тиндирилиб ўзи чўкиши мумкин бўлган моддалар идиш (чиқинди сув йиғгич) тубига чўкади ва маьлум бир тозаликка эришилади. Эритма таркибида қолган эриган моддалар аралаштиргич *2* га олинади. Бу жараёнда оқава сувнинг pH кўрсатгичи аниқ бўлиши жуда муҳум. Аралаштиргич ҳажми ишлаб чиқаришда ҳосил бўладиган чиқинди сувнинг миқдоридан келиб чиқиб танланади. Аралаштиргичга тушган чиқинди сув 5-7 % ли $Ca(OH)_2$ эритмасидан 2,5-3% қўшилади ва яхшилаб аралаштирилади. Сўнгра, аралашма 30 минут давомида тиндирилади. Юқори қисмидаги тозаланган

ISSN 3030-3907

сувнинг *pH* аниқланади ва тоза сув бўлими *4* га берилади, умумий эритманинг 1/3 қисмини эса пресс филтр *3* га берилади. Тозаланган сувнинг *pH* кўрсатгичи 6,5-8,5 мг/л атрофида бўлиши зарур, тозалаш жараёнида ишқордан *($Ca(OH)_2$)* фойдаланганимиз учун деярли *pH* 7 мг/л атрофида ўзгаради. Агарда pH - 9,5 мг/л гача кўтарилса *pH* тўғрилагичда хлорид кислота эритмаси ёрдамида пасайтирилади. Ҳар бир жараён оралиғида сув тозалаш жараёнида қувурлардан ҳаракатланиб кейинги жараёнга узатилади. Қувурлар бир бири билан *5* фланецлар ёрдамида бириктирилади ва *6* насослар орқали узатилади.



1-расм. Фарғона “Азамат Савдо Зиё” МЧЖ дан ажралиб чиқаётган техник сувни тозалаш лаборатория қурилмасининг технологик схемаси: 1-йиғгич, 2-аралаштиргич, 3-прессфилтр, 4-тозаланган сувни йиғиш бункери, 5-флянец, 6-насос.

Ишлаб чиқаришдан ҳосил бўлган чиқинди сувлар, сув тозалаш иншоотига берилади, ҳамда тозалаш натижасида тоза технологик сув ишлаб чиқариш жараёнига берилади. Сувни тозалаш натижасида, ўз навбатида чиқинди қуруқ масса фиртда ушлаб қолинади. Қуруқ масса йиғилиб ҳозирги кунда махсус ҳудудга, чиқинди сифатида олиб чиқиб кетилмоқда.

Оқава сувлардаги моддалар концентрацияси асосан оқава сувлар меъёрига боғлиқ бўлади, яъни оқава сувлар меъёри қанча кўп бўлса, уларнинг ифлослик концентрацияси шунча кам бўлади. Ўз-ўзича тиндиргичда чўкмайдиган қисмни фильтрлаш натижасида қуруқ масса шаклига келтирилди. Чўкинди, оқава сувларни қайта ишлаш жараёнида ҳосил бўлади. Сувсизлантирилгандан сўнг, чўкинди ҳажми – 0,35 т/сут, чўкинди намлиги 80%. Ишлаб чиқариш оқава сувларини тозалаш технологиясида вакум фильтрдан чиқаётган қуруқ массани таркиби қуйидагича:

2-жадвал

Фарғона “Азамат Савдо Зиё” МЧЖ сувидан ажратиб олинган чўкма таркиби

№	P_2O_5	Fe_2O_3	ZnO	CaO	MgO	TiO	SO_3	CuO	SrO	Cr
1	25,47	52,48	11,25	5,14	1,76	0,13	1,41	0,02	0,02	0,152

ISSN 3030-3907

2	24,92	52,57	11,49	5,24	1,76	0,15	1,22	0,03	0,02	0,154

2-жадвалда реакцияга киришган Fe_2O_3 52,5 г бирикмалари ҳосил қилади. P_2O_5 25 г, ZnO 11,3 % , CaO 5,2 % бор эканлигини кўриш мумкин. Ушбу таркибий қисмларни ренгенофлюроцент ёрдамида аниқланди.

Қуруқ масса таркибидан келиб чиқиб таркибидаги темир ва рух сақловчи бирикмаларни ажратиб олиб қолган қисмни ўғит ишлаб чиқариш учун хом-ашё сифатида фойдаланишимиз мумкин бўлади. Бунинг учун, ажратиб олинган қуруқ массани аммиакли эритма билан эритма муҳитига ўтказамиз. Эритма муҳитига ўтказилгандан сўнг, аммиак таъсир эттирилса *pH* 3-3,5 га этганда темир чўкмаси ҳосил бўлади.

Чиқинди таркибидаги рух бирикмаларини рух хлориди олиш жараёни бўйича дастлабки маълумотлар ўрганиш натижасида чиқинди таркибида 11,3 % атрофида рух оксиди борлигини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқариш учун етарли бўлади.

Ҳулоса Ҳозирги кунда чиқиндисиз технологияга асосланган ишлаб чиқаришни ташкил этиш ҳамда ичимлик сувига бўлган эхтиёжни ҳиссобга олган ҳолда чиқинди сувларни тозалаб қайта ишлатиш айланма сув технологиясини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ ҳиссобланади. Бундан ташқари ҳавонинг ифлосланиши тупроқ ва ўсимликларнинг зарарланишини олдини олган бўламиз.

Саноат сувларини таркибидаги ёғ ва ёғ махсулотларини тозалаш ҳамда органик бирикмаларни ажратиб олиб саноат учун хизмат қилишини таъминлаш жуда катта ишлаб чиқариш учун иқтисодий самара келтиради. Бундан ташқари чиқинди сув таркибидаги органик бирикмалар экин майдонлари канализация экология учун жуда хавфли ҳиссобланади шундай экан органик бирикмалар тозалаб шунчаки чиқинди сифатида ташлаб юбормаслик аксинча ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш жуда муҳим ҳиссобланади. Саноатда термик ишлов бериш бўлимида совутиш мақсадида ишлатилаётган мойларни ўрнига тозалаш ва қайта ишлаш технология натижасида тозалаб ва қайта ишланган ёғ синов натижалари ўрганиб чиқилди ва ижобий натижага эришилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ефремова Т.Д., Енишерлова О.М. и др. Сернистые нефти и продукты их переработки. Редакторы Труды БашНИИ НП. –М.: -Ленинград. Выпуск 5. - 1962. 322 с. –С. 218.

2. Кульский Л.А., Строкач П.П.. Технология очистки природных вод. – Киев. «Вища школа». 1986. 357 с. –С.2-3.

ISSN 3030-3907

3. Френкель, Б.А. Автоматизация экспериментальных установок. Изд- во: - М.: Химия, 1980 г. –С.167.
4. Oqova suvlarini tozalash texnalogiyasi Turobjonov Tursunov 2011 54-55 bet
5. Кудинов В. И. Основы нефтегазопромыслового дела. Изд-во. –М.: Ижевск. -2004. 720 с. –С. 401.
6. Mirsaidov, M., Nimchik, A., Khodjiyev, O., Jesfar, M., Zokirov, K., Shamatov, S., ... & Kambarov, A. (2024). Analysing the chemical standards of the Fergana Mekhmash wastewater treatment plant and environmental processing. In E3S Web of Conferences (Vol. 498, p. 02016). EDP Sciences.
7. Хурмаматов, А. М., Мирсаидов, М. Х. ФАРҒОНА “АЗАМАТ САВДО ЗИЁ” МЧЖ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАСИ ЧИҚИНДИ СУВЛАРИНИНГ ДАСТЛАБКИ КИМЁВИЙ ТАРКИБИ. Development of science ISSN 3030-3907 APREL 2025/ 4
8. Хурмаматов, А. М., Мирсаидов, М. Х. ФАРҒОНА “АЗАМАТ САВДО ЗИЁ” МЧЖ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАСИ ЧИҚИНДИ СУВЛАРИНИНГ ТАРКИБИДАГИ МОЙЛАРНИ АЖРАТИБ ОЛИШ ВА ТОЗАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. Development of science ISSN 3030-3907 APREL 2025/ 4
9. Хурмаматов, А. М., Мирсаидов, М. Х., & Дедабойева, М. Н. (2024). САНОАТ СУВЛАРИНИ ТОЗАЛАЩ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Экономика и социум, (1 (116)), 240-246.
10. Хабибуллайевич, М. М. (2023). САНОАТ ЧИҚИНДИ СУВЛАРНИ ҚАЙТА ИЩЛАЩ СИСТЕМАСИ. Жоурнал оф нew сентурй инноватионс, 38(2), 101-108.

ISSN 3030-3907

INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING AHAMIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Do‘stmurodova Mohinur Nurmurod qizi
Buxoro xalqaro universiteti pedagogika nazariyasi va tarixi fakulteti 1- bosqich magistri
Sadullayeva Maftuna Umurzoqovna
Buxoro xalqaro universiteti pedagogika nazariyasi va tarixi fakulteti 1- bosqich magistrilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limining mazmun-mohiyati, o‘quv jarayonida ta’limning modellashtirilgan istiqbolli, zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish keltirilgan. Ehtiyojga qaratilgan differensial yondoshuv inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyatlarni kengaytirib ta’lim sifatini oshirishi uchun xizmat qiladi. O‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim berish orqali ularning bilim olish samaradorligini oshirish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tenglik, kognitiv bilish, induviduallik, emperik bilish jarayonlari, infrastruktura, interfaol metodlar, kommunikativlik.

Аннотация: В этой статье в этой статье сегодня предоставляет содержание образования дети с ограниченными возможностями, использование моделированных и современных технологие в образовательном процесса Неограниченный дифференциальный подход к потребностям служит для улучшения качества образования за счет расширения возможностей в процессе инклюзивного образования. Благодаря образованию индивидуальные потребности студентов покрываются проблемой повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: социальное равенство, когнитивное, ингибирование, пустые процессы знания, инфраструктура, интерактивные методы, коммуникации.

Annotation: In this article, today provides the content of youth education with disabilities, the use of modeled and modern technologies in the educational process. An unleavened differential approach to the needs serves to improve the quality of education by expanding the capabilities in the process of inclusive education. Through education, the individual needs of students are covered by the issue of increasing the effectiveness of learning.

Keywords: social equality, cognitive, inhibition, empty knowing processes, infrastructure, interactive methods, communications.

Kirish

ISSN 3030-3907

Bugungi kunda dunyo miqyosida keng targ‘ibot qilinayotgan va alohida e’tirof etilayotgan inklyuziv ta’lim strategiyasi, ya’ni alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash masalasi mamlakatimizda ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Bunda alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari va cheklangan imkoniyatlarini inobatga olgan holda, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga qodir mahoratli ishchi dasturlarni tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarning funktsional inkoniyatlari kengayadi, zimmasiga yangi vazifalar yuklanadi bu esa undan yuqori darajali inklyuziv-metodik kompetentlikka ega bo‘lishini talab etadi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning umumiy bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining o‘ziga xos xususiyatlarini umumiy qilib ajratish mumkin. Bilim olishdagi muammolar masalan, xotiraning sustligi, bilish jarayonlarining maqsadga yo‘naltirilmaganligi, cheklanganligi, fikrlashning yetarlicha bo‘lmasligi o‘quvchilarga ta’lim jarayonida tushunishida hamda o‘zlashtirishida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Analiz va sintez jarayonlarining nomukammalligi tufayli ular masalani to‘liq emas, balki qismlarini idrok etadilar, yoki tasavvur ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi sababli tezda esdan chiqish holatlari kuzatiladi, voqea qismlarni bir butunga bog‘lay olmaydilar, sabab-oqibat aloqalarini o‘rnata olmaydilar. Shu sababli inklyuziv ta’lim sharoitida ishlayotgan o‘qituvchi birinchi navbatda sinfni o‘rganishi, har bir o‘quvchining xususiyatlari, uning imkoniyat darajadalarini aniqlashi, uni psixik, jismoniy o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda sinfda ishlashga jalb qilishi zarur. Mashhur rus olimi Vigotskiy aytganidek, har bir organizm induvidualdir, har bir bolalning ta’sir chegarasi hamda o‘zlashtirish qobiliyati, qiziqishlari mavjud. Shundan kelib chiqqan holda inklyuziv muhitda ishlayotgan har bir pedagog bolalarninng ehtiyojlariga va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ish faoliyatini olib borsa bolada hamda sinf jamoasida ijobiy natijalarni qo‘lga kiritadi. Jahon tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak, ta’lim samaradorligini oshirishda ehtiyojga asoslangan ta’lim tizimidan foydalanadi. Ushbu yondashuv AQSh, Finlyandiya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Misol qilib oladigan bo‘lsak, Finlyandiya ta’lim tizimida har bir o‘quvchining qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan individual yondashuv muhim o‘rin egallaydi. Induvidual yondoshuvga asoslangan tizimning mohiyati shundaki, o‘quvchilarning qobiliyati, individual ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olib, ta’lim jarayonini moslashtirishdan iborat.

METODOLOGIYA: Darsning sifatli va samarali tashkil qilish o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bilan aniqlanadi. Inklyuziv sinflarda darsga qo‘yiladigan

ISSN 3030-3907

maqsad umumiy o‘rta ta’lim sinflarinikidan farqli o‘laroq, korreksion maqsad ham mavjud bo‘ladi. Korreksion-rivojlantiruvchi vazifa o‘quvchini aqliy jarayonlarni, bolaning hissiy ixtiyoriy sohasini rivojlantirishga, mavjud kamchiliklarni maxsus pedagogik va psixologik usullar bilan tuzatish va qoplashga aniq yo‘naltirilgan bo‘ladi.. Ushbu vazifa juda aniq bo‘lishi va darsda maksimal darajada ishtirok etadigan aqliy funksiyalarni faollashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Korreksion-rivojlantiruvchi vazifani amalga oshirish yuqori aqliy funksiyalarni, hissiy-irodaviy, kognitiv sohalarni va boshqalarni takomillashtirish uchun darsga maxsus tuzatish va rivojlantirish mashqlarini kiritishni, bir nechta analizatorlarga asoslangan vazifalarni kiritishni va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi.

Aqsh olimlarining aniqlashicha inklyuziv ta’lim muhitida ar bir o‘quvchining shaxsiyati va o‘ziga xosligini qadrlashga asoslangan inklyuziv amaliyotlar jamiyatda yanada adolatli ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Mitchell va Sutherland (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun ta’lim metodologiyalarini turli o‘quv ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tomonidan tavsiya etilgan usullar orasida differensial ta’lim, (o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘qish sur’atlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish usuli), formative (o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda) baholash va hamkorlikka asoslangan o‘qitish kabi strategiyalar mavjud. AQShda amalga oshirilgan tadqiqotlarda Needs Based Teaching (ehtiyojga asoslangan ta’lim) asosidagi differensial yondashuvdan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi 20% ga yuqori bo‘lgan (Tomlinson, 2021)

AMALIY ISHLAR BAYONI: differensial yondashuvni amalga oshirish bu har bir bola uchun alohida imkoniyat demakdir. Inklyuziv talim o‘qituvchisining dars mashg’ulotlari imkoniyati cheklangan bolalar uchun samarali bo‘lishi quyidagi omillarga bog’liq.

- o‘quvchilarning bag’rikenglik ruhida tarbiyalanganligi hamda jamoada do‘stona muhitning mavjudligiga (har bir o‘quvchi nogironligi bo‘lgan bolaga nisbatan achinish ko‘zi bilan emas , balki do‘stidek qarashi kerak)
- imkoniyati cheklangan bolalarning nuqsonidan kelib chiqqan holda sinf xonasi infrastruktura bilan ta’minlangan bo‘lishi, (inklyuziv maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus qurilmalar vositalar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak)

ISSN 3030-3907

- O‘qituvchi-pedagog imkoniyati cheklangan bola bilan ishlash ko‘nikmasini yetarlicha egallagan bo‘lishi kerak (alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolaning diagnozi bilan tanishgan bo‘lishi kerak)
- Bunday bolalar uchun maxsus induvidullashgan yoki soda shakldagi o‘quv uslubiy qo‘llanmalardan kartochkalardan foydalanish maqsadga muofiqdir.

Inklyuziv sinflarda darslarni qurishda har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, differensial yondashuv orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Differensial ta’limning vazifalari o‘quvchining o‘ziga xosligi (individualligini) ko‘rish, o‘z kuchiga ishonishga yordam berish va bu orqali pedagoglar sinf jamoasida bilim darajasi samaradorligini oshirishdan iborat. Differensial yondashuv o‘qituvchilardan ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlari va o‘qish imkoniyatlari, kognitiv xususiyatlarini (idrok, diqqat, tafakkur, xotira va boshqa psixik jarayonlarning rivojlanish darajasi) ni, o‘quv fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalar darajasini, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishini va imkoniyatlarini o‘rganishni talab qiladi. Bu esa pedagogik jarayonda korreksion rivojlantiruvchi natijaga erishish maqsadida amaliy ishlash jarayonida ta’limni individuallashtirish imkonini beradi. Differensial yondashuv asosidagi ta’lim jarayonida o‘qituvchilar topshiriq bilan birga yordam elementlari mavjud bo‘lgan kartachalar; turli usullardan foydalanish o‘quvchiga yengillik olib keladi hamda darsga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

-darsda bajarish uchun muqobil (moslashtirilgan) topshiriqlar;

-o‘qituvchilar tomonidan mazmuni aniqlashtirilgan, soddalashtirilgan topshiriqlar;

- faoliyatning to‘g‘ri usullarini egallashga yordam beruvchi topshiriqlardan

- harakatga undovchi interfaol texnologiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quv materiallarini alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning ta‘limiy imkoniyatlariga moslashtirishda inklyuziv ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Inklyuziv ta’lim texnologiyalari ham o‘z navbatida tuzilishiga qarab 2 guruhga bo‘linadi;

1. Tashkiliy texnologiyalar:

Tashkiliy texnologiyaning ikkinchi nomi dasturlash yoki loyihalashtirish texnologiyasi deb nomlanadi. Bunda har bir maktabdagi o‘quvchilar jamoasi birgalikda faoliyat olib borilishiga aytiladi. O‘qituvchilar va boshqa mutaxassislar o‘rtasidagi jamoaviy hamkorlikni tashkil etish texnologiyalari. Har bir maktab jamoasida inklyuziv sinf tashkil qilingandan so‘ng har bir pedagog bu bolalarning ta’lim- tarbiya olishlari, unda kechayotgan psixik jarayonlar, oilaviy munosabati ota-ona bilan hamkorligi haqida axborotga ega bo‘lishi kerak. Inklyuziv sin

ISSN 3030-3907

aksariyat boshlang'ich sinflarda tashkil qilinganligi sababli, imkoniyati cheklangan bolalar bilan boshlang'ich sinf o'qituvchisidan tashqari maktab psixologi, maxsus pedagog hamda logoped, maktab hamshirasi, fan o'qituvchilari birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Chunki bunday bolalar sog'lom bolalardan farqli o'laroq sog'ligida muammo bo'lganligi sababli e'tibor har tomonlama qaratilishi va ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham sog'lom bolalar uchun komfort muhit yaratilgan bo'lishi kerak.

2.Ta'limiy texnologiyalar:

-turli xil ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida turli bilim va kompetentsiyalarini o'zlashtirishiga yordam beradigan texnologiyalar;

-differentsial ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayonini individuallashtirish texnologiyalari;

-bolalarnining o'qitishdagi qiyinchiliklarni, xulqidagi og'ishlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan texnologiyalar.

-ijtimoiy (hayotiy) kompetentsiyalarini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalari.

-ta'lim oluvchilarning yutuqlarini baholash texnologiyalari.

Bu texnologiya o'quvchilarga yengil, tushunarli, va qiziqarli materiallar taqdim etish orqali ularning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'rganish samaradorligini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning intellektual va nutqiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari tufayli darslik yordamida yangi materialni tushuntirish tavsiya etilmaydi. Kerakli o'quv materialini to'liq o'zlashtirish uchun, bolalar uchun o'rganilayotgan materialning ko'rgazmali misollari bilan tasdiqlaydigan amaliy faoliyat va o'qituvchining tushuntirishlari bo'lishi kerak. Vizual usullardan amaliy usullar bilan birgalikda tabaqalashtirilgan foydalanish korreksion pedagogik ishlarning samaradorligini oshiradi. Bunday mashg'ulotlar barcha bolalar muvaffaqiyatlarga erishishga, o'qituvchiga korreksion ishlarining usullarini va individual yondashuvini to'g'ri amalga oshirishga yordam beradi. Inklyuziv ta'limning rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va oddiy o'quvchi juftlikda ishlash amaliyoti yaxshi samara beradi, bunda juftlik tarkibi asta-sekin o'zgaradi, maxsus ehtiyojlar o'quvchi yoniga yangi o'quvchi qo'shiladi.

Alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv sinflarda o'qitishda differensial yondashuvni amalga oshirish orqali yaxshi samaradorlikka erishish mumkin.

ISSN 3030-3907

Inklyuziv ta’limda duch kelinadigan asosiy muammolar va ularning yechimlari.

Inklyuziv ta’lim jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim bo‘lgan zamonaviy ta’lim konsepsiyasidir. Ushbu model har bir bolaning, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarning ham teng imkoniyatlar asosida ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta’lim nafaqat o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, balki ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi. Inklyuziv ta’lim rivojlanishi orqali jamiyatda tenglik, bag‘rikenglik va adolat tamoyillari mustahkamlanadi. Har bir bolaning imkoniyatlaridan qat’i nazar, teng ta’lim olish huquqiga ega bo‘lishi ta’minlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, inklyuziv ta’lim olgan bolalarning kelajakda jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida faoliyat yuritishiga imkon yaratadi. Kelajakda inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish uchun davlat siyosati doirasida qator tashabbuslarni ilgari surish, pedagogik va psixologik xizmatlarni takomillashtirish, xalqaro tajribalardan foydalanish va ta’lim tizimini uzluksiz ravishda modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan har qanday islohot nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki butun jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Bu borada yurtimizda bir qancha qator loyihalar va tashabbuslar bo‘lishiga qaramay bugungi kunda bir qancha muammolar ham yoq emas. Ushbu muammoning eng asosiy uchtasini belgilab o‘tamiz.

Inkyuziv ta’limda uchrayotgan eng sezilarli muammolardan biri o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarlik darajasining pastligidir. O‘qituvchilarda yetarlicha ma’lumot va axborotlarning mavjud bo‘lmasligidiagnozli bolalar bilan ishlash ko‘nikmalarining yaxshi rivojlanmaganligi, Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim dasturlari moslashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Ba’zan ular dars jarayoniga to‘liq moslasha olmaydi, shuningdek, sinfdoshlari ham ularga qanday munosabatda bo‘lishni bilmaydi va natijada sinfda do‘stona muhitning shakllanmasligi, imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan past nazar bilan qarash holatlarining uchrashi kuzatiladi. Bu esa sinfda ta’lim sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Yechim: Maktab va ta’lim muassasalarida professional psixologlar va defektologlar faoliyat yuritishi lozim. Ular imkoniyati cheklangan bolalar bilan individual va guruhiy mashg‘ulotlar o‘tkazib, ularning ta’lim jarayoniga moslashuviga yordam berishi kerak. Ta’lim olish jarajonida esa maxsus o‘quv materiallarini ishlab chiqish, inklyuziv ta’lim uchun o‘quv dasturlarini moslashtirish, qo‘shimcha vizual, audio va interaktiv materiallar yaratish zarur. Har bir bolaga imkoniyati cheklangan bolaning o‘ziga xos xususiyati haqida tushuncha berib, yordamlashish kerakligi, ular ham inson sifatida hurmat qilinishi

ISSN 3030-3907

bilish jarayonlarida ko‘maklashish kerakligi, ko‘mak tushunchalarini erta yoshlaridan o‘rgatib borilishi kerak.

Navbatdagi dolzarb muammolardan biri esa ota-onalarning inklyuziv ta’lim haqida yetarli ma’lumotga ega emasligidir. Ba’zi ota-onalar inklyuziv ta’lim mohiyatini to‘laqonli anglamaganligi sabali tizimga shubha bilan qaraydi. Ular o‘z farzandining maxsus ta’lim ehtiyojlari haqida yetarli bilimga ega bo‘lmaganligi sababli, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi mumkin. O‘qituvchilar va ota-onalar uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish bu muammoga yechim bo‘la oladi. Bu kurslar orqali ota-onalarga farzandining rivojlanishi, ta’lim jarayoniga moslashuvi va psixologik qo‘llab-quvvatlanishi bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalar va qator tavsiyalar berib boriladi. Ota-onalarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ham muammo yechimi bo‘lishi mumkin. Ota-onalar uchun maxsus maslahat markazlari ochilishi va u yerda psixolog, defektolog va ijtimoiy xodimlar, huquq targ’ibot organlari vakillari yordam berishi, ota-onalar orasida tajriba almashish tizimini yaratish va yo‘lga qo‘yish ularni bir joyga jamlovchi elektron ilova va vositalarni yaratish yordam beradi. Bu bilan maxsus bolalar uchun inklyuziv ta’limni qabul qilgan ota-onalar boshqalarga o‘z tajribalarini ulashishi va ularga maslahat berishlari mumkin. Inklyuziv ta’limning to‘laqonli amalga oshirilishi uchun ta’lim tizimi, jamiyat va ota-onalar hamkorlikda ishlashi kerak.

Shu o‘rinda inklyuziv ta’limni moliyalashtirish bilan bog’liq qator muammolarga duch kelyapmiz. Jamiyatda inklyuziv ta’limning ahamiyatini kengroq targ‘ib qilish, hukumat va nodavlat tashkilotlari tomonidan inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus loyihalar amalga oshirish, ijtimoiy reklama va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlarda inklyuziv ta’limning afzalliklari haqida keng targ‘ibot olib boorish sohaning yanada keng miqyosda tanilishi va jamiyatning inklyuziv ta’limga muhtoj bo‘lganqatlamini e’tiborini tortishga yordam beradi. Davlat va xususiy sektorda qo‘llab-quvvatlashmexanizmlarini yaratish esa inklyuziv ta’limga investitsiya kiritgan tashkilotlar uchun imtiyozlar berish, shuningdek, maxsus grantlar ajratish imkonini yaratadi.

Xulosa o‘rnida, inklyuziv ta’lim tizimida o‘qituvchilarda differensial yondoshuv asosida dars mashg’ulotlarini olib boorish har tomonla o‘quvchilar uchun sifatli ta’limning asosiy garovidir. Differensial yondashuv asosida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini aniqlash va shu asosida soddalashtirilgan yordamchi vositalardan foydalanish darsning sifatini oshirishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

ISSN 3030-3907

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Chirchiq
2. 2022Инклюзивное образование в Испании. Пашкова.М, Скуднова. Т.Д.2018.
3. Резюме электронного диалога «Создание инклюзивного общества: практические
4. Shodmonova, G. (2020). Inklyuziv ta'limda badiiy-estetik didni tarbiyalash // "Ta'lim va tarbiya" jurnali.
5. Mirzaeva, M. (2019). Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari va badiiy-estetik didni rivojlantirish metodlari// "O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti nashri".
6. Qodirova F. Pulatova D. “ Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot”/ 2022 yil/
7. Zamilova R. “ Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim” / Namangan-2023yil/
8. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. - 44-b
9. D.S.Qaxarova. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 192 bet.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINING KIRIB KELISHI VA QARZ MUNOSABATLARIDA SMART CREDIT SCORING MODELLARI

Abduxakimova Mo‘tabarxon Qosimjon qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Axborot texnologiyalarining dasturiy ta’minoti” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
E-mail: *motabar5168@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada yaqin 5 yil davomida O‘zbekiston iqtisodiyotida olib borilayotgan o‘zgarishlar, moliyaviy munosabatlarga berilayotgan innovatsion yechimlar va ularning huquqiy normalari o‘rganilgan. Jamiyatda islom moliyasiga bo‘lgan munosabat atroflicha o‘rganilib, moliyaviy munosabatlarda islom moliyasi xizmatlarini joriy qilish va uning huquqiy asoslari tahlil qilindi. Maqolaning asosiy nuqtasi sifatida qarz munosabatlarini islom me’yorlariga asoslangan holda sun’iy intellekt modellaridan foydalanib yangi model ishlab chiqish ko‘rsatmalari va xalqaro ilmiy resurslar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: islom moliyasi, an’anaviy iqtisodiyot, qarz, kredit scoring, machine learning, sun’iy intellekt, fintech, bank.

Annotation: This article examines the changes in Uzbekistan’s economy over the past five years, the innovative solutions introduced in financial relations, and their legal frameworks. The society’s attitude toward Islamic finance is analyzed in detail, and the implementation of Islamic financial services in financial relations and their legal foundations are discussed. The main focus of the article is the development of a new model for debt relations based on Islamic principles, utilizing artificial intelligence models, along with an analysis of international scientific resources.

Keywords: Islamic finance, traditional economy, debt, credit scoring, machine learning, artificial intelligence, fintech, banking.

Аннотация: В статье рассматриваются изменения в экономике Узбекистана за последние пять лет, инновационные решения в финансовых отношениях и их правовые основы. Подробно анализируется отношение общества к исламским финансам, внедрение исламских финансовых услуг в финансовые отношения и их правовые основы. Основное внимание уделено разработке новой модели долговых отношений на основе исламских принципов с использованием моделей искусственного интеллекта, а также анализу международных научных ресурсов.

Ключевые слова: исламские финансы, традиционная экономика, долг, кредитный скоринг, машинное обучение, искусственный интеллект, финтех, банковское дело.

ISSN 3030-3907

Kirish

Qarz munosabatlari moliyaviy jarayonlarning muhim bir qismi bo‘lib, jamiyatda eng keng tarqalgan iqtisodiy munosabatdir. Qarzning inson va inson, inson va biznes, biznes va inson, biznes va biznes ko‘rinishlari mavjud. Har bir jihat o‘ziga xos bo‘lib, muammolar va unga berilayotgan yechimlar ham turlicha. Mazkur maqolada qarz beruvchi shaxs yoki biznes egasi, qarz oluvchi shaxsning (yoki biznesning) dinamik parametrlariga moslashgan holda qaror qabul qilishdagi muammosiga yechim izlanadi. Risk darajasini aniqlash hamda qarz oluvchining credit qobiliyatini baholashda ishlatilayotgan yechimlarni tahlil qilinadi.

Kredit qobiliyatni baholash yoki riskni darajasini aniqlash bu juda subyektiv bo‘lib, parametrlar turlicha va o‘zgaruvchan. Hozirda amalda ishlatilib kelinayotgan kredit skoring dasturlar Markaziy bank huzuridagi Kredit axborot almashinuvi markazidan olingan ma’lumotlarga asosan static modellar ustiga qurilganligi bilan ko‘p jarayonlarni o‘z ichiga ololmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasining 2011-yil 11-avgustda “Kredit almashinuvi to‘g‘risida”gi qonuni ko‘rib chiqilib, ma’qullandi va qo‘shimcha o‘zgartirish va tuzatishlar bilan 2012-yil 1-yanvardan kuchga kirdi [1]. Qonundan asosiy maqsad kredit risklarni kamaytirish, kredit tashkilotlar o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvini yaxshilash, qarzdorlarning kreditda layoqatliligini baholashni avtomatlashtirish, moliyaviy intizomni oshirishga qaratilgan. Markazda yillar davomida olib borilgan ishlari va moliyaviy institutlarning o‘zaro shaffof axborot almashinuvlari insonlar va bizneslar o‘rtasidagi kredit olish ko‘lamini sezilarli darajada oshirib yubordi. 2023-yilning 11-sentyabrida PF-158-son Farmon va PQ-300 sonli Qarorida “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi ishlab chiqildi [2]. Strategiya - mamlakatning raqamli transformatsiyasi va iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli dasturdir. Ushbu dasturda kreditlash tizimini raqamlashtirish va moliyaviy xizmatlarga kengroq kirishni ta’minlash orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsad qilingan. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida har bir fuqaroning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish alohida ta’kidlab o‘tilgan. Aynan moliyaviy xizmatlar, kreditlash tizimini raqamlashtirish orqali quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- **Kredit scoring tizimlarini takomillashtirish - sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish asosidagi modellarni joriy etish orqali kredit risklarini aniqlash va baholash samaradorligini oshirish;**
- **Moliyaviy inklyuziyani kengaytirish – raqamli moliyaviy xizmatlar orqali aholining keng qatlamlarini, ayniqsa an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanmaydigan guruhlarning moliyaviy tizimga jalb qilish;**

ISSN 3030-3907

- **Fintech kompaniyalari bilan hamkorlik – innovatsion moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish va ularni kreditlash jarayonlariga integratsiya qilish;**

Hozirgi kundagi barcha moliya tashkilotlarida kredit risklarini aniq baholash moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. An’anaviy banklarda bu jarayon raqamli texnologiyalar, xususan, machine learning (ML) va sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan avtomatlashtirilgan kredit scoring tizimlari bosqichma-bosqich amaliyotga chiqarib kelinmoqda. Lekin shunday modellarni to‘g‘ridan to‘g‘ri islomiy moliya institutlari misolida amalga oshirish uchun modelga berilayotgan ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi va shariat tamoyillariga to‘g‘ri kelish yoki kelmasligini mutaxassislar xulosasi yordamida aniqlashtirilishi talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent shahrida Islom Hamkorlik Tashkilotiga a’zo mamlakatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi ochilish marosimida so‘zlagan nutqlarida: “Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to‘g‘ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo‘llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovars natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo‘lib xizmat qiladi” deb ta’kidladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Islom moliyasining zamonaviy tarixi 1975-yilda Islom taraqqiyot bankining tashkil qilinishi, islom moliyasining global bosqichga o‘tganligini ma’lum qildi. Islom bank-moliya tizimining 2008-yildagi jahon iqtisodiy inqirozi paytida barqaror faoliyati bilan birga o‘sish kuzatilganligi xalqaro e’tirofga sabab bo‘lib, moliya olamida katta qiziqish uyg‘otdi. An’anaviy moliyadan farqli ravishda islom moliyasida mavjud resurs va mablag‘larni jamiyat ichida adolatli taqsimlanishi asosiy mezon hisoblanadi. Biznesda sherikchilik natijasida olingan foyda va zarar ham adolatli taqsimlanishi uchun oldindan aniq belgilangan shartlar kelishiladi. Islom moliyasi an’anaviy moliyaning muqobil variant bo‘lib, an’anaviy moliya xizmatlarining barcha turdagisining alternativi hozirda mavjud. Shu bilan birga islom moliyasini turli iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligi, adolatli yechimlarni taklif qilishi uni nafaqat islomiy davlatlar balki aholisi nomusulmon bo‘lgan davlatlarda ham islom moliyasi xizmatlari keng yoyilmoqda. “Islamic finance development report 2024” [2] ma’lumotlari Islom moliyasi xalqaro miqyosda yiliga 10%-20% gacha o‘sish bo‘lib, 2023-yilda 11% ga aktivlar o‘sib, 4,9 trillion AQSH dollariga yetdi. “Islamic corporation for the development of the

ISSN 3030-3907

private sektor” [3] prognoz qilishicha, 2027-yilga kelib, global islomiy moliya sanoati aktivlari 6,7 trillion AQSH dollariga yetishi taxmin qilinmoqda. Dunyoda 136 ta mamlakat islom moliyasini to‘liq yoki ayrim elementlarini amaliyotga joriy qilgan bo‘lib, bu davlatlar tarkibida aholisining ko‘p qismi musulmon bo‘lmagan davlatlar, Buyuk Britaniya (aholisining 4,4% musulmonlar tashkil etadi), AQSH (0,9%), Singapur (15,6%), Shvetsariya (5,2%), Kanada (3,2%), Avstraliya (3,2 %), Fransiya (4 %), Germaniya (3,5 %) va Rossiya (15 %) ham islomiy moliya xizmatlarini taklif qilib kelayotgan davlatlardandir [4].

O‘zbekistonda ham islom moliyasiga qizish kundan kunga ortib borib, prezident Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis palatalariga yo‘llagan Murojaatnomasida “… mamlakatimizda islomiy moliya xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi” [5]. 2023-yil 4-sentyabrda qabul qilingan PQ-292-sonli Prezident qarorida islom moliyasining huquqiy asoslarini shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi. Qaror islomiy xizmatlar, mahsulotlar va moliyaviy institutlarning huquqiy asosini yaratish, soliq to‘lashning xususiy hollari hamda islom moliyasi asosida jalb etilgan omonatlarni himoya qilish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Topshiriqlar ijrosi sifatida Markaziy bankning 2024-yil 26-iyulda tasdiqlangan 3536-sonli qarori mikromoliya tashkilotlariga islomiy moliyaviy xizmatlarni tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha huquqiy normalar berildi. E’tiborli jihati shundagi shu kungacha qonun hujjatlarida islomiy atamalar ya’ni “muboraha”, “mushokara”, “ijara”, “sukuk”, “murohaba” kabi so‘zlar ishlatilmagan. Moliyaviy xizmatlarning turli ko‘rinishda va turli qatlamlar uchun mavjudligi jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bilan birgalikda, “yostiq ostida” saqlanib kelinayotgan mablag‘larni ham aktiv holatga keltirib, rivojlanishga munosib hissa qo‘shilishi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan.

2020-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi loyihasi davomida yurtimizdagi barcha qatlamlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomada biznes vakillari 38% va jismoniy shaxslarning 55% diniy qarashlari sababli an’anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini aytishgan [6]. O‘zbekistonda islom moliya muassasalari ish boshlasa, 61% biznes vakillari va 75% jismoniy shaxslar xizmatlardan foydalanish istagini bildirishgan. Shu bilan birga 2021-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlarda turli omillar sabab kichik va o‘rta biznesning taxminan 70% o‘z jamg‘armalari hisobiga yoki oila a’zolari, do‘stlaridan qarz olib o‘zini o‘zi moliyalashtirishga harakat qiladi. Bu ahamiyatli va o‘rganib, o‘zining maqbul yechimlarini kutayotgan katta masalalardan biridir. “Yostiq ostida” saqlanayotgan mablag‘lar iqtisodiyotga qo‘shilmay zarar bo‘lishi bir taraf bo‘lsa, inflatsiya [7]

ISSN 3030-3907

sabab o‘z egasiga ham ma’lum miqdorda zarar keltirishi ikkinchi tarafdir. Bunday mablag‘larni aktiv holatga keltirish uchun, ishonchli, halol va daromad olish ehtimoli yuqoriroq xizmatlar taklif qilinishi yechimning bir ko‘rinishi. Ta’kidlab o‘tish joizki, puxta o‘ylanmagan biznes, yoki qarz uza olish qobiliyatini to‘g‘ri baholamay, katta miqdorda qarz bo‘lib yurgan hamyurtlarimiz kam emas. Qarz beruvchi taraf pullarini berishga ishonchli, risk qilishga arziydigan odam (biznes) qidirsa, qarz olmoqchi odam halol, ribolarsiz sherikchilik qiluvchilarni qidiradi. Bu ikki tarafni bir nuqtada jamlovchi tizimga allaqachon ehtiyoj tug‘ilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Jamiyatda qarz va kredit munosabatlarida ishlatiladigan shaffof va ishonchli bo‘lgan, qarzdorning qarz uza olish qobiliyati yoki to‘lov qobiliyatini baholovchi va baholashda neyron tarmoq algoritmlaridan foydalanish orqali masalaga sun’iy intellektni qo‘shib baholash samaradorligini oshirish va moslashuvchan baholash modelini islom moliyasi xizmatlari doirasida ishlab chiqish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Islom moliyasi o‘ziga xos tamoyillarga asoslanganligi sababli kreditga layoqatlilik baholashda sun’iy intellektning modellarini Shariatga zid bo‘lmagan tarzda moslashtirish zarur. Misol uchun Logistik regressiya (Logistic Regression), Random Forest, Gradient Boosting Machines (XGBoost, LightGBM), Sun’iy neyron tarmoqlar (ANN, DNN) va boshqa modellar.


Quyida bir nechta sun’iy intellektning scoring modellarini tahlil qilamiz:

Logistik Regressiya (Logistic Regression)

$$p(x) = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 x_1 + \cdots + \beta_n x_n)}} \quad (1)$$

ISSN 3030-3907

Formuladagi (1) $\boldsymbol{\beta_1, \beta_2, \beta_3}$ ... – regressiya koeffitsiyentlari, $\boldsymbol{x_1, x_2, x_3}$ ... - qarz oluvchiga oid o‘zgaruvchilar (daromadi, qarzdorlik tarixi, xarajatlari…), $\boldsymbol{p(x)}$ soni 0 va 1 orasida bo‘lib, natija 1 ga yaqinlashgani sari qarz uza olish qobiliyati oshib boradi, yoki aksincha 0 ga yaqinlashgani sari qarz olishga layoqatsizligi ko‘rsatiladi.



1-rasm. Logistik regressiyada namunaviy ma’lumotlar asosida credit scoring modeli. Muallif tomonidan yaratilgan [8]

1. **Random Forest (Tasodifiy O‘rmon)**


$$\hat{y}(x) = \frac{1}{T} \sum_{t=1}^{T} f_t(x) \quad (2)$$

(2) formulada: T - qaror daraxtlari (decision tree), $f_1(x), f_2(x), f_3(x)$… - qarz oluvchining parametrlari asosida qabul qilingan qarorlar.

Random Forest — bu bir nechta qaror daraxtlari kombinatsiyasidan iborat qo‘shma model bo‘lib, kredit skoring masalalarida yuqori aniqlikka erishish uchun qo‘llaniladi. Modelning asosiy g‘oyasi — **bagging** (bootstrap aggregating) usuli yordamida daraxtlar yig‘indisini qurish: har bir qaror daraxti ma’lumotning tasodifiy namunasi asosida o‘rgatiladi va yakunda barcha daraxtlar natijalari birlashtiriladi. Shu tariqa, har bir daraxt alohida oddiy model bo‘lsa-da, ularning yig‘indisi murakkabroq va aniqroq bashoratni ta’minlaydi, chunki individual daraxtlarning xatolari o‘rtacha hisobda kompensatsiya qilinadi. Quyida random

ISSN 3030-3907

forest modelining confusion matrix grafigi berilgan. Confusion matrix – Google colab muhitida Python dasturlash tili yordamida modelni grafik ko‘rinishda ifodalash uchun ishlatiladigan kutubxona.



3-rasm. Random forest yordamida yaratilgan credit scoring modeli. Muallif tomonidan yaratilgan[9].

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Yuqorida tahlil qilingan logistik regressiya va random forest modellari bashoratlashda o‘ziga xos modellar bo‘lib, ikkisi ham samaradorlik koeffitsenti yuqori. Lekin taklif sifatida gibrid algoritm ishlab chiqilishi va algoritmga kiruvchi risk mezonlari foizga asoslanmagan, shariatga mos kelishi talab qilinadi. Bunday modelni yaratishda, ma’lumotlar bazasida foiz stavkalari va foizli qarzlar o‘rniga ijara, musharaka, mudaraba kabi instrumentlarga doir ma’lumotlar jamlanadi. Model parametrlari shu ma’lumotlarga muvofiq o‘rgatiladi. Halol moliyaviy ko‘rsatkichlar islom banklari uchun juda ahamiyatli hisoblanadi [10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abrorov, S. (2021). Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikka erishishda islom moliyasining imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari. *O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti va tahlil*, 5(1), 10–20. https://www.researchgate.net/publication/372979259_MAMLAKATIMIZDA_IQTISODIY_BARQARORLIKKA_ERISHISHDA_ISLOM_MOLIYASI_IMKONIYATLARIDAN_FOYDALANISH_ISTIQBOLLARI
2. https://iaif.ir/index.php/en/news-archive-en/item/5583-islamic-finance-development-report-2024
3. https://icd-ps.org/en/news/refinitiv-global-islamic-finance-industry-expected-to-reach-us59-trillion-by-2026

ISSN 3030-3907

4. https://www.researchgate.net/publication/381396351_ISLOM_MOLIYASI_ORQALI_O‘ZBEKISTON_IQTISODIYOTINI_YANADA_RIVOJLANTIRISH
5. https://president.uz/oz/lists/view/4057
6. https://islommoliyasi.uz/uz/6612/
7. https://cbu.uz/uz/press_center/reports/2135400/?sphrase_id=423116
8. https://colab.research.google.com/drive/1dTLw0tEXlXNpZ85__-RJCXkAI8Uie_de#scrollTo=afc92cce
9. https://colab.research.google.com/drive/1dTLw0tEXlXNpZ85__-RJCXkAI8Uie_de#scrollTo=fa87416d
10. Applications of Machine Learning in Islamic Finance | Journal of Information Systems Engineering and Management

ISSN 3030-3907

РОЛЬ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ

Н. А. Отаханов
PhD, профессор, Наманганский государственный университет.
E-mail: nurillo_otaxanov@list.ru.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопросы влияния преподавания языков программирования на качества подготовки специалистов, профессиональная деятельность которых связана с обработкой больших объёмов информации. Большое внимание уделяется к выбору языка программирования для преподавания в высших учебных заведениях. Организация процесса преподавания языка программирования Python в высших учебных заведениях с учетом специфические особенности образовательных направлений позволяет достичь учебных, воспитательных и развивающих целей обучения, что приведет к повышению уровня готовности функционировать в цифровом обществе.

Ключевые слова: качество подготовки, образовательные направления, обучение, специфика, язык программирования Python.

Annotatsiya. Ushbu maqolada dasturlash tillarini o‘qitishning kasbiy faoliyati katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash sifatiga ta’siri masalalari ko‘rib chiqiladi. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish uchun dasturlash tilini tanlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu o‘rinda oliy o‘quv yurtlarida Python dasturlash tilini o‘qitishni ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish jarayoni o‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishishga imkon beradi. Bu esa bo‘lajak mutaxassislari raqamlashgan jamiyatdaga faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar: tayyorgarlik darajasi, ta’lim yo‘nalishlari, o‘qitish, spetsifika, Python dasturlash tili.

Abstract. This article discusses the impact of teaching programming languages on the quality of training of specialists whose professional activities are associated with processing large amounts of information. Much attention is paid to the choice of a programming language for teaching in higher education institutions. The organization of the process of teaching the Python programming language in higher educational institutions, taking into account the specific features of educational directions, allows you to achieve educational, educational and developmental learning goals. And this will lead to an increase in the level of readiness of future specialists to function in the digital society.

ISSN 3030-3907

Keywords: quality of training, educational directions, training, specifics, Python programming language.

Введение

История свидетельствует о том, что программирование, зародившееся в 50-х годах XX века, сегодня превратилось в мощную IT-индустрию. Этот тип промышленности служит движущей силой всех сегментов современного цифрового общества и экономики. Данные о том, что 5 мировые ИТ-гиганты за 2023 год получили доходы в 535 миллиардов долларов, и при этом обеспечили работой почти 2 миллиона программистов [14] утверждают, что программирование стало и родом деятельности, и видом бизнеса для многих молодых людей. Растущая потребность в новых программных средствах сделала программирование одним из самых востребованных и современных видов деятельности, способных гарантировать большой доход. Рост числа ИТ-предприятий, а также цифровизация экономики создали проблему нехватки программистов.

Как правило, процесс разработки новых программных средств требует совместной работы программистов с высококвалифицированными специалистами в области рассматриваемого вопроса, что вызывает определённые неудобства и больших затрат всевозможных ресурсов. В устранении этих проблем важное значение имеют специалисты других отраслей, обладающие необходимыми знаниями и квалификациями по программированию. Такое обстоятельство позволить организовать процесса программных комплексов быстрыми, удобными, эффективными и экономичными способами. Такая ситуация должна найти свое отражение и в системе образования.

Zol-gel usuli [1-2, 163-b.] tadqiqot ishi mualliflari tomonidan zol-gel usulining tizimli ko‘rinishi ta’riflangan (1-rasm). Ular deyarli barcha kerakli kimyoviy birikmalar (alkoksidlar, organik va noorganik tuzlar) o‘z ichiga olgan bir hil eritmadan maxsus moddani qo‘shish yo‘li bilan zol olinadi. Zol bu eritmaning tubiga cho‘kmasdan, uning hajmi bo‘ylab bir tekisda taqsimlanuvchi barqaror nanozarrachalarning suspenziyasidir. Vaqt o‘tishi bilan nanozarralar bir-biriga birlasha boshlaydi va aralashmada bo‘shliqlar paydo bo‘lib, gelning fazoviy ramkasi shakllananadi. Bundan gellarni ma’lum bir haroratlarda quritilganda undagi nanozarrachalar birlashishi natijasida nanoob’ektlar hosil bo‘ladi [3, 179-b.].

Zamonaviy fizik-kimyoviy tamoyillarga ko‘ra, gelning hosil bo‘lishi fraktal tuzilmali zolning shakllanishi boshlanib, oqim nazariyasi asosida bir-biri bilan to‘qnashish natijasida fraktal agregatlarning o‘sishi sodir bo‘ladi [4, 22-25-b.]. Gel shakllanish nuqtasi (gelatsiya) atrofida polimerlar yoki zarrachalar agregatlaridan iborat, tasodifiy joylashgan qo‘shni klasterlar birlashib, yagona tizimli tarmoq hosil qiladi.



1 -rasm. Zol-gel jarayonining sxematik tasviri.

Eritmaning butun hajmi bo‘ylab tekis taqsimlangan yagona klaster tizimi hosil bo‘lganda, oquvchanlik chegarasiga gel shakllanish nuqtasi to‘g‘ri keladi. Gellanish jarayonini eritmaning yopishqoqligini o‘zgartirish orqali kuzatish mumkin (1-rasm) [5, 210-456-b.]. Gel to‘la shakllanib bo‘lganidan so‘ng zol o‘zida nanozarrachalar harakatchanligini yo‘qotadi va bu holat “nam gel” deb ataladi. 2 –

ISSN 3030-3907


rasmda keltirilgan grafik tahlili, aralashma-eritma tayyorlangandan 10 soat o‘tgandan so‘ng gelning hosil bo‘lish jarayonini dastlabki nuqtasini ko‘rsatilgan. Bu bosqichda gel to‘lalagicha shaffof ko‘rinishda bo‘lmay, oq rangga kirib qoladi.

Gelning shakllanishining dastlabki nuqtasida gellanish jarayoni butunlay to‘xtab qolmaydi va bu gelning qarishi deb atalib, odatda bunday jarayon mobaynida gel tarmog‘ining deformatsiyalanishini hamda g‘ovaklardan suyuqlikni chiqib ketishi natijasida gelning hajmi asta-sekinlik bilan qisqarib boradi.

Zol-gel usulida erituvchini geldan olib tashlash (quritish) jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Quritish usullariga qarab, har xil mahsulotlarini olish mumkin (1-rasmga qarang). Quritilgan gel kserogel deb ataladi, u yuqori g‘ovaklilik va sirt maydoni bilan ajralib turadi. Aerogel juda past zichlikdagi kserogel bo‘lib, unda nam gelning tuzilishi saqlanib qoladi va g‘ovaklar olib tashlangan suyuqlik fazasi o‘rniga havo bilan to‘ldiriladi.

Zol-gel texnologiyasi, o‘zining, jarayonlarni nisbatan kichik haroratlarda o‘tkazilishi, dastlabki aralashmada tuzlari va oksidlarining erishi natijasida molekulyar darajadagi gomogenligi xususiyati bilan kimyoviy gomogenlash kabi ko‘pgina usullardan afzaldir [6, 368-b.]. Shuning uchun, bu texnologiya murakkab tuzilmali metallooksidlarni, yuqori haroratga sezgir bo‘lgan noorganik gibrid materiallarni, metastabil, lyuminessent, nanotuzilmali va sirtini modifikatsiyalovchi materiallarni, membranalarni olishning samarali usul hisoblanadi. [5, 210-456-b.] tadqiqot ishida zol-gel usuli yordamida shaffof yupqa SnO_2 plenkalari o‘stirilib, uning asosida maydon tranzistorning tuzilmaviy elementlarini ishlab chiqarish uchun bir qator tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, izopropil spirtidagi qalay xlorid tuzining eritmasidan gel hosil bo‘lishi hamda suyuqlikning qovushqoqligini vaqtga bog‘lanishi aniqlangan. Aniqlanishicha, eng optimal vaqt, shaffofligi yuqori plenkalarni tayyorlash uchun 12 soat, past qarshilikli plenka tayyorlash uchun 8 soat qilib tanlab olingan.

ISSN 3030-3907



2 -rasm. Eritmaning dinamik yopishqoqligining vaqtga bog‘liqlik grafigi

Bundan tashqari tayyor gelning sentrafugalash usuli yordamida yupqa SnO_2 plenkalarining olinib, ularning elektr va optik xususiyatlari o‘rganilgan. Xlorli-qalay aralashma-eritmasidan 12 soat davomida tayyorlangan plenkalar eng yaxshi elektrofizik hamda fotoelektrik xossalarga ega ekanligi aniqlangan. **[5, 210-456-b.].**

Metodologiya.

Cho‘ktirish usuli bilan ZnO va SnO_2 plenkalarini olish.

Cho‘ktirish usuli bilan o‘stirilgan ZnO va SnO_2 yupqa plenkalarni olish texnologiyasi bir nechta xususiyatlarga ega.

Birinchidan, qo‘llash paytida har doim qalinlikda farq bor (sentrafugalash paytida radial, suvga botirish paytida chiziqli), bu (yopishqoqlik, tortish tezligi yoki sentrafugalashda aylanish tezligiga) bog‘liq.

Ikkinchidan, suvga cho‘ktirish paytida qalinlikdagi farqni qoplash uchun har bir qatlamdan keyin namunani 180^0 ga burish va natijada bir xil qatlamlarni hosil qilish kerak.

SnO_2 yupqa qatlami 125 ml izopropil spirtli aralashmasidan olingan. SnO_2 plenkasini sintez qilish uchun biz prekursor sifatida 0,5 M molyar konsentratsiyali qalay xlorid digidrat [$SnCl_2 \cdot 2H_2O$] tuzidan foydalaniladi. Birinchidan, bu aralashma oq rangga ega bo‘ladi, so‘ngra IKA RH basis 2 magnit aralashtirgich yordamida 80 °C li haroratda 60 daqiqa vaqt mobaynida eritma rangini to‘liq shaffofga rangga o‘tgunicha aralashtirildi. SnO_2:Sb plenkasini hosil qilish uchun kirishma sifatida surma [$SbOCl_2$:HCl] yoki [$SbCl_3$] shaklidagi xlorli surma ishlatiladi. SnO_2 aralashmasiga $SbCl_3$ ning kiritilishi indiyli (ITO) plenkalari o‘rnini bosadigan kichik qarshilikli shaffof (SnO_2:Sn_2O_3) plenkalarni olish

ISSN 3030-3907

imkonini beradi. Natijada, qalay xloridning ikkita shaffof eritmasi tayyorlandi: har xil tarkibli (1,2,4%) surma xloridning miqdori 125 ml bo‘lgan, prekursorlarning 0,5 M molyar konsentratsiyali legirlangan hamda legirlanmagan eritmalari tayyorlandi. Bu eritmalar xona haroratida 168 soat vaqt davomida quritiladi, qurish jarayonida eritmalar rangini avval shaffofdan oqgacha, keyin sariq rangga o‘zgartiriladi. Oyna tagliklar ultratovushli vannada distillangan suv va izopropil spirti bilan tozalanadi.

Namunalar uchun taglik sifatida mikropreparatlar uchun o‘lchamlari 2,6x7,6 sm^2 bo‘lgan oyna (GOST 9284-75) tagliklardan foydalanildi. Yupqa qatlamlarni o‘stirish uchun 3-rasmda ko‘rsatilgan avtomatik cho‘ktirish qurilmasi qo‘llanildi. O‘stirish jarayoni tezligi 5 sm/min tezlikda amalga oshirildi. Natijada yuzasi 2,6 x 5,5 sm^2 o‘lchamda bo‘lgan plenkalar olindi.


Bunday plenkalar 2 daqiqa vaqt mobaynida havoda 360 °C haroratda quritildi, so‘ngra issiqlik zo‘riqishlari natijasida tagliklarda yoriqlar paydo bo‘lishini oldini olish uchun 2 daqiqa vaqt mobaynida keramik tagliklar ustida sekin sovitildi. Shunday qilib, har bir namunada 10 ta qatlam olindi.

Sprey piroliz usulida ZnO va SnO_2 qatlamlarini olinishi.

Sprey piroliz usuli bilan eritmalar mikropreparatlarga mo‘ljallangan 26x76x1 mm o‘lchamli predmet (GOST 9284-75)oynasida o‘stiriladi. Ushbu oyna 245x60 mm o‘lchamli IK keramik qizdirgich elementi bilan qizdirildi. Sirtdagi haroratlar farqini minimal qilish uchun predmet oynasi isitgich bo‘ylab markazga joylashtirildi. Harorat Hold Pask HP- 1500 pirometri bilan o‘lchandi. Qizdirishda 300 dan 500 °C gacha turli haroratlar sinab ko‘rildi va SnO_2, ZnO uchun optimal deb 420°C tanlandi. Bu usul bilan eritmadan oksid qatlamni o‘stirish uchun soplo diametri d = 0.3 mm bo‘lgan aerograf yordamida aerozol hosil qilindi. Aerografdagi havo bosimi yog‘siz porshenli kompressor AS-186 yordamida olindi. Sprey – piroliz qurilmasini prinsipial sxemasi 4 – rasmda keltirilgan. SnO_2 va ZnO larning sintezi mos metall tuzlarning eritmalaridan amalga oshirildi.


Qalay oksidi yupqa pardasini sintez qilish uchun prekursor sifatida qalay – xlorid [$SnCl_2 \cdot 2H_2O$] dan foydalanildi, sink oksidi esa sink asetatidan [$Zn(CH_3COO)_2 \cdot 2H_2O$] sintezlandi.

ISSN 3030-3907



3-rasm.Cho‘ktirish usulining qurilmasi.

Erituvchi sifatida 200 ml hajmli distrlangan suvdan foydalanildi. Qalay xloridni suvdagi gidrolizidan saqlanish uchun unga 1 ml xlorid kislotasi qo‘shildi. Keyin eritma 30 minut davomida aralashtirildi. Aralashtirish xona xaroratida IKA RH basis 2 magnitli aralashtirgich bilan amalga oshirildi. SnO_2, ZnO yupqa pardalarni sprey – piroliz usuli yordamida olishning soddalashtirilgan sxemasi 4 – rasmda keltirilgan.



4-rasm. Sprey piroliz qurilmasining sxemasi.

Natijalar va Munozara.

SnO_2 va ZnO yupqa pardalarni changlatish 2 mm.sim. ust havo bosimida, 8ml/min tezlikda olib borildi. Changlatuvchi tuynukdan dastlab qizdirib olingan predmet oynasigacha bo‘lgan masofa 85 sm ni tashkil etdi. SnO_2 yupqa parda 18

ISSN 3030-3907

minut davomida bir qavat qilib o‘stirildi. Ko‘p qatlamli ZnO yupqa pardasi taglik haroratini tiklab olish uchun 1 minutdan, 30 sekund tanaffus bilan amalga oshirildi. Shu usulda 14 qatlam hosil qilindi. Metallooksid SnO_2:Sb 1% yupqa parda sintezi 200 ml hajmli izopropil spirti eritmasidan olindi. Sintez uchun prekursor sifatida molyar konsentratsiyasi 0.25 M bo‘lgan qalayning ikki suvli xloridi [$SnCl_2 \cdot 2N_2O$] ishlatildi. Dastlab bu eritma och sut rangga ega bo‘lib, isitgichli IKA Ph basic 2 magnitli aralashtirgichida 80 °C xaroratda 60 minut davomida rangi to‘la shaffof bo‘lgunicha aralashtirildi. Legirlovchi kirishma sifatida surma xloridi [$SbCl_3$] 1 at.% miqdorda surmali yog‘ [$SbONCl_2$:NS1] ko‘rinishida ishlatildi. SnO_2:Sb yupqa pardani changlatish 2 bar havo bosimida, 8 ml/min tezlikda eritma to‘la tugaguncha olib borildi. Changlatuvchi tuynukdan dastlab qizdirib olingan predmet oynasigacha bo‘lgan masofa 35 sm ni tashkil etdi. Bu yupqa pardani o‘stirish 10 sekunddan kichik porsiyalar bilan, 20 sekund tanaffus bilan olib borildi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Zol-gel va Sprey piroliz usuli qolgan usullardan farqi va afzalligi, yupqa qatlamlarni sintez qilish va ulardagi optik xossalarini va yuzada xosil bo’ladigan nuqsonlarni ideal kamaytirish uchun samarali deb olindi. Bundan tashqari laboratoriya xolati hamda ishlab chiqarishga moslashgan sprey o’stirish usuli har bir modda uchun turli hil harorat va atmosfera bosimi gradiyentini aniqlash mumkinligini anglatadi. Sprey piroliz usulida, SnO_2 va ZnO yupqa pardalarni changlatish 2 mm.sim. ust havo bosimida, 8ml/min tezlikda olib borildi. Zol-gel usulida Ko‘p qatlamli ZnO yupqa pardasi taglik haroratini tiklab olish uchun 1 minutdan, 30 sekund tanaffus bilan amalga oshirildi. Shu usulda 14 qatlam hosil qilindi. Xlorli-qalay aralashma-eritmasidan 12 soat davomida tayyorlangan plenkalar eng yaxshi elektrofizik hamda fotoelektrik xossalarga ega ekanligi aniqlangan. Zol-gel va Sprey piroli oksidlarni sintez qilishda eng samarali usul deb xisoblandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Saidov A.S. et. al. Growth of $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ solid solution films and investigation of their structural and some photoelectric properties. // Physics of the Solid State.-2011. - Vol. 53(10). -P. 2012–2021.

2. Саидов А.С., Саидов М.С., Усмонов Ш.Н., Асатова У.П. Выращивание пленок $(InSb)_{1-x}(Sn_2)_x$ на арсенид-галлиевых подложках методом жидкофазной эпитаксии. // Физика и техника полупроводников. -2010, -Том 44(7). С. 970-977.

3. Zainabidinov S.Z., Saidov A.S., Leiderman A.Yu., Kalanov M.U., Usmonov Sh.N. Rustamova V.M., and Boboev A.Yu. Growth, Structure, and Properties of

ISSN 3030-3907

GaAs-Based $(GaAs)_{1-x-y}(Ge_2)_x(ZnSe)_y$ Epitaxial Films. // Semiconductors. -2016. - Vol. 50(1). - P. 59–65.

4. Зайнабидинов С.З., Лейдерман А.Ю., Каланов М.У., Усмонов Ш.Н., Бобоев А.Й. Особенности электрофизических свойств *p–n* структур на основе непрерывного твердого раствора *n*-Ge-*p*-$(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$. //Узбекский физический журнал.-2015. - № 5. - С. 301-305.

5. Сапаев Б. Исследование роста и фотоэлектрических свойств эпитаксиальных гетероструктур $Ge{-}(Ge_2)_{1-x}(GaAs)$, полученных из свинцового раствора-расплава методом жидкостной эпитаксии. // Письма в ЖТФ. -2004. - Том 30(15). - С.29–37.

6. Atajonov, M., Mamarasulov, Q., Dexqonboyev, O., & Xakimov, T. (2024, November). Research of solar panel model based on photovoltaic module. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.

ISSN 3030-3907

ARRALI JIN ISHCHI KAMERASI ICHKI YUZALARI VA XOM-ASHYO VALIGI ORASIDAGI ISHQALANISH KUCHLARIGA ISSIQLIK TA'SIRINI O'RGANISH.

Sharipov Jahongir Qahramon o'g'li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktaranti
Mirzaumidov Asilbek Shuhratjonovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti texnika fanlari doktori, dotsenti.
Yunusov Salohiddin Zununovich
Toshkent davlat transport universiteti texnika fanlari doktori, professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada arrali jin ishchi kamerasining ichki yuzalari va xom-ashyo aligi orasidagi ishqalanish kuchlariga issiqlik ta'sirini o'rganish masalasi ko'rib chiqiladi. Ishqalanish natijasida hosil bo'ladigan issiqlik miqdori paxta tolalarining fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatib, ularning ishchi kamera ichki devorlari bilan ishqalanish jarayoniga ta'sir etadi. Olingan natijalar asosida issiqlik ta'sirining optimal chegaralarini aniqlash va ish jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xom-ashyo valigi, ishqalanish, ishchi kamera, issiqlik uzatish, namlik.

Annotation.This article examines the impact of heat on friction forces between the inner surfaces of a saw gin working chamber and the raw material roller. The amount of heat generated due to friction affects the physical and mechanical properties of cotton fibers and influences their interaction with the inner walls of the working chamber. Based on the obtained results, recommendations are proposed to determine the optimal heat impact limits and improve the efficiency of the working process.

Keywords: Raw material roller, friction, working chamber, heat transfer, humidity.

Аннотация.В данной статье рассматривается влияние тепла на силы трения между внутренними поверхностями рабочей камеры пильного джина и валиком сырья. Количество тепла, образующееся в результате трения, влияет на физико-механические свойства хлопковых волокон и их взаимодействие с внутренними стенками рабочей камеры. На основе полученных результатов предлагаются рекомендации по определению оптимальных пределов теплового воздействия и повышению эффективности рабочего процесса.

Ключевые слова: Валик сырья, трение, рабочая камера, теплопередача, влажность.

Kirish

ISSN 3030-3907

Hozirgi vaqtda paxtani dastlabki qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, ayniqsa, paxta tolalarini chigitdan ajratish jarayoni va ushbu sohada qo‘llaniladigan texnika hamda texnologiyalarni yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar paxtani jinlash jarayonining energetik va texnologik samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ilg‘or nazariy yondashuvlar asosida optimal jarayon parametrlarini aniqlash va ishlab chiqarish sharoitlariga mos innovatsion texnologiyalarni yaratishga asoslanadi.Paxta tolalarini chigitdan ajratish jarayonida uning dastlabki fizik-mexanik xususiyatlarini maksimal darajada saqlash, energiya sarfini optimallashtirish hamda yuqori sifatli mahsulot olishga yo‘naltirilgan texnologik yechimlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, paxta xomashyosini qayta ishlash jarayonlarida yuzaga keladigan energiya sarfini minimallashtirish, jarayon parametrlarini nazorat qilish va optimallashtirish, shuningdek, yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan konstruktsion yechimlarni ishlab chiqish zamonaviy ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Paxta sanoatida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish masalalari global miqyosda dolzarb hisoblanadi. Xususan, paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish, arrali jinlarning ishchi organlarini hisoblash va loyihalash metodikasini ishlab chiqish, yangi jin konstruksiyalarini yaratish hamda texnologik parametrlarni optimallashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.Mazkur yo‘nalishda chet ellik olimlar va muhandislarning izlanishlari paxta sanoatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Jumladan, **P. Pfieger, C.O. Jonkers, A.M. Martinenko, L. Gladinewiez, W. Pampel, H.H. Schommer, N.I. Kolchin, F. Reiner, J. Pfeifer, P. Bernard, G. Veit** kabi yetakchi tadqiqotchilarning ishlari paxtani qayta ishlash texnologiyasining samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim ilmiy yechimlarni o‘z ichiga oladi. Ularning tadqiqotlari jin ishchi organlarining optimal ishlash sharoitlarini ta’minlash, paxta xomashyosini qayta ishlash jarayonining texnik va texnologik jihatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu sohadagi innovatsion metodlarni shakllantirish va amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

Paxta tozalash texnologiyasini rivojlantirish bo‘yicha o‘zbek olimlari ham keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Xususan, **B. Levkovich, G.I. Miroshnichenko, R.G. Maxkamov, G.D. Djabborov, G.I. Boldinskiy, V.G. Gulidov, P.N. Tyutin, A. Djurayev, M. Tillayev, R.M. Kattaxo‘jayev, A.Ye. Lugachev, B.M. Mardonov, A. Jurayev, S.Z. Yunusov** kabi yetuk mutaxassislarning fundamental va amaliy tadqiqotlari paxta tozalash sanoati fani, texnikasi va texnologiyasini

ISSN 3030-3907

rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shgan. Ushbu olimlarning izlanishlari paxta tolasini chigitdan ajratish jarayonini takomillashtirish, ishlab chiqarish texnologiyalarining samaradorligini oshirish va optimallashtirishga qaratilgan bo‘lib, sohaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.


Xususan, arrali jin ishchi kamerasi bo‘yicha ham ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jin ishchi kamerasining konstruktiv xususiyatlari va uning paxta xomashyosiga ta’sirini o‘rganish, ishqalanish jarayonining mexanik va termodinamik tahlili, ishchi organlarning optimal harakat parametrlarini aniqlash kabi masalalar ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari markazida bo‘lib kelgan. Ushbu tadqiqotlar asosida arrali jin ishchi kamerasining samaradorligini oshirish, paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash va energiya tejamkorligini ta’minlash bo‘yicha muhim ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.Shu bois, arrali jin ishchi kamerasi va uning ichki yuzalarining xom-ashyo aligi bilan o‘zaro ta’siri, ishqalanish kuchlari ta’sirida hosil bo‘ladigan issiqlik miqdori va uning paxta tolalarining fizik-mexanik xususiyatlariga ta’siri kabi jihatlarni batafsil o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada aynan ushbu masalalar yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari taqdim etiladi.

G.I. Miroshnichenko paxta xom-ashyosi ishqalanish koeffitsiyenti paxtaning nisbiy namligi va nisbiy siljish tezligiga bog‘liqligini tadqiqotlarida o‘rgangan. Paxta xom-ashyosining ishqalanish koeffitsiyenti quyidagi omillarga bog‘liq:


- nav
- namlik
- bosim
- nisbiy siljish tezligi.

Ishqalanish koeffitsiyenti quyidagi nomogrammda rezina (a-rasm) va po‘lat(b-rasm) yuzalar uchun o‘zgarish satxlarini ko‘rishingiz mumkin.

ISSN 3030-3907



a



b

1-rasm. a-paxa xom-ashyosining rezina sirti bilan ishqalanish nomografikasi; b-paxta-xom ashyosining po‘lat yuza bo‘yicha ishqalanish koefitsiyenti, w-paxta xom-ashyosi namligi, P-bosim.

Paxta xom-ashyosining ishqalanish koeffitsiyenti quyidagi omillarga bog‘liq:

- nav,
- namlik,
- bosim,
- nisbiy siljish tezligi.

Namlik oshishi bilan xom-paxtaning po‘lat yuzaga bo‘lgan ishqalanish koeffitsiyenti ortadi, lekin transporter lentasi uchun kamayadi. Nisbiy siljish tezligi oshganida po‘lat yuzada ishqalanish koeffitsiyenti ko‘payadi, transporter lentasi uchun esa turli namlik diapazonlariga bog‘liq holda o‘zgaradi. Masalan, namlik 10% bo‘lganda ishqalanish ortadi, lekin 42% ga yetganda kamayadi.[1]


Yuqoridagi nomogrammadan xulosa qilish mumkinki paxta xom-ashyosi va po‘lat yuza orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti namlik ortishi bilan oshar ekan.Demak Arrali jin mashinasining ishchi kamerasi va xom-ashyo valigi orasidagi ishqalanish kuchini kamaytirsh uchun paxta xom-ashyosi namligini pasaytirishimiz talab etilar ekan.

Ishchi kamera ichki yuzasi va xom-ashyo valigi orasidagi ishqalanish kuchini kamaytirish maqsadida bir nechta ishlar amalga oshirilgan.S.Z. Yunusovning tadqiqotlariga ko‘ra, arrali jin mashinasining ishchi kamerasining old fartuk qismiga issiqlik ta’sirini qo‘llash orqali uning energiya tejamkorligini oshirish mumkin. Olim tomonidan olib borilgan tajribalarda O‘zbekistonda keng foydalanilayotgan 5DP-130 va 4DP-130 markali jin mashinalarining geometrik o‘lchamlariga mos keladigan 30 ta arrali laboratoriya jin mashinasida o‘tkazilgan tahlillar natijalari bu fikrni tasdiqlaydi. Issiqlik ta’siri ostida xomashyo valigi hamda old fartukning ichki yuzalaridagi ishqalanish kuchlari sezilarli darajada kamaygan. Natijada esa mashinaning umumiy energiya sarfi kamaygan.[2]


ISSN 3030-3907

Tadqiqot usuli va materiallar:"Tajribalar 30 arrali paxta tozalash jin mashinasida paxta tozalash mashinasi ishchi kamerasining ichki yuzalariga(old fartuk va orqa to‘sin) issiqlik berish orqali amalga oshirilgan. Eksperimentlar turli haroratlarda (60°C, 70°C, 80°C,) Andijon-35 III-sanoat navi 2-sinf , 9, 12 va 15% namliklarda amalga oshirilgan.Bizga ma’lumki 30 ta arrali labaratoriya jin mashinasining deyarli barcha parametrlari mavjud arrali jinlarga deyarli mos keladi. Shu sababli ushbu jin mashinasida olingan natijlar mavjud mashinlar uchun o‘rinli va ko‘plab tadqiqotlar davomida o‘z isbotini topgan.(2-rasm)

Natijalar.Tajriba davomida mashina ishchi kamerasidagi ishqalanish kuchlarini topib olish uchun kamera ichidagi paxta xom-ashyosining massasini hamda ishchi kameraning hajmini aniqlashimiz talab etiladi. Ishchi kamera ko‘ndalang kesim yuzasi va ishchi kamera uzunligi L=538 mm ekanini hisobiga olib hajmini va 2-rasmda ko‘rsatilgan jin ishchi kamerasini chap va o‘ng qismini yuzasini hisoblaymiz:



a-rasm



b-rasm

2-rasm.Jin mashinasining 30 arrali tajriba o‘tkazishga mo‘ljallangan qurilmasining ko'ndalang qirqim yuzasi

a-rasmda jin ishchi kamerasining geometrik tuzilishi, b-rasmda jin ishchi kamerasida xom ashyo valigining qatlamlarini joylashishi.

ISSN 3030-3907

Bu hisobimizda na’lum xatolik bo‘lishi mumkin, sababi e’tiborga olinmagan va ba’zi kattaliklar yaxlitlab olingan.

$$S_1 = \frac{\pi \cdot R_1 \cdot \alpha}{360^0} = \frac{\pi \cdot (0.25)^2 \cdot 150^0}{360^0} = 0{,}082\ m^2$$

$$S_2 = \frac{\pi \cdot R_2^2}{2} = \frac{\pi \cdot (0{,}168)^2}{2} = 0{,}044\ m^2$$

$$S = S_1 + S_2 = 0{,}082 + 0{,}044 = 0{,}126\ m^2$$

$$V = S \cdot L = 0{,}126 \cdot 538 = 0{,}067\ m^3$$

Tadqiqotchilar tomonidan jin ishchi kamerasining hajmini kompyuter dasturi orqali hisoblaganda V_0 =0,067m^3 ekanligi aniqlangan. Bu ko‘rsatkichning aniqlik darajasi yuqori bo‘lganligi sababli keyingi hisoblashlarimizda ishchi kamera hajmi V_0 =0,067m^3 deb hisoblaymiz.[3]

Paxta xom ashyosini o‘rtacha zichligi $\rho_0 = 325\ kg/m^3$ ekanini hisobga olib, ishchi kameradagi xomashyo valigining o‘rtacha massasini hisoblaymiz:

$$m_0 = \rho_0 \cdot V_0 = 325 \cdot 0{,}067 = 22 \quad kg$$

Jin mashinasining ishchi kamerasi ichidagi paxta xom-ashyosining masasini aniqlagan holda uning ichki yuzalar orasidagi ishqlanish kuchlarini aniqlashimiz mumkin.

1-jadval

Sinov rejimi	Paxta xomashyosining navi va sinfi	Belgilangan xaroratlar		Namlik, % va ishqalanish koeffitsiyenti			
		Old fartu k ^{0}C	Orqa fartu k ^{0}C	9	12	15	
				μ_{ish}	μ_{ish}	μ_{ish}	
1	Andijon III/2	-	-	0.4	0.43	0.46	
2	-//-	60	60	0.382	0.413	0.442	
3	-//-	60	70	0.379	0.409	0.438	
4	-//-	60	80	0.376	0.404	0.431	
5	-//-	70	60	0.379	0.407	0.434	

ISSN 3030-3907

6	-//-	70	70	0.375	0.404	0.430	
7	-//-	70	80	0.372	0.399	0.425	
8	-//-	80	60	0.371	0.398	0.426	
9	-//-	80	70	0.367	0.395	0.420	
10	-//-	80	80	0.352	0.392	0.419	

Tahlil: Natijalar shuni ko‘rsatadiki, issiqlik berish jarayonida ishqalanish koeffitsiyenti ichki yuzalarga issiqlik berish natijasida ma’lum bir darajagacha oshishini kuzatildi. 1-jadvaldan ko’rish mumkinki kameraning ichki ikkala devoridagi temperaturaning oshishi ishqalanish koeffitsiyentini kamayishiga olib keladi.Eng maksimal xolatda ichki old devor harorati 80°C va orqa devor harorati 80°C bo‘lganda ishqalanish koeffitsiyentini kamayishi maksimalni tashkil qilishini lekin paxtaning namligi 12% miqdordan yuqori namlikda asta pasayishini kuzatishimiz mumkin. Optimal parameter ichki old devor uchun 80°C va ichki orqa devor uchun 70°C darajada ishqalanish koeffitsiyentini kamayishi 7.6% gacha yetishi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda paxta tozalash jarayonida issiqlik berishning ishqalanish koeffitsiyentini kamayishiga ta'siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, issiqlik ta'siri paxta namligi va haroratining jarayon samaradorligiga ta'siri ko‘rsatildi, shuningdek, issiqlik berish tizimlarining optimallashtirilishi ish unumdorligini oshirishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Мирошниченко Г.И. и др. Оборудование и технология производства первичной обработки хлопка. – Ташкент, «Укитувчи», 1980. – 328 с.
2. Юнусов С.З. Разработка эффективных конструкций и совершенствование научных основ расчёта параметров рабочих органов и механизмов пильных джинов. Диссертация на соискание учёной степени доктора технических наук Tashkent. – 2017 g.
3. Sarimsaqov A.U., Karimov A.I., Muradov R.M. Arrali jin ishchi kamerasidagi jarayonlarni amaliy va nazariy statik hisobi // Mexanika muammolari. – Toshkent, 2012. – № 2. B. 60-63.
4. Юнусов С.З. Разработка и обоснование параметров ускорителя сырцового валика пильного джина. Диссертация на соискание учёной степени кандидата технических наук. Ташкент, 2010.
5. Sarimsaqov A., Muradov R., Ismonov M. Arrali jin ishchi kamerasidagi jarayonlarni kinematik va dinamik hisobi // Mexanika muammolari. – Toshkent, 2013. – № 2. B. 61-64.

ISSN 3030-3907

MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHDA YARIM O'TKAZGICHLI QUYOSH ENERGIYALARINI PARAMETRLARINI ANIQLASH

Xoliqov Alimardon Sultonovich
Andijon davlat texnika institute katta o'qituvchi
ORCID 0009-0007-0960-7561tel:
Tel: +998 97 834 8505

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi paytda o'rganilish ko'lami kengayib borayorgan kukunli texnoilogiya asosida yarimo'tkazgichli materiallar olish usullari va olingan materialni elektrofizik xossalarini o'rganishga qaratilgan. Astronomik kuzatishlarni fizika qonuniyatlari orqali tushuntirishdagi ba'zi muloxazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mikroelektron qurilma, metallurgiya, kibernetika, avtomatika, rodar texnikasi, Chaxral usuli, sharli va aylanma bolg'ali tegirmonlar.

Аннотация: Целью данной статьи является исследование методов получения полупроводниковых материалов и электрофизических свойств получаемого материала на основе порошковой технологии, что в настоящее время расширяет сферу исследований.

Ключевые слова: Микроэлектронные устройства, металлургия, кибернетика, автоматизация, радиолокационная техника, метод Чахрала, шаровые и молотковые мельницы.

Abstract: This article aims to study the methods of obtaining semiconductor materials and the electrophysical properties of the obtained material based on powder technology, which is currently expanding the scope of research.

Key words: Microelectronic device, metallurgy, cybernetics, automation, radar technique, Chakhral method, ball and rotary hammer mills.

Kirish

Yarim o'tkazgichli elektronikasiz va mikroelektronikasiz ilmiy-texnikaviy rivojlanishni tasavvar qilib bo'lmaydi. Turli xil yarim o'tkazgichli asboblar va mikrosxemalar tayyorlashda yarim o'tkazgichli materiallar va ko'p qatlamli strukturalardan keng foydalaniladi. Sifatli yarim o'tkazgich materiallarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning sifatini sanoat sharoitida tekshirish va ishlab chiqarilayotgan materiallarning sifatini yuqori darajaga ko'tarilishiga bog'liq. Bu esa ishlab chiqarishdagi texnologik yo'qotishlar , ishlab chiqarilayotgan materialning sifatini nazorat qilishga ketgan moddiy harajatlar o'lchamlarini aniqlash imkonini beradi. Bundan ko'rinadiki, sanoat korxonalarini yuqori aniqlikdagi va ishlab chiqarish unimdorligi yuqori bo'lgan vositalar bilan jixozlash

ISSN 3030-3907

, yarim o’tkazgich materiallarning sifatini tekshirish uchun ilg’or yangi usullardan foydalanish va ishlab chiqarish lozim.

Quyosh energiyasi yiliga 505 GVt ni tashkil qiladi, bu dunyodagi elektr energiyasining taxminan 2% ni tashkil qiladi. Quyosh energiyasidan quyosh nuri tushadigan har qanday joyda foydalanish mumkin; Biroq, elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan quyosh energiyasi miqdori ob-havo sharoiti, geografik joylashuv va kun vaqtiga ta'sir qiladi [15.28]

Hozirgi paytda integral mikrosxemalar uchun asosiy material kremniy monokristalidir. Albata yangi materiallar masalan geliy, arsenedi, indiy, fosfidi va oshqa materillar ustida ham tekshiruv ishlari olib boriliyapti.

Hozirgi zamon elektronikasida epitaksial strukturalar, polikristal va amorf yarimo‘tkazgichalar ham turli zamonaviy yangi asboblarni yaratilishiga olib kelmoqda. Polikristal yarimo‘tkazgichlarni

Olishning muhum axamiyati shundaki; **birinchidan,** polikristal quyma yoki parda ko‘rinishida yarimo‘tkazgich olish monokristallarga nisbatan soda va ancha unumdor texnologik jarayon hisoblanib, bu yarimo‘tkazgich modda va uning asosida tayyorlangan asboblarni ancha arzonlashtiradi; **ikkinchidan,** olingan ushbu yarimo‘tkazgichlardan donalar chegaralari maxsus elektrik va rekombinatsion xossalarga ega hamda ulardan bir qator asboblar yaratishda foydalanish mumkin; **uchinchidan,** kristal panjarasining tuzulishi jiddiy nuxsoni bo‘lmish donalar chegarasi samarali ichki getter vazifasini o‘tab, qoldiq krishmalar va xususiy nuqtaviy nuqsonlardan moddaning asosiy xajmini tozalash imkonini beradi bu xossa elektron qurilmalarning temperatura o‘zgarishiga barqarorligini va radiatsion bardoshliligini oshiradi.[76.98]

Bu yo’l bilan yarim o’tkazgich materiallar va strukturalarni ishlab chiqish iqtisodiy samaradorlikka olib keladi. Yarim o’tkazgichlarning hamma parametrlarini har doim oddiy va qulay bo’lgan usullar bilan o’lchash afsuski mumkin emas. Ularni ko’pchiligini o’lchash maxsus fizik usullardan hamda murakkab aparaturalardan foydalanishni talab qiladi. Shuning uchun so’ngi yillarda yarim o’tkazgichlarning parametrlarini o’lchash usullari yarim o’tkazgich fizikasi va texnikasi bo’limlari bilan bir qatorda rivojlanib mustaqil bo’lib qolmoqda.

Yarimo‘tkazgichlar elektronikasining muvaffaqiyatlari yarimo‘tkazgichli materiallar texnologiyasi yutuqlari bilan bog‘langan. Ananaviy hamda yangi yarimo‘tkazgichli materiallarni o‘zlashtiribsifatini keskin yaxshilash yangidan – yangi diskret yarimo‘tkazgichli asboblar va katta, o‘ta katta, o‘ta tezkor integral mikrosxemalarni yaratishga olib keladi. Natijada mikroelektron qurilmalarni miniatyurizatsiyalash darajasini yetarli darajada oshirish bilan yangi optoelektron

ISSN 3030-3907

va o‘ta yuqori chastotali asboblar yaratilishiga olib keladi. Elektron texnikada keng o‘lchamdagi murakkab masalalar yarimo‘tkazgichli materiallarni yangilarini yaratishni talab qilib qo‘ymoqda.

Polikristal qatlamlar amaliy qo‘llanishida quymalarga nisbatan samarali hisoblanadi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan kremniy plikristal qatlamlardan integral sxemalarning tarkibiy qismlari – rezistorlar, diodlar, maydoniy va qo‘shqutubli tranzistorlar tayyorlashda foydalaniladi.

Yerda ishlatiladigan arzon Quyosh batareyalari yaratish uchun polikristal qatlamlardan foydalanilmoqda. Polikristal pardalar arzon tagliklar (kvarts, shisha, gafit, alund, molibden va h.k) asosida olinib, yetarlicha samarali Quyosh batareyalarini tayyorlash uchun ishlatiladi. Ularning foydali ish koeffitsenti 12% - 155 tartibida bo‘ladi.

Hozirga kunda polikristal kremniyning keng qo‘llanilishi eng muhimi Yer yuzida Quyosh energiyasidan to‘la foydalanish borasida izlanishlar bu materialni olish texnologiyasini yanada arzonlashtirish va elektrofizik xossalarini yaxshilash masalalarini yanada aktuallashtirib yubordi. Shu maqsadda polikristal kremniy olishni kukunli texnaligiya asosida yangi texnalogiyasini ishlab chiqish ustida izlanishlar boshlangan va davom etmoqda. Yarimo‘tkazgichlar elektronikasining muvaffaqiyatlari yarimo‘tkazgichli materiallar texnologiyasi yutuqlari bilan bog‘langan. Ananaviy hamda yangi yarimo‘tkazgichli materiallarni o‘zlashtiribsifatini keskin yaxshilash yangidan – yangi diskret yarimo‘tkazgichli asboblar va katta, o‘ta katta, o‘ta tezkor integral mikrosxemalarni yaratishga olib keladi. Natijada mikroelektron qurilmalarnim iniatyurizatsiyalash darajasini etarli darajada oshirish bilan yangi optoelektron va o‘ta yuqori chastotali asboblar yaratilishiga olib keladi. Elektron texnikada keng o‘lchamdagi murakkab masalalar yarimo‘tkazgichli materiallarni yangilarini yaratishni talab qilib qo‘ymoqda.

Yarim o’tkazgichli namunani solishtirma qarshiliguni uning to’la qarshiligi bo’yicha aniqlashda solishtirma qarshilik ρ ni namunaning to’la qarshiligi bo’yicha topishda tayoqcha (sterjen) korinishidagi namunani ko’ndalang kesimlariga metal kontakt olish usulidan foydalaniladi. [25.53.75]

Hozirgi zamon elektronikasi birinchi nomerli materiali kremniy bo‘lib qolmoqda. Kremniy poli va monokristali ananaviy usullar; zonali eritish va Chaxral usullarida olinmoqda. Integral mikrosxemalar yaratishda monokristall quyma diametri katta ahamiyatga ega bo‘lib, hozirga kunda Chaxral usulda olingan kremniy monokristall quyma diametri 150 – 200 mm, uzunligi esa 1000 mm ga etadi. Elektron texnikada chetroepitakonal strukturalarini olish mikroelektronikada va optoelektron qurilmalarda katta ahamiyatga ega bo‘lishi

ISSN 3030-3907

kutilmoqda. Hozirga kuda aniq bo‘ldiki, ko‘pqatlamli epitaksial strukturalar asosida murakkab elektron qurilmalar yaratish mumkin. Biroq bunday qurilmalarni yaratish uchun har bir qatlam strukturasini takomillashganiga, elektrofizik xossasiga va keskin p – n – o‘tishlarni olinishiga, epitaksial chetrogegara maydonlariga va boshqalarga katta talablar qo‘yadi. Bu erda shuni aytib o‘tish kerakki, o‘ta yupqa ko‘p qatlami epitanenel qatlamlarni yaratish yangi asboblar va ananaviy elektron qurilmalarning xarakteristikalarini keskin yaxshilash mumkin. Buning uchun juda yuqori sifatli materiallar yaratish va atom sathida ularni xossasini boshqarish usullarini ishlab chiqarish kerak.

1. Yarim o’tkazgich materialning solishtirma qarshiligi harorat oshishi bilan (0K dan) eksponensial qonun bilan kamayadi. Masalan, kremniyning harorati T=100°K dan 300°K ga oshaganda , uning solishtirma qarshiligi qiymati 10^{24} Om*sm dan $2*10^{5}$ Om*sm gacha, ya’ni 10^{18} karra kamayadi. Shu oraliqda eng yaxshi metall oltinni solishtirma qarshilagi bor yo’g’i 17% ortadi. Demak, yarim o’tkazgichlarni elekrt xossalarini harorat yordamida juda katta oraliqda boshqarish mumkin bo’ladi. Bu yarim o’tkazgichlarga xos juda noyob xossadir.

2. Yarim o’tkazgich materiallarning solishtima qarshiligi kirishma atomlarga o’ta sezgir bo’ladi. Misol uchun oltinga 30% mis yoki InGa moddasi qo’shilsa, uning solishtirma qarshiligi 3% gagina o’zgaradi xalos. Su holda xususiy 1kg Si ga 0,001 mg ya’ni Si dagi atomlar sonidan 10^{9} marta kam bo’lgan B, P yoki Sb ni qo’shadigan bo’lsak, uning solishtirma qarshiligi 10^{3} marta oshadi. Demak, xona haroratida Si ning solishtirma qarshiligi faqat krishma atomlar konsentratsiyasi $10^{11} \div 10^{19}$ sm^{-3} ga oshirish hisobiga uning solishtirma qarshiligi $\rho \approx 10^{5}$ Om*sm dan $\rho \approx 10^{-3}$ Om*sm ga o’zgartirish mumkin. Xulosa qilsak, yarim o’tkazgichlarga kirishma elementlari kritilganda ularning xususiyatlarining keskin o’zgarish ham ularning noyob xossaga ega ekanligidan dalolat brradi.

Yuqorida keltirganlarimizdan suni aytish joyizki, bu o’ta noyob xossalari bilan yarim o’tkazgichlar hozirga zamon elektronikasi, mikroelektronikasi va nanoelektronikasining asosi hisoblanadi. Yarim o’tkazgichlar fizikasi va yarim o’tkazgichli elektronika masalalari yoritilgan kitoiblar soni ko’p, lekin bu qo’llanmalarda yarim o’tkazgichlarning parametrlarini o’lchash va yarim o’tkazgich materiallarni tekshirish usullariga e’tibor kam qaratilgan. Oxirga chop etilayotgan yarim o’tkazgichlar , ularni parametrlarini o’rganishga oid qo’llanmalarda masalaning bu jixatiga e’tibor qaratila boshlangan. Bu esa shu soxada ilmiy ishlar qilayotgan yosh olimlarga bir qator engilliklar paydo bo’lishiga olib kelmoqda.[122.210]

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Teshboyev, S.Zaynobiddinov, Sh. Ermatov. “Qattiq jismlar fizikasi”. Tashketn, “Moliya nashriyoti”, 2001 yil, 324 b.
2. Zaynobiddinov S, Teshaboev A. ”Yarim o’tkazgichlar fizikasi” Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun qo’llanma. Tashkent, “O’qituvchi” nashriyoti, 1999 y, 224 b
3. Zaynobiddinov S, Akramov X. “Yarim o’tkazgichlar parametrlarini o’lchash usullari”, Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. Tashkent, “O’zbekistan” 2001 y, 320 b.
4. A.Teshboyev, S.Zaynobiddinov, E. Musaev. “Yarim o’tkazgichlar va yarim o’tkazgichli asboblar texnologiyasi”,O’quv qo’llanma, “O’AJBNT” Markazi 2005, 392 b
6. M.K.Boxodirxonov, N.F.Zikirillayev, X.M.Iliyev. ”Yarim o’tkazgichlar fizikasi”, Tashkent, 2016 y, 312 b
7. A.S.Xoliqov. “Yorug‘likni o‘rganamiz” Mashinasozlik ilmiy – texnika jurnali. №1(Maxsus son). http://www.andmiedu.uz , 1092-1097-betlar.
8. A.S.Xoliqov.Международные научный журнал. “POLIKRISTALL KREMNIY OLISH VA UNING ELEKTROFIZIK XOSSALARI”, №19(100), часть 1, 01.03.2024г, 352-359- betlar.
9. A.S.Xoliqov. “Polikristallarni Quyosh elektronikasida qo‘llanilishi”, 23-24-fevral, “Farg‘ona vodisida havfsiz harakatlanishni ta‘minlash: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy –amaliy konferensiya, II-qism. 967-971-betlar.
10. S.Z.Zaynabidinov, X.Akramov. “Yarimo‘tkazgichlar parametrlarini aniqlash usullari”. Toshkent. <<O‘zbekiston>>, 2001y.
11. A.Teshboyev, S.Zaynobiddinov, E. Musayev, “Yarim o’tkazgichlar va yarim o’tkazgichli asboblar texnologiyasi”, O’quv qo’llanma, “O’AJBNT” markazi,
12. 2005 yil 392 – bet.
11. V.I.Fistul‘, “ Физика и химия твердого тела ”, Maskva, <<Metallurgiya>> 1995 y.
12. A.P.Yegorov, B.B.Pel‘ts. “ Современное состояние и проблеми получения кремния для фотоэлектрических преобразователей наземного рпименения ”
13. Электроника, 1983y, №7б ,17-bet.
14. S.Z.Zaynabidinov, R.Aliyev, B.Avchiboyev, X.Mansurov, “ Способ зготовления кремниевых платин для солнечных элементов ” Заявка на патент №20030030 от 15.01.2003.

ISSN 3030-3907

15. R.Aliyev, S.Z.Zaynabidinov, “ Применение поликристаллического кремния в полупроводниковой микроэлектронике и солнечной энергетике ” , Geliotexnika, 1998. №2, 75-81-betlar.

ISSN 3030-3907

UDK 677.021.152.8

TOSH TUTGICH USKUNASINING KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TOZALASH SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Gadayev Nuriddin Erdashevich
Jizzax politexnika instituti “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d., PhD
E-mail: nuriddingadaev89@gmail.com
Sharopov Bobir Nabijon o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrasi assistenti
E-mail: sharopovbobir1@gmail.com
Rustamova Gulhayo Orifjon qizi
Jizzax politexnika instituti “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrasi magistri
E-mail: grustamova913@gmail.com

Annotatsiya. Begona og‘ir aralashmalar chigitli paxtani saqlash bilan bir qatorda qayta ishlash jarayonida ko‘pgina salbiy muammolar keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarish jarayoniga uzatilayotgan chigitli paxta tarkibidagi og‘ir aralashmalarni keyingi texnologik jarayonga o‘tib ketishi natijasida tozalash mashinalarining ishchi organlariga urilishi natijasida yong‘in chiqish xavfi yoki jin va linter arralarining shikastlanishiga olib keladi. Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan tosh tutgich uskunasining konstruksiyasini takomillashtirish orqali og’ir aralashmalardan tozalash samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologik va konstruktiv yechimlar berilgan.

Kalit so’zlar. Paxta, og’ir ifloslik, tola, tozalash, tosh, rezina, baraban, cho’ntak.

Аннотация. Тяжелые примеси вызывают множество негативных проблем при переработке семян хлопчатника, а также при хранении. Тяжелые примеси в семенах хлопка, передаваемых в производственный процесс, могут переноситься в следующий технологический процесс и попадать на рабочие органы очистительных машин, вызывая опасность возгорания или повреждения волокноотделительных и льноочистительных пил. В данной статье представлен анализ воздействия устройств очистки мелких примесей, используемых в хлопкоочистительных машинах, и предложенной конструкции ворсового оборудования новой конструкции на хлопок и исследование движения хлопка в нем.

Ключевые слова. Хлопка сыра, мелкий сор, корткий волокна, очистит, пух, колок, барабан, питательный, песочное площадь.

ISSN 3030-3907

Annotation. Heavy impurities cause many negative problems during cotton seed processing and storage. Heavy impurities in cotton seeds transferred to the production process can be transferred to the next technological process and get onto the working parts of cleaning machines, causing the risk of fire or damage to the fiber separation and flax cleaning saws. In this article, analysis of the effects of small impurity cleaning devices and the proposed new design pile equipment on cotton and the study of cotton movement in cotton gins are presented.

Keywords. Cotton, small impurities, short fiber, cleaning, fluff, stick, drum, feeder, mesh surface.

Kirish

Jahon tajribasida paxta xom ashyosiga ishlov berish jarayonini, texnika va texnologiyasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, paxta xom ashyosini havo transportida tashish jarayonining samaradorligini oshirish, tola va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash va jarayonlarning energiya sarfini kamaytirish, uskunalariningixcham, sodda, kam material va energiya sarflaydigan konstruksiyalarini, zamonaviy, avtomatlashgan, maxsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarini yaratish, shuningdek yaratilgan ilg‘or texnika va maxsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish mazkur sohani rivojlantirishning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Respublikamizning paxta tozalash korxonalarida joylashgan g‘aramlardagi paxtani ishlab chiqarish bo‘limlarga yetkazib berishda mehnat hamda energiya sarfini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish, ularni amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» ko‘rsatilgan «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 marotabaga oshirish» [1] bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifani paxta sanoatida bajarishda paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonlarini, xususan, paxtani pnevmotransport tizimida shikast yetkazmasdan tashish jarayoni samaradorligini oshirish, pnevmoquvurlarni germetikligini ta’minlash orqali energiya sarfini kamaytirish, pnevmoquvur materialini o‘ziga xos xossaga ega bo‘lgan materialga o‘zgartirish va parametrlarini asoslash muhim masalalardan hisoblanadi.

Paxta xomashyosi tarkibidan og‘ir aralashmalarni samarali ajratib olish jarayonini takomillashtirish muammosi juda muhimligiga qaramasdan, hozirgi paytgacha yetarlicha samaradorlikka ega bo‘lgan begona jismlarni tutivchi hamda tola va chigitning tabiiy xusussiyatlarini saqlab qoluvchi uskunalar ishlab

ISSN 3030-3907

chiqarilmagan. Shuning uchun, paxtani qayta ishlash texnologik zanjiriga og‘ir aralashmalarni tutib qoluvchi past samaradorlikka ega bo‘lgan bir necha qurilmalar qo‘yilib, ular tola va chigitning nuqsondor bo‘lishiga sababchi bo‘lmoqda, ishlab chiqarish unumdorligi va havo yordamida tashuvchi qurilma harakat radiusini kamaytirmoqda.

Toshtutgich konstruksiyalarida mavjud bo‘lgan asosiy kamchiliklar, tola va chigitni nuqsondor bo‘lishiga hamda uning geometrik va texnologik o‘lchamlari xomashyo tarkibidan og‘ir aralashmalarni to‘la tutib qolish imkonini bermayapti.


ADABIYOTLAR TAHLILI. Ma’lumki dala maydonlarida yetishtirilgan chigitli paxtani terish va bir joydan ikkinchi joyga tashish jarayonida uning tarkibiga turli xildagi begona jismlar qo‘p miqdorda qo‘shilib ketishi kuzatiladi. Shuning uchun paxta tozalash korxonalariga va paxta tayyorlov maskanlariga keltirilgan chigitli paxtaning tarkibida og‘ir aralashmalar va begona qattiq jismlar (tosh, qum, kesak, metall parchasi, va boshqa jismlar) ning ko‘p uchraydi. Ushbu begona og‘ir aralashmalar chigitli paxtani saqlash bilan bir qatorda qayta ishlash jarayonida ko‘pgina salbiy muammolar keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarish jarayoniga uzatilayotgan chigitli paxta tarkibidagi og‘ir aralashmalarni keyingi texnologik jarayonga o‘tib ketishi natijasida tozalash mashinalarining ishchi organlariga urilishi natijasida yong‘in chiqish xavfi yoki jin va linter arralarining shikastlanishiga olib keladi. Natijada arralarning ishlash muddati kamayib, korxonaning iqtisodiy qismiga salbiy zarar yetkazadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi paxta xom ashyosi tarkibidagi og‘ir aralashmalarni ajratish jarayonida paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qoluvchi toshtutgich qurilmasida, shu davrgacha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining talilini o‘tkazish va yangi samarador toshtutgich qurilmasini yaratish. Bu masalani amaliy va nazariy tomondan asoslab, ishlab chiqarish sharoitida sinov o‘tkazishdan iborat.

Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida keng qo‘llanilib kelinayotgan toshtutgich uskunalaridan 2CHTL markali chiziqli toshtutgich bo‘lib, kirish quvuri 1, ajratish kamerasi 2, yuk tushurish kamerasi 3, plastinin klapan 4 va chiqish quvuri 5 dan iborat. Uning sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).

Paxta bilan aralashib kelgan og‘ir qo‘shilmalar quvur (1) orqali ajratish kamerasi (2) ga keladi. Bu yerda og‘ir aralashmalar toshtutgichning qo‘zg‘almas devoriga urilganda tezligining yo‘qolishi, havo o‘tkazgichning ko‘ndalang kesim yuzasini birdaniga kengayishi hisobiga ularning ajralishi sodir bo‘ladi. Og‘ir aralashmalar yuk tushirish kamerasi (3) ga tushadi va moslamadan plastininning zaslonkasi (4) ochilganda chiqarib yuboriladi. Paxta esa chiqarish quvuri 5 orqali toshtutgichdan chiqariladi va navbatdagi tashish tizimiga yo‘naltiriladi. 2CHTL markali chiziqli toshtutgichning tutib qolish samaradorligi 60-70% ga yetadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. 2CHTL markali toshtutgich.
1-kirish quvuri, 2-ishchi kamera, 3-cho‘ntak, 4- klapan, 5- chiqish quvuri.

Ushbu qo‘llanilib kelinayotgan toshtutgichlarning asosiy kamchiliklari paxtaning toshtutgich ishchi kamerasida yetarli darajada titilmasligi va og‘ir aralashmalarni ajratish unumdorligining pastligidadir.

Paxtadan og‘ir aralashmalarni ajratib olish jarayonini takomillashtirish muammosi juda muhimligiga qaramasdan, hozirgi paytgacha yetarlicha samaradorlikka ega bo‘lgan uskunalar yaratilmagan. Shuning uchun paxtani qayta ishlash texnologik zanjiriga og‘ir aralashmalarni tutib qoluvchi past samaradorlikka ega bo‘lgan bir necha qurilmalar qo‘yilgan bo‘lib, ishlab chiqarish unumdorligi hamda tashish jarayonining harakat radiusini kamaytirmoqda va paxtaning sifat darjasini pasayishiga olib kelmoqda [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mavjud chiziqli toshtutgichlarning ishchi kamerasi ko‘p xollarda silindrik yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘ladi. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi ishchi kamerali toshtutgichlar ko‘proq uchraydi.

Kamera kengligi og‘ir aralashmalarni tutib qolish jarayonida ishlanayotgan materialni normal holatda harakatlanishini ta’minlaydi [3].

Kamera kengligi yetarlicha katta, material qatlami unga qaraganda kichik bo‘lsa, og‘ir aralashmalarni tutib qolish uchun yaxshi sharoit tug‘iladi va bu aralashmalar cho‘ntakda tosh to‘plagichga tushishi osonlashadi.


Toshtutgich kamerasi kichik bo‘lganda ishlanayotgan material qalinligi katta bo‘ladi va og‘ir aralashmalarning (ayniqsa, mayda jismlar) paxta tarkibidan ajralishi qiyinlashadi. Bu holatda paxta bilan og‘ir jismlarning birligi mukammalroq bo‘ladi [4].

Shunday qilib, qatlam qanchalik kichik bo‘lsa, paxta tarkibidan og‘ir jismlarni ajratish jarayoni shunchalik unumli bo‘ladi, deb xulosa qilish mumkin. Paxtadan og‘ir jismlarni tutib qolish jarayoni unumdorligini oshirish maqsadida

ISSN 3030-3907

ajratish kamerasi ko‘ndalang kesimi yuzasini 0,25 m^2 (2CHTL va LKS toshtutgichlarida) havo tezligi kamerada 12,5 m/s va 16 m/s qilib olish tavsiya etilgan. Toshtutgichning unumli va ishonchli ishlashi uchun ishchi kameraning shaklini va o‘lchamlarini aniqlash maqsadida eksperimental tadqiqot o‘tkazish zarurati vujudga keldi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Eksperimental tadqiqot uchun toshtutgich ishchi kamerasining 3 xil turi tanlab olindi. Bu kameralar bir-biridan cho‘ntaklar joylashishi va ular orasidagi oraliqlarning geometrik shakli, bundan tashqari tutib qolish jarayoni, asosan ishlatilishi, markazdan qochma kuch va inersiya kuchlari bilan farq qiladi. Bu hollar paxta va og‘ir jismlarning fizik-mexanik va aerodinamik xususiyatlari kabi tashish rejimi va ishchi kameralarining o‘lchamlariga bog‘liq bo‘ladi [5,6]. Shularni inobatga olgan holda yangi konstruksiyadagi takomillashtirilgan toshtutgich qurilmasi ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Yangi konstruksiyadagi toshtugich sxemasi.
1-kirish quvuri; 2-ishchi kamera; 3- elastik qoplamali qoziqchali baraban; 4-qavariq shaklidagi to‘rli yuza; 5-bo‘ylama cho‘ntak; 6-tosh to‘plagich; 7-chiqish quvuri.

Taklif etilayotgan toshtutgich qurilmasida yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida toshtutgich qurilmasi takomillashtirilib rezina parrakli baraban va qavariqli yunaltirgich o‘rnatilishi hisobiga paxta xomashyosi tarkibidan begona jismlarni ajratib oladi, tola hamda chigitning tabiiy xususiyatlarini saqlab qoladi. Shu bilan bir qatorda toshtutgich qurilmasining ishchi kamerasidan paxta xomashyosi tarkibidagi og‘ir aralashmalarning tashqariga uzluksiz ravishda chiqib ketishini ta’minlovchi moslama yaratilgan.

ISSN 3030-3907

Yangi taklif etilayotgan toshtutgich qurilmasining vazifasi paxta tozalash korxonalarida xomashyoga dastlabki ishlov berish texnologik jarayonida pnevmotransportda to‘p-to‘p bo‘lib xarakatlanayotgan paxta xom ashyosi tarkibidan og‘ir va mayda aralashmalarni samarali ajratish, zarba kuchini kamaytirib chigit shikastlanishini oldini olish va og‘ir+mayda aralashmalar bilan cho‘ntakga tushgan paxta bo‘lakchalarini ajratib olishdan iborat.

Paxta tozalash korxonalarida qo‘llanib kelinayotgan toshtutgichlardan farqli toshtutgichning kirish quvuriga elastik qoplamali qoziqchali baraban hamda titilgan paxta ishchi kamera elastik asosiga o‘rnatilgan qavariq shaklidagi to‘rli yuza yordamida tarkibidagi mayda og‘irliklarni ajratib olish va paxtani tabiiy holatini saqlash maqsadida kirish quvuri qarshisida elastik asosga to‘rli yuza o‘rnatilgan. Natijada to‘p-to‘p bo‘lib ishchi kameraga kirib kelgan paxta titilib og‘ir va mayda aralashmalarni to‘liq ajratish va o‘z navbatida tola hamda paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qoladi. Cho‘ntakga tushgan og‘ir aralashmalar esa uzluksiz tarzda tashqariga chiqib ketadi.

Bu elastik asosga o‘rnatilgan to‘rli yuzaning teshiklar oval shaklida qilib tanlanganligi paxta xomashyosi tarkibidagi mayda og‘irliklardan ma’lum miqdorda tozalandi. Cho‘ntak qismiga o‘rnatilgan plastinkalar prujina yordamida birin ketin ochilib paxta tarkibidan ajralgan og‘ir aralashmalar uzluksiz tarzda tashqariga chiqib ketadi.

Elastik qoplamali qoziqchali baraban hamda to‘rli yuza joylashtirilishi tola hamda chigitning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolishni yangicha usulda bo‘lishini taьminlaydi. Bu toshtutgichning yana bir afzallik tomoni shundaki, u ishlaganda elektr energiya talab qilmaydi, bunda elastik qoplamali qoziqchali baraban o‘z inersiyasi bilan xarakatlanadi.

Takomilashtirilgan toshtutgich qurilmasining samaradorligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida paxtaning og‘irligi tozalanganligi, chigitni shikastlanishi kamayganligi, paxta tarkibidan og‘ir aralashmalarni 90-95 % gacha ajratib olinganligi hamda cho‘ntak moslamasidan mayda va og‘ir aralashmalar uzluksiz ravishda tashqariga chiqganligi kuzatildi. Paxta tarkibidagi og‘ir aralashmalarni fraksiyalar bo‘yicha ajratib olingan natijalar (1-jadval) da ko‘rsatilgan.

1-jadval

Paxta tarkibidagi og‘ir aralashmalarni fraksiyalar bo‘yicha ajratib olingan natijalar

№	Tajribadagi toshlarning o‘lchami (mm)	Tajribadagi toshlarning soni (dona)	Toshtutgichda tutibkolingan toshlar soni	Foiz i %

ISSN 3030-3907

			(dona)	
1	5-10	10	8	80
2	15-20	10	9	90
3	25-30	10	9	93
4	35-40	10	8	84
5	45-50	10	9	93
6	55-65	10	10	100
7	70-80	10	9	97

XULOSA VA TAKLIFLAR. Paxta xomashyosi tarkibidan mayda+og‘ir aralashmalarni ajratish jarayoni samaradorligini oshirish, tola va chigitning shikastlanishini kamaytirish hamda cho‘ntakdan og‘ir aralashmalarni uzluksiz tarzda chiqarib yuborish maqsadida toshtutgich qurilmasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Respublika va xorijiy mamlakatlar ilmiy tadqiqotchilari tomonidan toshtutgich va uning asosiy elementlarini takomillashtirish maqsadida o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili mavjud toshtutgichlarning bir qator kamchiliklarni aniqlash va toshtutgichda mayda+og‘ir aralashmalardan samarali tozalash va tola va chigitga ko‘rsatiladigan zarba kuchlarini kamaytirish bo‘yicha tadqiqot olib borish zarurligini ko‘rsatdi.

2. Toshtutgich qurilmasining ishchi kamerasida paxta xom ashyosini titib berish maqsadida o‘rnatiladigan elastik qoplamali qoziqchali baraban joylashishi joyni aniqlash maqsadida og‘ir aralashmalarni tutib qoladigan moslamalarning konstruksiyalarini o‘rganildi.

3. Toshtutgich qurilmasi ishchi kamerasida paxta xomashyosini titish moslamasi paxtani mayda +og‘ir aralashmalardan oson ajratib olishjarayoni ko‘rib chiqildi.

4. Toshtutgich qurilmasi ishchi kamerasida harakatlanayotgan paxta va og‘ir aralashmalarning harakatini nazariy yo‘l bilan o‘rganish natijasida olingan differensial tenglamalar tahlili asosida paxta bo‘lakchalarining harakat trayektoriyasi aniqlandi va uning elastik asosiga o‘rnatilgan to‘rli yuzaga urilish maydoni va zarba kuchlari aniqlandi hamda zarba kuchini kamaytirish uchun zarbani qabul qiluvchi rezina qoplama o‘rnatish tavsiya etildi.

5. Toshtutgich qurilmasi elastik asosga o‘rnatilgan to‘rli yuza orqali paxta bo‘lakchasining harakatini o‘rganish natijasida paxtani mayda og‘irliklardan qo‘shimcha tozalash imkoniyati mavjudligi aniqlandi va toshtutgich ishchi kamerasiga qavariq shaklidagi to‘rli yuza o‘rnatish orqali mayda og‘irliklardan tozalashga asoslangan texnologiya ishlab chiqildi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-sonli Farmoni.
2. Muradov R. Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasidagi tashish jarayonining samaradorligini oshirish asoslari. Texn. fan. dokt. dissertatsiyasi. Toshkent-2004, 289 b.
3. R. Muradov, F. Raximov, X. Qosimov. Toshtutgich konstruksiyasini takomillashtirish. TTESI «Fan, ta’lim, ishlabchiqarish integratsiyalashuvi sharoitida paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish innovasion texnologiyalari dolzarb muammolari va ularning yechimi» mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy anjumani. 2019y. 1-qism. 32-36 betlar.
4. N.Gadayev, I.Abbazov, R.Muradov, R.Kaldibayev. “Analysis of devices containing heavy impurities in the composition of cotton ” mavzusida International Conference of industrial technologies and engineering (ICITE-2020). 262-265 b.
5. F.Rahimov, N.Gadayev, S.Nishanov, X.Qosimov, R.Muradov. Inproving the efficiency of the stone catcher. Innovative devolopments and research in education CANADA “International scientific-online conference” 2023 year 23 march 212-215 b.
6. N.Gadayev, R.Kaldibayev, G.Kaldibayeva Release of heavy imputies from raw cotton “Eurasian education, science and innovation journal” Proceedings of the XIII International Scientific practical conference “Innovative solutions to scientific problems” XIII ISPC ISS 2022, 28-29 November 16-23 b.

ISSN 3030-3907

SHAXTA SHAMOLLATISH VENTILYATOR QURILMALARINING ELEKTR YURITMASINI ISH REJIMINI AVTOMATLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI

Xamzayev Akbar Abdalimovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxtalarda is gazini so‘ruvchi ventilyator qurilmasini avtomatik boshqarish tizimini yaratish va joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Ventilyatorni ishga tushirish va o‘chirish jarayoni shaxtadagi havo tarkibi va ventilyatsiyaga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda avtomatik tarzda amalga oshirilishi ta’kidlangan. Bunda turli datchiklar va nazorat qurilmalari orqali monitoring olib borilib, tegishli boshqaruv signallari qabul qilinadi. Shuningdek, ventilyatorning ish parametrlari – havo bosimi va harorati kabi ko‘rsatkichlar doimiy nazoratda bo‘lib, zarurat tug‘ilganda uning ishlash holati avtomatik ravishda o‘zgartiriladi. Elektr energiyasini tejash maqsadida ventilyatorning aylanish tezligini avtomatik boshqarish imkoniyati ko‘zda tutilgan. Butun tizim mikrokontroller yoki programmalashtiriladigan logik kontroller (PLK) orqali avtomatlashtiriladi. Shaxta is gazini so‘ruvchi ventilyator qurilmalarini ish rejimini avtomatlashtirish chora tadbirlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ventilyator, elektr yuritma,datchiklar, is gazi, avtomatlashtirish.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы создания и внедрения системы автоматического управления вентиляторным устройством для всасывания угарного газа в шахтах. Отмечается, что процесс пуска и отключения вентилятора осуществляется автоматически, исходя из состава воздуха в шахте и потребности в вентиляции. При этом мониторинг осуществляется с помощью различных датчиков и контрольных устройств, и принимаются соответствующие управляющие сигналы. Кроме того, такие показатели, как рабочие параметры вентилятора - давление и температура воздуха - находятся под постоянным контролем, и при необходимости его рабочее состояние автоматически изменяется. Для экономии электроэнергии предусмотрена возможность автоматического регулирования скорости вращения вентилятора. Вся система автоматизируется с помощью микроконтроллера или программируемого логического контроллера (ПЛК). Описаны меры по автоматизации режима работы шахтных вентиляторных установок для отсасывания угарного газа.

Ключевые слова: вентилятор, электропривод, датчики, угарный газ, автоматизация.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article examines the issues of creating and implementing an automatic control system for a ventilation device for exhaust gases in mines. It is noted that the process of starting and turning off the fan is carried out automatically, depending on the composition of the air in the mine and the need for ventilation. In this case, monitoring is carried out through various sensors and control devices, and the corresponding control signals are received. Also, the operating parameters of the fan - such indicators as air pressure and temperature - are constantly monitored, and if necessary, its operating state is automatically changed. In order to save electricity, the possibility of automatic control of the fan speed is provided. The entire system is automated using a microcontroller or programmable logic controller (PLC). Measures for automating the exhaust mode of mine exhaust ventilation units are indicated.

Keywords: fan, electric drive, sensors, carbon monoxide, automation.

Kirish

Hozirgi kunda sanoatning barcha sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va energiya resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, elektr yuritmalarni avtomatlashtirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi. Ayniqsa, elektr yuritmalarni chastota o‘zgartirgich yordamida boshqarish orqali energiya iste’molini 30–60% gacha kamaytirish mumkin. Foydali qazilmalarni yer osti usuli bilan qazib olishda kon lahimlari eng kamida ikkita tik yoki qiya stvollar bilan yer sathi (atmosfera)ga tutashgan bo‘ladi.

Bu stvollarning biridan shaxtaga toza havo kiradi. U kon lahimlarini shamollatib ikkinchi stvoldan atmosferaga chiqib ketadi.

Havo harakatda bo‘ladigan muhit ya’ni shaxta stvoli, yer osti lahimlari va ventilyator qurilmaning havo yo‘laklari shamollatish shaxobcha yoki qurilmaning tashqi tarmog‘i deb atalgan.

Tashqi tarmoqda havo harakati shaxtaga kirish va chiqish tomonlardagi bosimlar farqi hisobiga paydo bo‘ladi. Bosimlar farqi tabiiy yoki sun’iy, ya’ni ventilyator qurilma yordamida paydo bo‘ladi. Tabiiy holda bosimlar farqi kirish va chiqish tomonlardagi havoning harorati va ular oralig‘idagi tik balandlikka bog‘liq bo‘lib u quyidagi ifoda bilan topiladi:

$$P_T = g \cdot Z \cdot (\rho_a - \rho) \qquad (1)$$

bu yerda: ρ_a, ρ - atmosfera sharoitidagi va shaxtadan chiqadigan kon havosi zichliklari, kg/m^3; Z- kirish va chiqish oralig‘idagi tik balandlik, m.

Ma’lumki harorat past bo‘lgan muhitdagi havo zichligi harorat yuqori bo‘lgan muhitdagi havo zichligidan yuqori bo‘ladi. Shuning uchun yilning sovuq kunlarida tabiiy havo harakati atmosferadan shaxtaga qarab yo‘nalgan bo‘ladi. U


ISSN 3030-3907

ventilyator qurilma ishini yaxshilaydi. Aks hollarda (shaxtadan chiqadigan havoning harorati atmosfera haroratidan past bo‘lgan) havo harakati shaxtadan atmosfera tomonga yo‘nalgan bo‘ladi. Bu hollarda tabiiy havo oqimi ventilyator qurilma ishini qiyinlashtiradi. Chunki ventilyator zo‘riqmasining bir qismi tabiiy havo harakatini yengishga sarflanadi.

Ventilyator qurilma kon havosini shaxtadan so‘rib olish yoki toza havoni shaxtaga haydash rejimida ishlay oladi.

Qurilma kon havosini shaxtadan so‘rib olish rejimida ishlatilganda uning oldi tomonidagi bosim atmosfera bosimidan kichik bo‘ladi. Shuning uchun toza havo oqimi stvol-1 va stvol atrofi qo‘rasi orqali shaxtaga kiradi (1-rasm). Toza havo oqimi yer ostida konning ikki tomoniga bo‘linadi, har tomonga bo‘lingan havo oqimi chap-2 va o‘ng-3 tomonlardagi kavjoyni shamollatib, shamollatish lahim-4 va stvol-5 hamda ventilyator qurilma 6-orqali atmosferaga chiqib ketadi.

Atmosfera-P_a va ventilyator qurilmaning oldi tomonida bosimlar ayirmasi, ya’ni P_a-P_e shamollatish shaxobchaning depressiyasi deb ataladi. Uni maxsus o‘lchov asbobi depressiometr 7–yordamida o‘lchash mumkin. Depressiometrdagi suyuqlik sathlarining ayirmasi h bosimlar ayirmasi R_a-P_v teng.



1-rasm. Konlarda havo oqimi harakati

Ventilyator qurilmalarda, shaxtaga havo kiradigan va undan chiqadigan tomonlar oralig‘idagi tik masofa ya’ni geodezik balandlik kam bo‘lganligi sababli u ventilyator qurilma ishiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun qurilmaning tashqi tarmoq xarakteristikasini ifodalovchi tenglama quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

$$\Delta P = R \cdot Q^2 \qquad (2)$$

bu yerda: R- shamollatish shaxobchasining aerodinamik qarshiligi: Uhar bir lahim uchun quyidagi ifoda bilan hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

$$R_i = \alpha_i \cdot \frac{П_i \cdot L_i}{S_i^3} \cdot Q_i^2 \qquad (3)$$

bu yerda: α_i - aerodinamik qarshilik koeffitsienti; $П_i$ - lahimning ko‘ndalang kesim perimetri, m; - lahim uzunligi,m; - ko‘ndalang kesim yuzasi,m2; Shamollatish xarakteristikasining aerodinamik qarshiligi-R ketma-ket yoki parallel ulangan lahimlarning qarshiliklari yig‘indisiga teng.

Konchilik korxonalarining shaxta va karyerlarida shamollatish hamda is gazi ajralib chiqqanda so‘ruvchi ventilyatorlar keng qo‘llaniladi. Shaxta shamollatish ventilyatorlarning ish rejimini yuritma aylanish tezligini o‘zgartirish usuli bilan moslashtirilmaydigan ventilyator qurilmalarda asinxron yoki sinxron elektr yuritmalar qo‘llaniladi.

Ulardan qaysi birini tanlab olish ventilyatorning iste’mol quvvatiga bog‘liq. Iste’mol quvvat 150-200 kVt.gacha bo‘lgan qurilmalarda past kuchlanishli (kuchlanish 380V) qisqa tutashgan rotorli asinxron, 150-350kVt.gacha bo‘lgan hollarda esa past kuchlanishli sinxron va 350 kVt.dan yuqori bo‘lganda kuchlanishi 6000 V, quvvati 400-1000 kVt bo‘lgan СД, СДС va СДВ rusumli sinxron elektr yuritmalar qo‘llaniladi.


ВЦД-47 “Север” rusumli ventilyator faqat aylanish tezligi o‘zgartiriladigan asinxron elektr yuritmali mashina ventilli kaskad tizimidagi yuritma bilan jihozlangan ventilyatorlarning ish rejimi rotorni aylanish tezligini o‘zgartirish usuli bilan amalga oshiriladi.

Ventilyator qurilmasining ish holati quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi: havo bosimi va uning hajmi; elektr yuritgich va ventilyator rotorlari podshinniklarining harorati; elektr yuritgich chulg‘ami va moylash tizimidagi moyning haroratlari; moyning bosimi va uning miqdori.

Bu ko‘rsatkichlar doimiy ravishda o‘lchab boriladi. Ularni o‘lchash uchun qo‘llaniladigan o‘lchov asboblarining joylashishi 1.-rasmda ko‘rsatilgan[4].

Bu rasmda: 1-podshipniklar haroratini nazorat qilish asboblari, 2-elektr yuritma chulg‘amini nazorat qilish datchigi, 3-moylash tizimidagi moyning haroratini nazorat qilish datchigi, 4-va 5-havo bosimini va uning miqdorini o‘lchovchi datchigi, 6-moyning bosimini nazorat qilish datchigi, 7-podshinniklardan chiqadigan moy miqdorini nazorat qilish datchigi, 8-havo yo‘naltiruvchi va to‘g‘rilovchi apparatlar parraklarning holatini ko‘rsatish datchigi, 9-tormozlash tizimi holatini ko‘rsatish datchigi; A-ventilyator, B-tormozlash tizimi, V-elektr yuritgich, G-moy idishi, D-moylash tizimi nasoslari.

ISSN 3030-3907




2-rasm.Ventilyator qurilma ishini nazorat qilish qurilmalarining joylashish sxemasi

Shaxtalar kon havosini so‘rib olish usulida shamollatilganda (3-rasm) havo oqimi harakatini aerogidromexanikaning asosiy qonunlaridan biri bo‘lgan Bernulli tenglamasi asosida o‘rganib chiqamiz.

Ma’lumki ventilyator ish g‘ildiragi orqali havo oqimiga uzatilgan energiya, ya’ni ventilyator zo‘riqmasi, chiqish (III-III) va kirish (II-II) kesimlardagi havoning to‘liq nisbiy energiyalari ayirmasiga teng. Ya’ni:

$$P_в = P_{III} - P_{II};$$

Bu yerda: P_{II}, P_{III} – mos ravishda kirish (II-II) va chiqish (III-III) kesimlardagi havoning to‘liq nisbiy energiyalari.



3-rasm.Ventilyator qurilmani ishlash usuli,kon havosini shaxtadan so‘rib olish; toza havoni shaxtaga xaydash

ISSN 3030-3907

Xulosa

Kon shaxtalarini samarali va xavfsiz shamollatish maqsadida ventilyator qurilmalarining ishlash rejimi va parametrlarini avtomatlashtirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqotda shaxta ventilyatorlarini avtomatik boshqarishga doir talablar, texnik yechimlar hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar atroflicha yoritildi. Xususan, ishni avtomatlashtirishda mikrokontroller va PLK tizimlari, havo parametrlarini monitoring qiluvchi datchiklar, uzluksiz yozuvchi depressiometrlar va diagnostika usullarining joriy etilishi tahlil etildi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali ventilyatorlarning ishlash samaradorligi oshirilib, elektr energiyasini tejash, texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligini yuksaltirish va xavfsizlik darajasini ta’minlash imkoni yaratiladi. Shu bilan birga, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarning nazorat qilinishi va ekologik talablarga muvofiq harakat etilishi ta’minlanadi. Ventilyatsiya tizimini boshqa muhandislik tizimlari bilan integratsiya qilish, real vaqtda monitoring qilish va profilaktik diagnostika kabi funksiyalar esa shaxtadagi ish jarayonlarini muvozanatlashtirish va optimallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хамзаев А.А. Иссиқлик электр станциясининг хусусий эҳтиёж агрегатларини асинхрон юритмасини ишга туширилишини микропроцессор ёрдамида бошқариш. Автореф.дисс. Тошкент.2021.С.49
2. Б.С.Лезнов. Энергосбережение и регулируемый привод в насосных и воздуходувных установок.Москва Энергоавтомиздат. 2006.Ст.337.
3. В.Н. Бизенков. Стационарные машины, расчет вентиляторных установок шахт. Учебное пособие. Кемерово 2005.Ст. 62.
4. Sadikov Abdurauf, Baratov Baxtiyor. Turg‘un mashinalar. Toshkent 2013. 284b.
5. Khamzaev Akbar, Mikhail Sadovnikov, Buri Toshov, Bakhriddin Rakhmatov, Umidjon Abdurakhmanov. SPIE 12986, Third International Scientific and Practical Symposium on Materials Science and Technology (MST-III 2023), 129860R (19 January 2024)

ISSN 3030-3907

ОЦЕНКА НАДЁЖНОСТИ ВОЛОКОННО-ОПТИЧЕСКИХ СИСТЕМ ПЕРЕДАЧИ ИНФОРМАЦИИ

Жураева Нафиса Иноятовна

Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

E-mail: juraeva.0878@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются методы аналитической оценки надёжности волоконно-оптических систем передачи информации (ВОСПИ) с учётом особенностей восстановления и резервирования элементов. Показано, что использование преобразования Лапласа–Стилтьеса позволяет формализовать вероятность безотказной работы системы при наличии восстановления элементов. Особое внимание уделено моделированию деградации элементов и асимптотическому анализу надёжности с учётом различий в законах распределения отказов аппаратных и программных элементов. Представлен графический анализ, демонстрирующий эффективность предложенного подхода в сравнении с системами, не имеющими резервирования.

Ключевые слова: волоконно-оптические системы передачи информации, преобразование Лапласа–Стилтьеса, законы распределения отказов.

Abstract. The article considers methods of analytical assessment of reliability of fiber-optic data transmission systems taking into account features of restoration and redundancy of elements. It is shown that the use of the Laplace–Stieltjes transform allows one to formalize the probability of failure-free operation of the system in the presence of restoration of elements. Particular attention paid to modeling the degradation of elements and asymptotic analysis of reliability taking into account differences in the laws of failure distribution of hardware and software elements. Graphical analysis presented demonstrating the effectiveness of the proposed approach in comparison with systems that do not have redundancy.

Keywords: fiber-optic data transmission systems, Laplace–Stieltjes transform, laws of failure distribution.

Annotatsiya. Maqolada tolali-optik ma’lumot uzatish tizimlari ishonchliligini analitik baholash usullari, xususan, elementlarning tiklanish va zaxiralanish xususiyatlari hisobga olingan holda ko‘rib chiqiladi. Laplas–Stiltjes almashtirishidan foydalanish orqali qayta tiklanishi mavjud bo‘lgan elementlar tizimining rad etmasdan ishlash ehtimolini ifodalash mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Elementlarning degradatsiyasini modellashtirishga va apparat va dasturiy elementlarning nosozliklarni taqsimlash qonuniyatlaridagi farqlarni hisobga olgan holda asimptotik ishonchlilik tahliliga alohida e’tibor beriladi. Taklif etilgan

ISSN 3030-3907

yondashuvning samaradorligi zaxiralanmagan tizimlar bilan taqqoslanib, grafik tahlillar orqali ko‘rsatigan.

Kalit so‘zlar: tolali-optik ma’lumotlar uzatish tizimlari, Laplas–Stiltjes almashtiishi, rad etishlar taqsimoti qonunlari.

Введение

Волоконно-оптические системы передачи информации (ВОСПИ) являются основным элементом телекоммуникационной инфраструктуры, обеспечивая высокоскоростную и надёжную передачу данных на большие расстояния. Высокие требования к отказоустойчивости таких систем обусловлены необходимостью обеспечения непрерывности информационного обмена.

Надёжность ВОСПИ определяется комплексом факторов, в частности характеристики аппаратных и программных компонентов, схемы резервирования, а также способность системы к восстановлению после отказов. В реальных условиях компоненты системы могут подчиняться различным законам распределения времени отказов и восстановления, что требует применения более универсальных и точных аналитических методов моделирования.

Одним из таких методов является преобразование Лапласа–Стилтьеса, позволяющее учитывать дискретные, непрерывные и смешанные функции распределения, а также проводить асимптотический анализ надёжности систем с восстановительными процессами. Преобразование Лапласа–Стиелтьеса применимо для проведения асимптотического анализа надёжности в ВОСПИ, где отказ одного элемента может зависеть от того, успеет ли восстановиться другой, и где требуется учитывать совместные вероятности состояний.

Метод исследования.

ВОСПИ представляет собой совокупность компонентов и устройств, предназначенных для преобразования, передачи и приёма оптических сигналов, задачей которой является обеспечение надежной и высокоскоростной передачи данных на дальние расстояния [1,2].(рис.1)

Для повышения точности оценки надёжности ВОСПИ с резервируемыми и восстанавливаемыми компонентами целесообразно рассматривать аналитические методы, позволяющие учитывать как восстановление элементов, так и эффект деградации при многократных отказах, в частности для элементов таких как волоконно-оптическая линия связи и усилитель. Один из таких методов предложен в работе [3], в которой предлагается аналитическая модель для системы с двумя компонентами и

ISSN 3030-3907

холодным резервом, в которой после каждого отказа система переходит в состояние восстановления. Особенностью модели является учёт процесса деградации, при котором с каждым последующим отказом среднее время восстановления увеличивается.




Рис 1. Схема волоконно- оптической системы передачи информации. TRx – Трансивер, ОВ – Оптическое волокно

ВОСПИ, как высоконадёжные системы, включают резервирование и возможность восстановления элементов. В таких случаях важна оценка вероятности того, что один элемент не выйдет из строя до восстановления другого. Эта вероятность выражается как [4]:

$$p = P\{\xi > \gamma\} = \int_0^{\infty} e^{-\lambda x} d\Phi(x) = \Phi^*(\lambda) \qquad (1)$$

где λ — интенсивность отказов работающего элемента, Φ(x) — функция распределения времени восстановления, $\Phi^*(\lambda)$ — преобразование Лапласа–Стиелтьеса от распределения времени восстановления, показывающее вероятность, что один элемент не выйдет из строя во время восстановления другого, ξ - время отказа резервного элемента системы, γ - время восстановления основного элемента, $P\{\xi > \gamma\}$ - вероятность того, что резервный элемент не откажет, пока не восстановится основной элемент.

Закономерности изменения надёжности во времени моделей надёжности аппаратных и программных элементов волоконно-оптических систем передачи информации эффективно описываются с использованием вероятностных распределений. Применение рассмотренных моделей позволяет количественно оценивать надёжность элементов ВОСПИ с учётом различий в характере отказов, в частности, постоянной интенсивности для электронных компонентов и возрастающей интенсивности отказов.

В последовательных системах все компоненты должны быть в исправном состоянии для функционирования системы, а её надёжность выражается как [5]:

ISSN 3030-3907

$$P_{сис}(t) = \prod_{i=1}^{m} P_i(t) \qquad (2)$$

где $P_i(t)$ - надежности компонентов.

Отказ компонентов аппаратного обеспечения ВОСПИ, таких как, трансивер, усилитель, лазер и программного обеспечения, например, системы управления, системы мониторинга могут подчиняться разным законам распределения. Общая надёжность системы на основе формулы (2) будет иметь следующий вид [6]:

$$P_{\text{сис}}(t) = P_{\text{тр}}(t) \cdot P_{\text{кс}}(t) \cdot P_{\text{ус}}(t) \cdot P_{\text{ПО}}(t). \qquad (3)$$

где $P_{\text{тр}}(t)$ - вероятность безотказной работы трансивера, $P_{\text{кс}}(t)$ - вероятность безотказной работы канала связи, $P_{\text{ус}}(t)$ - вероятность безотказной работы усилителя, $P_{\text{ПО}}(t)$ - вероятность безотказной работы программного обеспечения.

Произведение индивидуальных функций плотности вероятности для различных компонентов системы используется для построения совместной плотности вероятности при условии, что компоненты независимы друг от друга [7,8]. В ВОСПИ различные компоненты аппаратного и программного обеспечения рассматриваются как независимые. Это означает, что вероятность того, что определенные события произойдут одновременно в различных компонентах системы, равна произведению вероятностей этих событий в каждом отдельном компоненте.

Суммирование индивидуальных функций плотности вероятности для создания совместной плотности вероятности не является корректным подходом для независимых случайных величин так как сумма функций плотности вероятности не отражает свойства совместной вероятности независимых случайных величин. Суммирование приводит к неверному результату, который не соответствует законам вероятности.

Результаты и обсуждение.

Для оценки надёжности ВОСПИ важно учитывать не только вероятность отказов, но и возможность восстановления элементов системы, что важно для систем с постоянным резервированием, где отказ основного элемента компенсируется резервируемым. Надёжность системы в этом случае определяется с учётом вероятности безотказной работы резервного элемента до завершения восстановления основного элемента (или заменой если элемент невосстанавливаемый). В таких условиях применимо

ISSN 3030-3907

преобразование Лапласа–Стиелтьеса и формулу общей надёжности системы (3) можно написать в следующем виде [4,5]:

$$P_{\text{сис}}(t) = \prod_{i \in A} P_i(t) \cdot \prod_{j \in R} \Phi_j^*(\lambda_j) \qquad (4)$$

где А – элементы без резервирования, R- элементы с резервированием, $\Phi_j^*\left(\lambda_j\right)$ - преобразование Лапласа-Стилтьеса от функции распределения восстановления $\Phi_j(t)$, рассчитывающее вероятность того, что восстановление элемента j завершится до отказа другого элемента с интенсивность отказов λ_i

Предположим, что линия связи и усилитель резервированы, в этом случае формулу (2) с учётом (4) можно написать в следующем виде:

$$P_{\text{сис}}(t) = P_{\text{тр}}(t) \cdot \Phi_{\text{кс}}^*(\lambda_{\text{кс}}) \cdot \Phi_{\text{ус}}^*\left(\lambda_{\text{ус}}\right)(t) \cdot P_{\text{ПО}}(t). \qquad (5)$$

При частичном резервировании, когда некоторые элементы системы могут быть восстановлены до отказа резерва, вероятность безотказной работы системы представляется как произведение надёжностей невосстанавливаемых компонентов и вероятностей успешного восстановления, выраженных через преобразование Лапласа–Стилтьеса [4,9]:

$$\Phi^*(\lambda) = \int_0^\infty e^{-\lambda t} d\Phi(t) \qquad (6)$$

При вычислении этого интеграла (или приближении), можно использовать численное значение, либо аппроксимацию через:

В результате полная вероятность безотказной работы системы принимает вид:

$$P_{\text{сис}}(t) = P_{\text{тр}}(t) \cdot P_{\text{ПО}}(t) \cdot \left[\int_0^\infty e^{-\lambda_{\text{кс}} t} d\Phi_{\text{кс}}(t)\right] \cdot \left[\int_0^\infty e^{-\lambda_{\text{ус}} t} d\Phi_{\text{ус}}(t)\right] \qquad (7)$$

Особенность полученной формулы заключается в том, что она позволяет учитывать восстановление элементов системы. В отличие от моделей, предполагающих только невосстанавливаемые элементы, здесь применяется преобразование Лапласа–Стилтьеса, которое используется в качестве математической основы для вычисления вероятности того, что основной элемент будет успешно восстановлен до наступления отказа резервного элемента. Это делает модель более реалистичной и адаптированной к условиям эксплуатации системы с частичным резервированием.

ISSN 3030-3907

Для наглядного сравнения эффективности данной модели проведён графический анализ, где сопоставлены результаты, полученные на основе базовой формулы (2) и выражения (7) с учётом восстановительных процессов (рис.2).




Рис. 2. Сравнение моделей надёжности ВОСПИ с учётом преобразования Лапласа–Стиелтьеса

График (рис.2) показывает, что внедрение восстановительных процессов приводит к значительному увеличению общей вероятности безотказной работы системы, особенно на более длительных временных интервалах. Это подтверждает эффективность предложенного математического подхода и демонстрирует его практическую применимость при проектировании высоконадёжных телекоммуникационных систем.

Таким образом, включение преобразования Лапласа–Стиелтьеса в модель надёжности позволяет не только учитывать возможность восстановления компонентов, но и адаптировать расчёты под реальные условия эксплуатации, что особенно важно для проектирования надёжных волоконно-оптических систем передачи информации.

Заключение.

Проведённый графический анализ подтвердил, что включение восстановительных процессов в расчёт существенно увеличивает надёжность системы по сравнению с моделями, не учитывающими такие процессы. Это открывает возможности для более точного проектирования систем, ориентированных на высокую отказоустойчивость, и разработки эффективных алгоритмов прогнозирования и минимизации отказов.

ISSN 3030-3907

Разработанная модель позволяет более точно оценивать надёжность систем с частичным резервированием, в которых важна вероятность успешного завершения восстановления до отказа резервного элемента.

Полученные результаты могут быть использованы в построении телекоммуникационных систем, а также как база для дальнейших исследований в области надёжности сложных технических систем с переменной интенсивностью отказов и восстановлений.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Rongqing Hui. Introduction to Fiber-Optic Communications, Academic Press, 2020,Pages 621-635, https://doi.org/10.1016/B978-0-12-805345-4.09993-5
2. Alan E. Willner. Optical Fiber Telecommunications VII. 2020 Elsevier Inc.1094
3. Laplace–Stieltjes transform of the system mean lifetime via geometric process model Gökdere & Gürcan, 2016
4. Trivedi, Kishor. (2016). Probability & Statistics with Reliability, Queuing, and Computer Science Applications. 10.1109/TR.1982.5221442.
5. Hamid Bazargan_Harandi Reliabilty Engineering. Theory and Practice. January 2023. P 477.
6. Dilmurod Davronbekov, Nafisa Juraeva. Evaluation of the Reliability of Fiber-Optic Information Transmission Systems Based on the Laws of Failure Distribution. International Journal of Innovative Research in Engineering and Management (IJIREM) Volume-12, Issue-2, April 2025 Pages 30-35. https://doi.org/10.55524/ijirem.2025.12.2.5
7. Д.Давронбеков. Надёжность радиотехнических систем. Ташкент.-Тафаккур томчилари.2021.-192 с.
8. Половко А.М., Гуров С.В. Основы теории надежности. – 2-е изд., перераб. и доп. – СПб.: БХВ-Петербург, 2006. – 704 с.34-37
9. Черкесов Г.Н. Надежность аппаратно-программных комплексов: Учебное пособие / Черкесов Г.Н. – СПб.: Питер, 2005. – 479 с

ISSN 3030-3907

TEXNOLOGIYANI TAKOMILLASHTIRISH

Muxamedova Z.R.
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti
O‘zbekiston, Buxoro sh. A. Navoiy kochasi 1
Email: muxamedova.zarifa@bsmi.uz
https://orcid.org/0009-0003-4274-9394
Tel: +998 (65) 223-00-50

Annotatsiya: Maqolada har xil turdagi separatorlarda don aralashmalarini ajratish xususiyatlari tasvirlangan. Donni qayta ishlash sanoatida raqamlashtirish ommaviy xizmatlarni ajratish tizimlarining matematik modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. Don massasining fizik xususiyatlarini tahlil qilish algoritmlari ishlab chiqilgan. Bug'doyni qayta ishlash mahsulotlarini o'rganish kompyuter ko'rish usullari va dasturiy vositalar tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy neyron tarmoqlardan foydalangan holda maydalangan don tahliliga asoslangan. Geometrik xossalari bo'yicha donni maydalash zarralarining ishlab chiqilgan tasnifi bug'doy sifatining texnologik xususiyatlarini, xususan, uning don qattiqligi indeksini yuqori aniqlik bilan (baholash xatosi 3,7% dan ko'p emas) bashorat qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: don, bug'doy, donni qayta ishlash.

Аннотация: В статье рассмотрены особенности разделения зерновых смесей в различных типах сепараторов. Цифровизация в зерноперерабатывающей отрасли позволяет разрабатывать математические модели систем массового обслуживания и разделения. Разработаны алгоритмы для анализа физических свойств зерновой массы. Исследование продуктов переработки пшеницы основано на анализе измельченного зерна с использованием искусственных нейронных сетей, разработанных методами компьютерного зрения и программными средствами. Разработанная классификация частиц дробления зерна по геометрическим свойствам позволяет с высокой точностью (погрешность оценки не более 3,7%) прогнозировать технологические характеристики качества пшеницы, в частности показатель ее твердозерности.

Ключевые слова: зерно, пшеница, переработка зерна.

Annotation: THe article describes the features of the separation of grain mixtures in different types of separators. In the grain processing industry, digitization makes it possible to develop mathematical models of mass service separation systems. Algorithms for analyzing the physical properties of the grain mass have been developed. The study of wheat processing products is based on crushed grain analysis using artificial neural networks developed by computer vision methods and software tools. The developed classification of grain grinding particles by their

ISSN 3030-3907

geometric properties makes it possible to predict the technological characteristics of Wheat Quality, in particular, its grain hardness index with high accuracy (evaluation error not more than 3.7%).

Keywords: grain, wheat, grain processing.

Kirish

Tadqiqot maqolasiMaqolada don aralashmalarini har xil turdagi separatorlarda ajratish xususiyatlari tasvirlangan. Donni qayta ishlash sanoatini raqamlashtirish navbat tizimlarini ajratishning matematik modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi tadqiqotda don massasining fizik xususiyatlarini tahlil qilish algoritmlari keltirilgan. Bug'doyni qayta ishlash mahsulotlarini o'rganish kompyuter ko'rish usullari va sun'iy neyron tarmoqlari yordamida maydalangan donni tahlil qilishga asoslangan. Geometrik xususiyatlarga asoslangan don maydalagich zarralarining shakllangan tasnifi bug'doy sifatining texnologik xususiyatlarini, xususan, donning qattiqligini (baholash xatosi 3,7% dan ko'p emas) yuqori aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beradi.Evropa Ittifoqi mamlakatlarida don ekinlarining yilning ob-havo sharoitlariga bog'liqligi yuqori. Shunday qilib, Buyuk Britaniyada 2020 yilda 9,65 million tonna yig'ildi [1]. Bu 2019-yilga nisbatan 40,5 foizga kam, bu 2019-yilning ho‘l kuzidan so‘ng dehqonlar tomonidan kuzgi bug‘doy ekishning qisqargani bilan izohlanadi. Shuningdek, bug‘doy hosilining pastligi keyingi qurg‘oqchil bahor tufayli ham og‘irlashdi. 2020 yilda Rossiyada bug'doy hosili taxminan 88 million tonnani tashkil etdi. Yaqin besh yilda rossiyalik fermerlar bug‘doyning yangi navlarini joriy etish va ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish hisobiga ekin maydonlarini 40 foizga kengaytiradi. Bu qattiq bug‘doy yetishtirishni yiliga 2 million tonnagacha oshirish imkonini beradi [2]. Qattiq bug'doy ishlab chiqarishni rag'batlantirish federal darajada subsidiyalar bilan qo'llab-quvvatlanadi - bunday don etishtirish uchun subsidiyalar ajratish bo'yicha tegishli nizom loyihasi tayyorlandi [3].

Bug'doy donini ajratish uchun uskunalarning ish rejimini tanlashni raqamlashtirish dolzarbdir. Donni qayta ishlash samaradorligini oshirishning muhim jihati ajratish jarayonining modellarini ishlab chiqishdir [4].

Axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy ishlanmalar don massasining fizik xususiyatlarini tahlil qilish algoritmlarini ishlab chiqish orqali donni qayta ishlash uchun mavjud axborot va o'lchov tizimlarini modernizatsiya qilish va yangilarini ishlab chiqish imkonini beradi [5].

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotda Buxoro viloyatidan bug'doyning 14 navi ishtirok etdi, ularning tabiiy og'irligi 720 g dan 850 g gacha, namlik 12,5% dan 14,7% gacha va shishasimonligi 45% dan 100% gacha.

ISSN 3030-3907

Silliqlash xususiyatlari. Donni maydalash namunalarini olish uchun laboratoriya tegirmonida donni sinovdan o'tkazish amalga oshirildi. Har bir namunadan 10 kg don maydalangan. Silliqlash yuqori oqimni tanlash bilan beshta silliqlash tizimi yordamida amalga oshirildi [6], [7], [8].

Tegirmonlangan zarrachalarning fraktografik tahlili laboratoriya qurilmasi (SonyIMX raqamli kamerasi, RaspberryPi4 mini-kompyuteri) yordamida zarrachalar tasvirlarini OpenCV texnik ko‘rish kutubxonalari va Deeplearning4 sun’iy neyron tarmog‘i kutubxonalari yordamida yaratilgan dasturiy ta’minot yordamida tahlil qilish uchun o‘tkazildi [9].

Natijalar va muhokama. Seperatorda don aralashmalarini ajratish natijasi ikki turdagi baxtsiz hodisalar bilan belgilanadi. Birinchisi (massa) yuqori konsentratsiyadagi zarrachalarning ajratuvchi organda o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi, ba'zi zarralar boshqalarni ajratishdan to'siqsiz o'tishga to'sqinlik qiladi. Ikkinchisi (individual) massa tasodifiyligi yo'qligida, don oqimining juda past konsentratsiyasida bitta zarrachalar ajratilganda aniqlanadi. Ushbu holatda ajratish natijasi ham oldindan noma'lum, chunki separatordagi donning yo'nalishi tasodifiy [10], [11], [12]. Ushbu yondashuv doirasida, ehtimollik ajratish natijasi tabiiy ravishda ikkala komponentning ta'sirini hisobga oladi.

Ommaviy xizmatlarni ajratish tizimlarining modellarini yaratishda quyidagilar zarur:

- ishchi elementni ajratish tizimlarining kanallari (qurilmalari) vazifasini bajaradigan ajratuvchi elementlarning parallel-ketma-ket tizimi sifatida tasavvur qiling (trier hujayralari, elak teshiklari, havo kanalining elementar hajmlari va boshqalar);

- seperatorning texnologik xususiyatlari, xususan, unumdorligi orqali kirish va chiqish don oqimlarining intensivligini ifodalash;

- ishchi organning elementlarida don zarralari (so'rovlari) ga xizmat ko'rsatish (ajratish) intizomini aniqlash: ketma-ketlik, ishonchlilik darajasi, sabr-toqat, ustuvorlik va boshqalar;

- ishchi elementning mumkin bo'lgan holatlarini tavsiflash (xizmat ko'rsatilmagan donalar mavjud emas; bitta don; ikkita; uchta va boshqalar) [13].

Shu tarzda aniqlangan model ommaviy xizmat nazariyasi uchun standart usullardan foydalangan holda ajratish tizimining ehtimollik xususiyatlarini hisoblash uchun tenglamalarni olish imkonini beradi [14].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ajralish natijasi tabiiy ravishda ajratish jarayonining tasodifiyligining individual va ommaviy tarkibiy qismlariga bog'liq. Shu bilan birga, u ikkita ajratuvchi guruh mavjudligini bashorat qiladi, ulardan biri bitta zarracha bilan ajratish imkoniyatini beradi, ikkinchisi esa yo'q. Birinchi

ISSN 3030-3907

guruhga ma'lum turdagi separatorlarning ko'pchiligi (havo, ekran, elektr, magnit, optik va boshqalar) kiradi va ikkinchi guruhga faqat ajratilgan zarrachalarga qaraganda biroz kattaroq ekran ochilish o'lchamlari bilan ajralib turadigan disk ajratgich va yuqori zichlikdagi ekran modullari kiradi. Bundan tashqari, u don oqimining o'ziga xos yuki va tezligiga, hosildorlikka va hokazolarga ajratish sifatining ma'lum tajriba bog'liqliklarini aniq aks ettiradi [15].

Ajratuvchi tizimning holatini uning mahsuldorligi nolga moyil bo'lganda o'rganish kerak, bu fizik jihatdan bitta zarrachalarning ajralishini ifodalaydi va shuning uchun ma'lum bo'lgan separatorlarning klassik modellaridan, ya'ni dinamikaning ma'lum tenglamalaridan boshqa narsa bo'lmagan bunday modellardan foydalanishni talab qiladi. Bunday tenglamalarning tabiati harakatning dastlabki shartlari, don zarralarining fizik xususiyatlari va ajratuvchi organning ish rejimlari bilan belgilanadi. Etarli hisoblash quvvati bilan har qanday rejimda har xil turdagi separatorlar uchun juda past mahsuldorlikda don aralashmalarining turli komponentlarini chiqarish ehtimolini hisoblash mumkin. Shunday qilib, modellashtirishga taklif etilayotgan yondashuv har qanday ish rejimlarida, shu jumladan unumdorlikda har xil turdagi separatorlar uchun talab qilinadigan sifat ko'rsatkichlarini (qorishma tarkibiy qismlarining hosildorligi va fraksiyalardagi tarkibi) amalda hisoblash (prognoz qilish) imkonini berdi.

Alohida ajratgichlar modellari asosida donni tozalash texnologik liniyalarida aralashmalarni ajratish sifatini bashorat qilish va quyidagi optimallashtirish muammolarini hal qilish mumkin bo'ldi:

- har bir separatorning belgilangan ish rejimlarida qattiq texnologik liniya (separatorlar soni, ularning turi va o'rnatish ketma-ketligi ma'lum) bo'yicha don partiyasini (aralashma komponentlarining tarkibi va tarkibi ma'lum) tozalash; model bu aralashmaning GOST talablariga javob berish uchun tozalanishi va qanday hosil bo'lishiga javob beradi;

- qattiq texnologik chiziqda GOST talablariga javob beradigan don partiyasini tozalash; model ushbu liniyadagi barcha separatorlar qanday rejimlarda ishlashi kerakmi yoki yo'qligini aniqlaydi, qaysi fraktsiyalar asosiy va qanday chiqish bo'ladi, asosiy chiziqqa qaraganda qancha ko'p;

- egiluvchan texnologik liniyada GOST talablariga javob beradigan don partiyasini tozalash; Model bunday chiziqdagi ajratgichlarning soni, turi va ketma-ketligini, har bir separatorning asosiy fraktsiyalari va ish rejimlarini, tozalangan donning hosildorligini va asosiy chiziqqa nisbatan ortiqcha miqdorini aniqlaydi.

Donni qayta ishlash sanoatini raqamlashtirish turli fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar asosida don sifatini baholash usullarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, kompyuter ko'rish algoritmlari yordamida donning ifloslanishi va

ISSN 3030-3907

shishasimonligini baholash usullari mavjud. Don tozalash mashinalarining samaradorligini oshirish uchun optik xossalari bo'yicha dondan aralashmalarni ajratish usullari qo'llaniladi - fotosuratlarni ajratish yoki fotosuratlarni tozalash. Fotosuratlarni ajratish uchun don massasini yuqori tezlikda skanerlash va oldindan o'rnatilgan algoritm (farq qiluvchi mezon) bo'yicha tasvirni keyinchalik qayta ishlash qo'llaniladi. Donni hajmi, rangi, shakli va boshqa xususiyatlariga ko'ra saralash mumkin.

Oqimdagi don xomashyosi vibratsiyali oziqlantiruvchilar tufayli bir qatlamda bir tekis taqsimlanadi, bu har bir alohida zarrachaning tasvirini skanerlash imkonini beradi. Zarrachalarni tanlash havo oqimlari yordamida (pnevmatik ejektor tufayli), aralashmalar yoki sifatsiz donni chiqindi idishiga yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Fotosuratlarni ajratishning zamonaviy usullari xom ashyoni alohida va umumiy xususiyatlarning butun majmuasi bo'yicha saralash, eng yaxshi texnologik xususiyatlarga ega mahsulotni olish imkonini beradi.

O'rganilayotgan xom ashyoning sifati haqida qo'shimcha ma'lumotni yorug'lik o'rniga ko'rinadigan yorug'likdan foydalanish orqali olish mumkin.

Unni qayta ishlash sanoati amaliyotida donni tasniflash uchun ko'pincha donning shishasimonligi ko'rsatkichi qo'llaniladi, ammo bu ko'rsatkich turli xil bug'doy navlarining un tegirmon sifatini to'liq tavsiflamaydi (genotipik omil). Shishasimonlikning o'zgaruvchanligi tuproq, iqlim va agrotexnik sharoitlar (fenotipik omil) bilan ham bog'liq. Shuni hisobga olib, izchillikni miqdoriy baholash uchun va donning mustahkamlik xususiyatlarini aniqlash uchun donning qattiqligi indeksidan foydalanish taklif etiladi. Qattiqlik sinovlari yordamida ushbu ko'rsatkichni aniqlashning to'g'ridan-to'g'ri usullari ko'p mehnat talab qiladi va shuning uchun keng amaliyotda amalda qo'llanilmagan.

Tadqiqotda geometrik xususiyatlar asosida donni maydalovchi zarralarni topish va tasniflash uchun kompyuter ko'rish va sun'iy neyron tarmoqlardan foydalanildi. Maydalash zarralari tasvirlarining konturlarining xususiyatlari hisobga olingan.

Xulosa. Donni qayta ishlashning olingan matematik modellari asosida sifatni bashorat qilish qobiliyatini oshirish va donni ajratishni optimallashtirishni ta'minlovchi dasturiy vositalar ishlab chiqilgan. Bug‘doyning mustahkamlik sifatlarini shakllantirish xususiyatlari aniqlanib, donni qayta ishlash sanoatida zamonaviy raqamlashtirish vositalaridan foydalangan holda donning qattiqligini baholash metodikasi ishlab chiqildi.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR

1. Grechixa haqida qisqacha ma'lumot [Elektron manba] / "Apex" MCHJ. - Kirish tartibi: http://ap36.ru/index.php/grechka, erkin. - Ekrandagi sarlavha.
2. Visotskiy, D. Grechixa bozorining zamonaviy holati va asosiy tendentsiyalari: "Ukraina APKning yangi imkoniyatlari: nish madaniyati" 1-xalqaro konferentsiyasida (2012 yil 6-7 dekabr, Kiyev, Ukraina) taqdimotning bosma versiyasi / D. Visotskiy [Elektron manba]. - Kirish tartibi: http://www.apk-inform.eom/ru/exclusive/topic/1012951#.VUG1dtLtlBc, erkin. - Ekrandagi sarlavha.
3. Kaminskiy, V. D. Grechixa kepagi ozuqaviy qo'shimcha sifatida / V. D. Kaminskiy, A. I. Karunskiy, M. B. Babich // Donni saqlash va qayta ishlash. - 2000. - № 5. - B. 26-31.
4. Grechixa kepagidan biologik faol moddalar olish usuli: pat. 2222995 Rossiya Federatsiyasi. № 2001131260/13; e'lon qilindi. 2001 yil 19 noyabr; nashr etilgan. 2004 yil 10 fevral.
5. Pryanik va qandolat mahsulotlari uchun kakao kukuni o'rniga grechixa po'stlog'idan gidrolizat olish usuli: pat. 2545349 Rossiya Federatsiyasi. № 2013154812/10; e'lon qilindi. 2013 yil 10 dekabr; nashr etilgan. 2015 yil 27 mart, Byul. № 9
6. Oshlovchi modda olish usuli: pat. 2103373 Rossiya Federatsiyasi. № 96117052/12; e'lon qilindi. 1996 yil 22 avgust; nashr etilgan. 2008 yil 27 yanvar.
7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari chiqindilaridan bo'yoq olish usuli: ariza 94038111 Rossiya Federatsiyasi. e'lon qilindi. 1994 yil 10 oktabr; nashr etilgan. 1996 yil 10 avgust.
8. Grechixa kepagidan moy olish usuli: pat. 2100426 Rossiya Federatsiyasi. № 96110008/13; e'lon qilindi. 1996 yil 13 may; nashr etilgan. 1997 yil 27 dekabr.
9. O'simlik xom ashyosidan pigment-bo'yoq olish usuli: pat. 2215761 Rossiya Federatsiyasi. № 2000116048/13; e'lon qilindi. 2000 yil 19 iyun; nashr etilgan. 2002 yil 10 iyun.
10. Myagchilov, A. V. FagopyrumsagittatumGilib o'simliklarining flavonoidlari (ekish grechixa) va Serratulacoronata L. (tojli o'roq) (ajratish usullari, moddalarni identifikatsiya qilish, foydalanish istiqbollari): biol. fanlari nomzodi ... dissertatsiyasi: 03.02.14 / A. V. Myagchilov. - Vladivostok, 2015. - 154 b.
11. Shkorina, E. D. Grechixa ishlab chiqarish chiqindilarining tarkibi va kompleks qayta ishlash: kimyo fanlari nomzodi ... dissertatsiyasi: 03.00.16 / E. D. Shkorina. - Vladivostok, 2007. - 157 b.

ISSN 3030-3907

12. Polyolefin kompozitlari / D. Nwabunma, T. Kyu tahriri ostida. - Wiley, 2008. - 603 b.
13. Zini, E. Yashil kompozitlar: umumiy nuqtai / E. Zini, M. Scandola // Polimer kompozitlari. - 2011. - Jild. 32. - B. 1905-1915.
14. 14. Klesov, A. A. Yog'och-polimer kompozitlari / A. A. Klesov. - SPb.: NOT, 2010. - 735 b.
15. Ariza 010889 Rossiya Federatsiyasi. Lignosellyuloz polimer kompozitsion materiallardan buyumlar olish usuli / V. A. Reutov, L. A. Lim, A. M. Zabolotnaya, N. A. Prishchenko; arizachi FGAOU VPO Uzoq Sharq federal universiteti. № 2015106744 2015 yil 26 fevraldan.

ISSN 3030-3907

GURUCH DONI ASOSIDA BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALAR (BFQ) ISHLAB CHIQARISH

Manasova I.S.
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
Email: manasova.izimkul@bsmi.uz
https://orcid.org/0000-0001-8626-0206

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim-tarbiya sohasida pedagogik va innovatsion texnologiyani qo`llash haqida so`z yuritiladi. Uning samaradorligi tahlil qilingan, natijalar va boshqa farqlar ko`rsatilgan holda uning maqsad, vazifalari hamda ta’limdagi yutuqlarini ko`rsatib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, qizil donli tozalanmagan guruch, mexanik-kimyoviy faollashtirish, samaradorlik, sifat.

Аннотация: В статье рассматривается использование педагогических и инновационных технологий в образовании. Проанализирована ее эффективность, сделана попытка продемонстрировать ее цели, задачи и образовательные достижения, показав результаты и другие отличия.

Ключевые слова: Инновационная технология, краснозерный нешлифованный рис, механохимическая активация, эффективность, качество.

Annotation: this article will talk about the application of pedagogical and innovative technology in the field of Education. Its effectiveness has been analyzed, trying to show its goals, objectives and achievements in education with the indication of results and other differences.

Keywords: innovative technology, red grain unpeeled rice, mechanical-chemical activation, efficiency, quality.

Maqsad: Qizil donli tozalanmagan guruch asosida yuqori sifatli BFQ olishning innovatsion texnologiyasini ishlab chiqish.

Kirish

O`zbekiston o`z mustaqilligini qo`lga kiritgan, uni mustaxkamlash yulida chuqur islohotlar olib borilayotgan bir vaqtda, O`zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida»gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda xar tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o`z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, zamonaviy texnologiyani mukammal o`zlashtirgan, xalq manfaati yo`lida bor kuch va saloxiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yosh kasb egalarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy saloxiyatini ro`yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.


ISSN 3030-3907

Umuman ishlab chiqarish jarayonlarida texnologiya - bu fan tomonidan taqdim qilingan algoritmlar, usullar va vositalar tizimi bo`lib, ulardan foydalanish faoliyatning oldindan belgilangan natijalariga olib boradi, berilgan miqdordagi va sifatdagi maxsulot olinishini kafolatlaydi. Hozirgi, zamonaviy ishlab chiqarishning barcha soxalari texnologiyalarga tayanib ish ko`radilar. "Texnologiya"- bu ishlab chiqarishning erishilgan darajasini jamlangan ifodasidir: bu fan yutuqlarini joriy qilishning usuli ham va natijasi hamdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Avvalgi izlanishlarda qizil donli tozalanmagan guruchning yuqori oziqlik qiymati ko'rsatilgan edi. Biroq, uning asosida BFQ olish uchun, avvalo, umumiy don massasidan qizil donli guruchni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish zarur. [1]

Bunday imkoniyat fotoelektron separatorni ishlab chiqish tufayli paydo bo'ldi, uning ishlash printsipi don massasini rangiga qarab ajratishga asoslangan.

Buni hisobga olgan holda, birinchi bosqichda qayta ishlashga yuboriladigan umumiy guruch doni massasidan qizil donli tozalanmagan guruchni ajratib olishning texnologik sxemasi ishlab chiqildi.



1-rasmda umumiy don massasidan tozalanmagan qizil donli guruchni ajratib olishning texnologik sxemasi keltirilgan.

Ishlab chiqilgan sxema bo'yicha amalga oshirilgan texnologiya quyidagi texnologik operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Yorma sifatli shartlarga ega bo'lgan tozalanmagan guruch doni partiyasi guruch donidan kengligi, qalinligi va aerodinamik xususiyatlari bilan farq qiluvchi begona aralashmalarni umumiy don massasidan ajratish uchun ixtisoslashtirilgan havo-elakli separatordan (1-pozitsiya) o'tkaziladi. Jarayon samaradorligini oshirish uchun mahsulotni separatorga

ISSN 3030-3907

berishdan oldin maxsus mexanizm yordamida guruch donlarining uchlaridan tuklar tozalanadi, bu mahsulotning oquvchanligini yaxshilaydi, so'ngra mahsulot ishchi yuzaning kengligi bo'ylab bir xilda taqsimlanadi va havo oqimi bilan puflanadi, bu aralashmalarni samarali olib tashlashga imkon beradi. Keyin don massasi saralash elagiga yuboriladi, undan yirik aralashmalar olib tashlanadi va o'tish joyi orqali mahsulot ekish elagiga tushadi. Ushbu elakdan o'tish joyi orqali mayda aralashmalar ajratiladi va o'tish joyi pnevmatik ajratish kanaliga tushadi, unda engil aralashmalarni ajratishning ikkinchi bosqichi amalga oshiriladi. Tozalangan don massasi keyin magnit separator (4-pozitsiya) va bufer sig'imi (5-pozitsiya) orqali tozalanadi va bufer sig'imi (2-pozitsiya) orqali kombinatorga (3-pozitsiya) tushadi, uning yordamida don massasini mineral aralashmalar, zaif to'lmagan donalardan tozalashning yuqori darajasiga erishiladi, shuningdek, ezilgan donalar fraktsiyalarining bir qismi olib tashlanadi.

Ikki bosqichli ajratishdan so'ng don massasi magnit separator (4-pozitsiya) va bufer sig'imi (5-pozitsiya) orqali po'stlog'ini tozalash moslamasiga (6-pozitsiya) tushadi, u erda guruch doni yuzasidan gul qobiqlari (kepak) olib tashlanadi.

Po'stlog'ini tozalash moslamasidan so'ng don massasi duospiratorga (7-pozitsiya) yuboriladi, unda mahsulot ikki fraktsiyaga ajratiladi: 1-fraksiya - ezilgan butun, ezilgan maydalangan, ezilmagan butun donlar aralashmasi; 2-fraksiya - guruch kepagi. Guruch kepagi texnologik jarayondan olib tashlanadi va mahsulotlar aralashmasi (1-fraksiya) bufer sig'imi (8-pozitsiya) orqali uch fraktsiyaga ajratish uchun paddi-separatorga (9-pozitsiya) tushadi: 1-fraksiya - tozalanmagan guruch; 2-fraksiya - tozalanmagan va tozalangan guruch aralashmasi; 3-fraksiya - tozalangan guruch.

Fotoelektron separatorning ishlash rejimi shunday sozlangan-ki, tozalangan guruchda deyarli qizil donli guruch bo'lmasligi kerak, shuning uchun qizil donli va oddiy guruch aralashmasi bufer sig'imi (12-pozitsiya) orqali qayta fotoelektron separatsiyaga (13-pozitsiya) yuboriladi, u erda asosiy seksiyalarda (o.) qizil donli guruchdan oddiy qobiqli donalar olib tashlanadi, so'ngra qizil donli guruch undan qolgan mineral aralashmalarni olib tashlash uchun nazorat seksiyasiga (k.) yuboriladi. Fotoelektron separatordan (13-pozitsiya) ajratilgan tozalangan qizil donli guruch oraliq sig'imga (14-pozitsiya) yuboriladi.

Natijalar. Tozalangan qizil donli guruchni biologik faol qo'shimchalar olish uchun xom ashyo sifatida qo'llash maqsadida ishlab chiqilgan texnologik sxema bo'yicha olingan tozalangan qizil donli guruchning sifati va xavfsizligi ko'rsatkichlari o'rganildi.

1 va 2-jadvallarda tozalangan qizil donli guruchning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari keltirilgan.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Qizil donli sholining mag'zining sifat ko'rsatkichlari (Organoleptik)

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich tavsifi
Rangi	Turli intensivlikdagi qizil tusli jigarrang
Ta'mi	Guruch yormasiga xos, begona ta'mlarsiz, nordon emas, achchiq emas
Hidi	Guruch yormasiga xos, begona hidlarsiz, dimog'langan emas, mog'orlangan emas
Tashqi ko'rinishi	Gul qobiqlaridan tozalanmagan, meva va urug' qobig'ini, shuningdek, murtak va aleyron qatlamini saqlab qolgan guruch donlari

1 va 2-jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha qizil donli sholining mag'zi biologik faol qo'shimchalar (BFQ) ishlab chiqarishda qo'llaniladigan o'simlik xom ashyosining sifatiga qo'yiladigan talablarga javob beradi.

2-jadval

Qizil donli sholining mag'zining sifat ko'rsatkichlari (Fizik-kimyoviy)

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich qiymati
Namlikning massa ulushi, %	12,5-13,0
Sifatli yadroning massa ulushi, %, shu jumladan:	99,6-100,0
maydalangan guruch	5,0-7,0
bej rangli guruch donalari	0,5-1,0
Tozalanmagan so'k yadro massasi ulushi, %	Mavjud emas
Tozalanmagan guruch donining massa ulushi, %	Mavjud emas
Aralashmalarning massa ulushi, %, shu jumladan	Mavjud emas
mineral aralashma	Mavjud emas
organik aralashma	Mavjud emas
Buzilgan donlarning massa ulushi, %	Mavjud emas
Muichkaning massa ulushi, %	Mavjud emas
Kislotalilik, grad.	0,15
G'alla zahirasining zararkunandalari bilan zararlanishi va ifloslanishi	Mavjud emas
Metallomagnit aralashmalarning massa ulushi, mg/kg	Mavjud emas

ISSN 3030-3907

Aniqlanishicha, xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha qizil donli sholining mag'zi San Q va M talablariga javob beradi.

Yuqori ozuqaviy qiymatga, shuningdek, saqlanuvchanlikka ega bo'lgan BFQ olish uchun qizil donli sholining mag'zi avval diskli maydalagichda maydalanadi, so'ngra qo'pol maydalangan material mexanik-kimyoviy faollashtirish usuli yordamida qayta ishlanadi.

Ilgari Kuban davlat texnika universiteti (KubDTU) yog'lar texnologiyasi, kosmetika va tovarlar ekspertizasi kafedrasining ishlarida maxsus konstruksiyali vertikal tipdagi rotorli-valikli dezintegratorda (RVD) amalga oshiriladigan mexanik-kimyoviy faollashtirish usulini texnologik xususiyatlarni boshqarish, shuningdek, o'simlik xom ashyosidan olingan BFQning saqlanuvchanligini ta'minlashda yuqori samaradorligi ko'rsatilgan [2].

Buni hisobga olib, rotorli-valikli dezintegratorda mexanik-kimyoviy ishlov berishning texnologik rejimlarining qizil donli sholining mag'zi maydalanish darajasiga, shuningdek, mikrobiologik ko'rsatkichlarga va olinayotgan BFQning saqlanuvchanligiga ta'sir qiluvchi fermentlar - lipaza va lipoksigenazaning faolligiga ta'sirini o'rgandik.

Qizil donli sholining mag'zini maydalashning yuqori darajasini ta'minlaydigan rotorli-valikli dezintegratorning ishchi elementlari kontakt zonasida samarali bosimni aniqlash uchun dezintegratordagi bosim 10 dan 50 MPa gacha bo'lgan oraliqda o'zgarib turgan maxsus tajribalar o'tkazildi.

Dezintegratorning ishchi elementlari kontakt zonasidagi bosimning qizil donli sholining mag'zi maydalanish darajasiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.RVDning ishchi elementlari kontakt zonasidagi bosimning qizil donli sholining mag'zi maydalanish darajasiga ta'siri, keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, granulometrik tarkibi bilan aniqlanadigan (30 mkm dan kam zarrachalar o'lchamiga ega bo'lgan fraktsiyalarning 98% dan ortig'i) qizil donli sholining mag'zi maydalanishning maksimal darajasiga uning dezintegratorda ishchi elementlar kontakt zonasidagi bosim 40 MPa, mexanik-kimyoviy ishlov berish chastotasi - 128 Hz, rotorning aylanish chastotasi - 16 s-1 va harorat 20-25°C da qayta ishlash natijasida erishish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, qayd etilgan ishlov berish rejimlarida maydalangan qizil donli sholining mag'zida BGKP (mahsulotning 0,1 g da), patogen mikroorganizmlar (mahsulotning 25 g da), achitqi va mog'orlar (mahsulotning 1 g da) mavjud emas edi, shuningdek, mezofil aerob va fakul'tativ-anaerob mikroorganizmlar (mahsulotning 1 g da) aniqlanmagan.

Biroq, qayd etilgan haroratda maydalangan materialdagi lipaza va lipoksigenaza faolligi yetarlicha yuqori ekanligi aniqlandi, shuning uchun RVDda

ISSN 3030-3907

qizil donli sholining mag'ziga ishlov berishning samarali harorat rejimlarini aniqlash zarur edi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, dezintegratorda qizil donli sholining mag'ziga ishlov berish harorati 50°C gacha oshirilganda, lipaza va lipoksigenaza faolligi maksimal darajada pasayadi, haroratni keyingi oshirish fermentlarning faolligini pasaytirmaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida BFQ olish bilan RVDda diskli maydalagichda qo'pol maydalangan qizil donli sholining mag'ziga ishlov berishning texnologik rejimlari ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

BFQ olishning texnologik rejimlari

Texnologik rejim	Texnologik rejimning qiymati
RVDda ishlov berish: Harorat, °C,	50 40
Bosim MPa	
mexanik-kimyoviy ishlov berish chastotasi, Hz	128
rotorning aylanish chastotasi, s-	16
Qadoqlash: Iste'mol texnologiyasi	polimer materialdan tayyorlangan 300 g nett massali bankalar
Iste'mol texnologiyasi	qog'oz qoplar 10 kg nett massali

Xulosa

Texnologning texnologiyalarini samarali kullash pedagogning kasbiy kompetentligiga xam boglik. Shu sababli texnologiyalarning samaradorligini texnolog tomonidan ularning kullanilishiga kura xam baxolash mumkin. Bunda kuyidagi mezonlar muxim axamiyatga ega:

- texnologning texnologik madaniyatga egaligi;
- texnologning pedagogik texnologiyalarni kullash borasida tajribaga egaligi;
- texnologlar tomonidan pedagogik texnologiyalarga "ijodiy" uzgarishlar kiritilishi va ularning kayta shakllantirilishi;
- pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga tatbik etishda ukituvchi va talabalar urtasida uzaro xamkorlik negizida muvaffakiyatli vaziyatlarning karor topganligi;
- pedagogik texnologiyalarning tarkibiy kismlari urtasidagi uzaro alokadorlik;
- pedagogik texnologiyalarning talabalar va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashdagi imkoniyatlarga egaligi;

ISSN 3030-3907

- talabalar ukuv-bilish faoliyatining ijobiy axamiyat kasb etishi.

Xulosa kilib aytganda, mamlakatimizda yuz berayotgan tub o`zgarishlar xar bir ishlab chikarish muassasasida texnologiyani soxasini jadallashtirishni talab etadi, yangilikni joriy etish yuli esa xar doim murakkab va uzok jarayon xisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, pedagogik texnologiya va innovatsion texnologiyalar ta'limda yangilik kiritishning asosiy manbai bulib kolmokda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qizil va oddiy sholining mag'zining kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati / A.A. Shazzo [va boshq.] // Oliy o'quv yurtlarining axborotnomasi. Oziq-ovqat texnologiyasi. 2009. №2-3. B. 117-118.

2. Martovshchuk V.I. Mexanik-kimyoviy faollashtirish usuli yordamida modifikatsiyalangan yog'lar va yog'li yarim fabrikatlarni olishning ilmiy-amaliy asoslari: texnika fanlari doktori dissertatsiyasi: 05.18.06. Krasnodar, 2000. 220 b.

3. Agapov I.G. Teoreticheskie osnovы texnologicheskogo obespecheniya razvitiya obщix kompetensiy obuchayuщixsya v shkole: Dis.... dokt. ped. nauk /I.G. Agapov; In-t povыsheniya kvalifikatsii i perepodgot. rabotnikov nar. obrazovaniya Mosk. obl. - M., 2001. - 235 s.

4. Ayvazyan S.A. i dr. Klassifikatsiya mnogomernыx nablyudeniy. - M.: Statistika, 1974. - 240 s.

5. Aynshteyn V.G. Motiviruyuщie faktorы v podgotovke injenerov /V.G.Aynshteyn; Vыsshee obrazovanie v Rossii. - 1998. - 99 s.

6. Aleshina S.A. Samorazvitie lichnosti studenta v obrazovatelnom prostranstve pedagogicheskogo kolledja. - Avtoref. diss. na soiskanika uchenoy stepeni kand. ped. nauk - Orenburg, 2003,- S. 87.

7.Ariza 010892 Rossiya Federatsiyasi. Lignosellyuloz polimer kompozitsion materiali / V. A. Reutov, L. A. Lim, A. M. Zabolotnaya, D. A. Makeich; arizachi FGAOU VPO Uzoq Sharq federal universiteti. № 2015106746 2015 yil 26 fevraldan

ISSN 3030-3907

JUN TOLASI TARKIBIDAGI O‘SIMLIK ARALASHMALARINI TOZALASH USKUNASINING KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Saydullayev Xumoyiddin Shuxratovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
E-mail: humoyiddin6737196@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Respublika va xorijda soxa uchun texnika va texnologiyalar ishlab chiqaruvchi korxonalarni ishlab chiqarayotgan texnikalarini ishlash samaradorligi, kamchiligi va afzalliklarini, zamonaviy kompyuterlashgan, avtomatlalarning tasnifi, tuzilishi va texnologik parametrlarini qiyosiy tahlil qila olish, qadoqlovchi vositalar sifatini yaxshilash bo'yicha texnologik uskunalarni optimal rejimlardan foydalanish.

Kalit so’zlar. Baraban, uskunalar, texnologiya, tasma, prujina, kinematik sxemasi.

Аннотация: В статье рассматривается эффективность, недостатки и преимущества производимой техники предприятий-изготовителей техники и технологий для промышленности в республике и за рубежом, возможность проведения сравнительного анализа классификации, структуры и технологических параметров современных компьютеризированных, автоматизированных, оптимальных режимов использования технологического оборудования для улучшения качества упаковочных материалов.

Ключевые слова. Барабан, оборудование, технология, лента, пружина, кинематическая схема.

Annotation: In the article, the use of optimal modes of technological equipment to improve the quality of packaging equipment, be able to carry out a comparative analysis of the efficiency, disadvantages and advantages of working equipment, classification, structure and technological parameters of modern computerized, Automata, and the production of equipment and technologies for Soha in the Republic and abroad.

Keywords. Drum, equipment, technology, band, spring, kinematic scheme.


Kirish

Jahonda tabiiy jun tolasini fizik mexanik usulda qayta ishlash va qimmatbaho mahsulot olish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida jun tolasini tayyorlashning asosiy qismi Avstraliya, AQSh, Xitoy, Argentina, Eron, Rossiya, Qozog‘iston va Yevropa mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Jundan sifatli tola olishda tarkibidagi mayda va yirik o’simlik aralashmalaridan samarali tozalash orqali qimmatbaho mahsulot ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan rivojlangan davlatlarda junni qayta ishlash va

ISSN 3030-3907

turli materiallar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari qo‘llanilib kelinmoqda. Jun tarmog‘ida ishlab chiqarish hajmini oshirish va xalqaro standartlarga javob beradigan texnologiyalar asosida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jun tolasi asosan 2 xil usulda tozalanadi: mexanik va kimyoviy usullarda. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi jun tolasini qayta ishlash zavodlarida asosan, 2BT rusumidagi titish-tozalash uskunasi ishlatilmoqda (1-rasm). 2BT titish-tozalash uskunasining ishlash prinsipi quyidagicha: yuvilmagan jun tolasini bir xil qalinlikda ta’minlash tasmasi 2 ga tashlaydi. Tasma 0,067-0,133 m/s tezliklarda xarakatlanadi. Ta’minlash valigi 9 (yuqorigi-riflali, pastki-silliq) diametri Ø-125 mm bo‘lib, jun tolasini mahkam siqadi va titish-tozalash kamerasiga uzatadi. Ta’minlash valiklarining siqilishini bir juft prujina 3 bilan hosil qiladi va uning siqish kuchi 1,75 kN ga teng.




1-rasm. 2BT markali titish agregati sxemasi

Yuqori valik jun bo‘laklarini siljishi va rostlanishini ta’minlab, pastki valikka nisbatan tezroq aylanadi. Birinchi baraban 10 12,5 m/s tezlikda, ikkinchi baraban 13 esa 14,3 m/s tezlikda aylanadi. Ta’minlash valigi siqilgan jun bo‘lakchalarini birinchi qoziqchali barabanga uzatadi. Qoziqchali baraban jun bo‘lakchalarini kolosnikli panjara 11 ustidan sudrab o‘tib, ikkinchi barabanga uzatadi. Ikkinchi baraban jun tolasini titib, iflos aralashmalardan tozalaydi. Jun tutamidan ajralgan ifloslik kolosnikli panjara tirqishlaridan ifloslik bunkeri 3 ga tushadi, so‘ngra transportyor yordamida uskuna ostidan chiqarib tashlanadi. Baraban qoziqlari ildirib olgan jun bo‘laklari prizma 15 ga urilishi titish jarayonini jadallashtiradi. Jun tolasini titish va tozalashdan so‘ng barabanning markazdan qochma kuchi tezligini yo‘naltirgich 14 so‘ndiradi va uchib chiqish traektoriyasini o‘zgartiradi. Birinchi barabandan ikkinchisiga o‘tishda jun tutamining ayrim qismlari qo‘zg‘almas qoziq 12 da ushlanib qoladi, qoziq bilan ikkinchi baraban ta’siri natijasida jun qo‘shimcha titiladi. 2BT-150-Sh titish-tozalash uskunasining kinematik sxemasi asosida ish unumdorligi aniqlanadi.

ISSN 3030-3907


Uskunaning ishchi organlarini harakatlantirishda A02-61-8 elektrodvigateldan foydalaniladi, uning aylanish tezligi 750 r/min Ta’minlash valiklarining aylanish tezligi yulduzcha tishlarining soniga bog‘liq bo‘ladi—y_{sm}=14; 16; 19; 22; 25 tish.




2-rasm. 2BT-150Sh titish-tozalash uskunasining kinematik sxemasi.

1- ta’minlash tasmasi; 2 - ostki ta’minlash valigi (silliq); 3 - ustki ta’minlash valigi (riflali); 4 - birinchi qoziqli baraban; 5 - ikkinchi qoziqli baraban.

2BT-150Sh titish-tozalash uskunasidagi valiklarning aylanishlar sonining o‘zgarishi yulduzcha tishlariga bog‘liq bo‘lib u quyidagi 1–jadvalda keltirilgan.





3-rasm. 2BT-150Sh rusumli tozalash jihozini ta’minlash mexanizmi

1-ta’milovchi transportyor; 2-ta’minlash roligi; 3-tekislovchi silindr; 4-prujina.

ISSN 3030-3907

1-jadval


2BT-150Sh rusumli titish-tozalash uskunasidagi valiklarning aylanishlar sonining o‘zgarishi

	Ta’minlash tasmasi		Silliq valik		Riflali valik	
y_{sm}	n, s^{-1}	v, m/s	n, s^{-1}	v, m/s	n, s^{-1}	v, m/s
14	0,42	0,13	0,42	0,17	0,5	0,2
16	0,37	0,11	0,37	0,15	0,45	0,175
19	0,31	0,1	0,31	0,12	0,38	0,15
22	0,27	0,08	0,27	0,11	0,33	0,12
25	0,24	0,075	0,24	0,09	0,29	0,11

Korxonalarda ishlatilayotgan titish-tozalash uskunasining ta’minlash mexanizmi noqulay yasalganligi, bu esa uskunaning ish unumdorligiga, tola sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va iqtisodiy samaradorlikning sezilarli darajada pasayishiga sabab bo‘lishi aniqlandi. Jun tolasini titish-tozalash uskunasining eng asosiy va murakkab konstrutsiyasiga ta’minlash mexanizmlari kiradi. Uskuna uzluksiz bir me’yorda tola bilan ta’minlanishi, energiya va vaqt sarfi to‘g‘ri taqsimlanishi uchun ta’minlovchi mexanizmlarni ahamiyati katta. Titish-tozalash uskunalarini ta’minlash mexanizmlari 3 xil usulda o‘rnatiladi:

- vertikal ta’minlash mexanizmi;
- gorizontal ta’minlash mexanizmi;
- qiya ta’minlash mexanizmi.


Vertikal ta’minlash mexanizmi asosan chigitli paxta tolalari tarkibidagi iflosliklarni tozalash uskunalarining ishchi kamera yuqori qismiga o‘rnatiladi. Bunday ta’minlash mexanizmlari iflosligi yuqori bo‘lmagan tolalarni tozalash uskunalariga tavsiya qilinadi (4-rasm).



4-rasm. Vertikal ta’minlash mexanizmi

ISSN 3030-3907


Gorizontal ta’minlash mexanizmi iflosligi yuqori bo‘lgan tolalarni titish va tozalash uskunalariga o‘rnatiladi (5-rasm). Jun tolasi ham ifloslanish darajasi yuqori bo‘lgan tolalar qatoriga kiradi.



5-rasm. Gorizontal ta’minlash mexanizmi

Tozalashda tola qatlamining bir me’yorda uzatilishi muhim ahamiyatga ega. Tolali qatlam gorizontal, vertikal va qiya holatda ta’minlovchi juftlar tomonidan tozalash mexanizmiga uzatiladi. Tozalash uskunalarida bunkerli ta’minlash usuli ham taklif qilinmoqda va qo‘llanilmoqda.

D.Jo‘rayevning ilmiy ishida taklif qilingan ta’minlash mexanizmida 55° S qiya o‘rnatilgan. Bu holatda tolani olib ketish me’yorini rostlashda qiyinlik tug’diradi. Tadqiqotlar natijasida ta’minlash mexanizmlarining o‘rnatilish usullaridan afzalligi va kamchiligi o‘rganilib, qiya holati va bunkerli usuli (6-rasm) tanlab olindi. Chunki ta’minlovchi valiklar uskunaga nisbatan 70° gradus qiyalikda o‘rnatilgan, diametri ikki marta kattalashganini evaziga tolani olib ketish samaradorligi oshgan.



6-rasm. Takomillashtirilgan bunkerli va qiya ta’minlash mexanizmi sxemasi

Yuqorida aytilganidek, 2BT-150Sh rusumli titish-tozalash uskunasining asosiy kamchiligi, uning jun bilan ta’minlash mexanizmi konstruksiyasini tolani bir hil me’yorda ta’minlamasligidir, natijada bu yerda tola tiqilishi sodir bo‘ladi, uskunaning ortiqcha energiya sarflanishiga va tola sifatining pasayishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari jun tutamini urib bo‘laklarga bo‘lish qoziqchalari va tola chiqish novi noqulay yasalishi, o‘simlik aralashmalaridan qisman tozalashi yoki (qo‘ytikan)larini umuman ajrata olmasligidir.

Adabiyotlarning tahlili. Jahonda tabiiy jun tolasini fizik mexanik usulda qayta ishlash va qimmatbaho mahsulot olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Dunyo miqyosida jun tolasini Avstraliya, AQSh, Xitoy, Argentina, Eron, Rosiya. Qozog‘iston va Yevropa mamlakatlari katta qismini yetishtiradi. Jundan sifatli tola olishda tarkibidagi mayda va yirik ifloslikdan samarali tozalash orqali qimmatbaho mahsulot ishlab chiqarishga erishish mumkin. Rossiyaning “OOO KardMach” korxonasi jun tolasini qayta ishlash va jun tarkibidagi yengil aralashmalarni tozalashga ixtisoslashgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublika va xorijda soha uchun texnika va texnologiyalar ishlab chiqaruvchi korxonalarni, texnologik jarayonlarni namunaviy modellari va, zamonaviy o‘lchov asboblari, tajriba uskunalarini, tahlil uchun organik xom ashyolarni tayyorlash, mahsulotning xavfsizlik ko‘rsatkichi texnologiyasini takomillashtirish.Ishlab chiqarish jarayonlaridagi ilmiy muammolarni, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiq etish va qo'llash tartibini bilish vu ulardan foydalana olishi.

Tahlil va natijalar. Jun tolasini dastlabki ishlash korxonalariga qabul qilingan xomashyo saralanadi va qo‘l yordamida yengil aralashmalardan ajratiladi. Jun tolasini titish-tozalash uskunasi yordamida xomashyo tarkibidagi organik va mineral chiqindilar, og‘ir aralashmali va iflosliklar tozalanadi. Jun tolasi tarkibidagi qiyin ajraluvchi o‘simlik qoldiqlari titish-tozalash va yuvish jarayonida ham ajralmay qoladi. O‘simlik qoldiqlarini tozalash uchun mexanik usulda tozalanadi.

Xulosa va takliflar. Jun tolasi tarkibidagi iflosliklarni tozalash uskunalari ish unumdorligi va ish samaradorligini oshirish uchun yangi ishchi organlar hamda mashinalarni ishlab chiqish asosida jun tolasidan o’simlikni tozalash texnologiyasini takomillashtirish, parametrlarini asoslash.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyuldagi PQ-5178 sonli “Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori, 2021 yil 8 iyuldagi PQ-5178-sonli Qaror.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni, 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli Farmon.
3. Nazarova M.A., Qayumov J.A. “Jun tolasini hususiyatlari tahlili asosida dag‘al jundan foydalanish ko‘lamini oshirish” // Andijon mashinasozlik Instituti “Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning innovatsion rivojlantirishdagi zamonaviy muammolar” mavzusida xalqaro-ilmiy amaliy konfrensiya 2020-y., 159-164 b.

ISSN 3030-3907

4. Ammayappan L., Nayak L.K., Ray D.P., Chakrabort S. Nanotechnological intervention on wool fibre for value addition // Asian Der Feb-March. 2014. P. 29-33.
5. Singha K., Maity S., Pandit P. Applications of wool composites for construction // Wool Fiber Reinforced Polymer Composites. Woodhead Publishing. 2022. P. 407-423.
6. Yamanova R.R. Sovremennыe metodы otbelivaniya sherstyanыx tekstilnыx matov // Vestnik Kazanskogo texnologicheskogo universiteta. 2015. Vol. 18, № 18. R. 159-160.
7. Gorelova A., Fayzullaev Sh., Gafurov K.G. Nerovnota smeshannoy kenafno-nitronovoy pryaji //To‘qimachilik muammolari Toshkent. 2007. № 3. 95-99 b.
8. Yusupov S. Sostoyanie proizvodstva i pererabotka shersti v Ikarda // Uzniikep, Uzbekistane. 2012. 1-10 b.
9. Vėjelis S., Skulskis V., Kremensas A., Vaitkus S., Kairyte A. Raw Sheep Wool Management for Thermal Insulation Materials: The Case of Lithuania // Journal of Natural Fibers. 2022. S 1-12.
10. ITD-15-115 ilmiy tadqiqot ishining hisoboti Mahalliy jun tolalarining xususiyatlarini tadqiqi asosida ularni uzunligi hamda yo‘g‘onligi bo‘yicha saralash va ip yigirishga tayyorlash texnologiyasini yaratish M.Qulmetov, Toshkent, 2010, 35 b.

ISSN 3030-3907

UDK 622.765/666.171

COALESCER FILTRLARINING QATTIQ ZARRACHALAR BILAN TO‘LIB QOLISH MUAMMOLARI

Yusupov Farxod Maxkamovich
Texnika fanlar doktori, professor, O’zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti, ORCID ID 0000-0003-2281-5131

Zukhridin Jalolidinov Isroiljon o’g’li
O’zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti tayanch doktoranti
e-mail: zukhridin.1997@gmail.com
tel: +998 94 384 54 77, ORCID ID 0009-0002-8456-0904

Rayimjonov Burhonjon Ikromjon o’g’li
O’zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti mustaqil tayanch doktoranti
ORCID ID 0009-0000-1761-2191

Annotatsiya. Ushbu maqolada coalescer filtrlari va ularning sanoat sohalaridagi ahamiyati tahlil qilindi. Filtrlarning qattiq zarrachalar bilan to‘lib qolgan namunani turli usullar yordamida kimyoviy tarkibi aniqlangan. Atomic Absorption Spectrophotometer (AAC-spektri) va X-ray fluorescensiya (XRF) spektroskopiyasidan olingan natija tasvirlari, natijalar coalescer filtrda Fe qattiq zarachalari bilan to’lib qolganligi haqidagi ilmiy asoslari keltirilgan. Dastlabgi ilmiy natijalar olindi va maqolada keltirildi.

Kalit so’zlar. Coalescer, filtir, temir, zarracha, vodorod xlorid, kislota.

Abstract. This article analyzes coalescer filters and their importance in industrial sectors. The chemical composition of the sample filled with solid particles in the filters was determined using various methods. The results obtained from Atomic Absorption Spectrophotometer (AAC-spectrum) and X-ray fluorescence (XRF) spectroscopy are presented, and the scientific basis for the results is presented, indicating that the coalescer filter is filled with Fe solid particles. Preliminary scientific results have been taken and outlined in the article.

Keywords. Coalescer, filter, iron, particle, hydrogen chloride, acid.

Аннотация. В этой статье анализируются коалесцирующие фильтры и их значение в промышленных секторах. Химический состав образца, заполненного твердыми частицами в фильтрах, определялся с использованием различных методов. Представлены результаты, полученные с помощью атомно-абсорбционного спектрометра (AAC-спектр) и рентгеновской флуоресцентной (XRF) спектроскопии, а также представлена научная основа результатов, указывающая на то, что коалесцирующий

ISSN 3030-3907

фильтр заполнен твердыми частицами Fe. Предварительные научные результаты были получены и изложены в статье.

Ключевые слова. Коагулятор, фильтр, железо, частица, хлористый водород, кислота.

KIRISH

Coalescer filtrlari sanoatning turli sohalarida, jumladan, neft-gaz, kimyo, energetika va aviatsiya sanoatida keng qo‘llaniladi. Ushbu filtrlar gaz va suyuqliklardan suv va mayda iflosliklarni ajratib olish uchun mo‘ljallangan. Biroq, ekspluatatsiya jarayonida coalescer filtrlari qattiq zarrachalar, ayniqsa temir qoldiqlari tufayli tezda to‘lib qolishi mumkin.[1]

Coalescer filtrlari mayda suyuqlik tomchilarini birlashtirish (coalescing) yo‘li bilan ajratib olishga mo‘ljallangan. Bu filtrlar odatda ikki bosqichli bo‘ladi:

1. **Koalesser bosqichi –** mayda tomchilarni yiriklashtirib, ajralishni osonlashtiradi.
2. **Ajratish bosqichi** – yirik tomchilar ajratilib, filtrlangan suyuqlik yoki gaz chiqadi.[2]

Ishlatilayotgan suyuqlik tarkibida ortiqcha qattiq zarrachalar, ayniqsa zang, metall qoldiqlari yoki boshqa mexanik aralashmalar mavjud bo‘lsa, filtr tezda to‘lib qoladi. Hozirgi kunda kop zavodlarda Coalescer filtrlardan foydalanilyotgani ma’lum. Coalescer filtrlarini temir zarachalaridan tozalash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

MATERIAL VA METODLAR

X-ray fluorescensiya (XRF) spektroskopiyasi — materiallarning element tarkibini aniqlash uchun ishlatiladigan kuchli tahlil usuli. Bu usul namuna yuzasiga yuqori energiyali rentgen nurlarini yo‘naltirish orqali ishlaydi. Ushbu nurlar materialdagi atomlarni qo‘zg‘atib, ularning o‘ziga xos ikkilamchi (fluoresan) rentgen nurlarini chiqarishiga sabab bo‘ladi. Har bir element o‘ziga xos energiyaga ega rentgen nurlarini chiqaradi, bu esa ularning aniqlanishini ta’minlaydi.[3][4][5]

Atomik Absorbsiya Spektrofotometri (AAS) – bu namunadagi ma’lum metall elementlarning konsentratsiyasini aniqlash uchun ishlatiladigan tahliliy asbobdir. U gaz holatidagi erkin atomlar tomonidan yorug‘likning yutilishini o‘lchash printsipiga asoslangan. Namuna alangada yoki grafit pechda bug‘lanib, metall ionlari erkin atomlarga aylanadi. Maxsus lampadan chiqqan yorug‘lik (har bir elementga xos bo‘lgan to‘lqin uzunligida) atomlar tomonidan yutiladi. Yutilgan yorug‘lik miqdori elementning konsentratsiyasiga to‘g‘ri proportsional bo‘ladi. Asbob yutilishni oldindan tayyorlangan kalibrovka grafigi bilan solishtirib, element miqdorini aniqlaydi.[6]

ISSN 3030-3907

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O‘zbekiston Respublikasida Coalescer filtrlari ishlatadigon zavodlar ko’pligini hisobga olsak, ularni har xil qattiq zarachalardan tozalash jarayoni hal etilmagan. Chet eldan olib kelinayotgan coalescer filtrlari tozalash bugungi kunda dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Coalescer filtrlari tozlash chet eldan valyuta hisobiga import qilinishini kamaytirish mumkin.



1-rasm. Qattiq zarachalar bilan to’lib qolgan coalescer filtr

Qattiq zarachalarga to’lib qolgan coalescer filtrni 2x2 sm^2 qilib kesib olib Epsulon3 X-ray fluorescence uskunasining mahsus yachekasiga qoyildi.

Application	12_08_2024
Sequence	1 of 1
Position	1
Measurement time	12-Aug-2024 11:11:28

Minimum He Flow (l/min)	0.82

Compound	F	Na	Mg	Si	S	Cl	K	Ca	Cr	Mn
Conc	33.816	2.900	0.256	26.427	95.352	3203.601	-4.311	6.383	271.956	8.598
Unit	cps	cps	cps	cps	cps	cps	cps	cps	cps	cps

Compound	Fe	Cu	Zn	Rb	Zr
Conc	3349.224	0.449	0.280	0.111	1.062
Unit	cps	cps	cps	cps	cps

2-rasm. Bu rasm X-ray fluorescensiya (XRF) tahlili natijalarini ko‘rsatadi. Jadvalda turli elementlarning namuna ichidagi konsentratsiyasi **cps (counts per second)** birliklarida berilgan.

Element	Konsentratsiya (cps)	Element	Konsentratsiya (cps)
F (Ftor)	33.816	**Cr (Xrom)**	271.956
Na (Natriy)	2.900	**Mn (Marganets)**	8.598
Mg (Magniy)	0.256	**Fe (Temir)**	3349.224
Si (Kremniy)	26.427	**Cu (Mis)**	0.449
S (Oltingugurt)	95.352	**Zn (Rux)**	0.280
Cl (Xlor)	3203.601	**Rb (Rubidiy)**	0.111

ISSN 3030-3907

K (Kaliy)	-4.311	**Zr (Zirkoniy)**	1.062
Ca (Kalsiy)	6.383		


Eng yuqori konsentratsiyaga ega bo'lgan element Fe (temir): 3349.224 cps (eng asosiy kompanent) ekanligini korishimiz mumkin.

AAC-spektr qurilmasida tekshirish metodi orqali 1×1 sm² o'lchamdagi namuna torozida tortib olinindi. 2.2084 g namunaga 20 ml HCl eritmasida eritildi 100 ml. Eritmani 0,45 mkm filtrdan o'tkazildi. 1 ml-100 ml-1ml-100 ml-1ml-10 ml ga suyiltirildi. Keyinchalik tahlil uchun atom absorbsiya spektrometriyasi (AAC- (SHIMADZU AA-700 Atomic Absorption Spectrophotometer)ga yuborildi.


A



B



C



3-rasm. AAC-spektrdan olingan natija tasviri.

ISSN 3030-3907

Element	To‘lqin uzunligi (nm)	Lampa toki (mA)	Yarim teshik kengligi (nm)	Lampa rejimi
Fe (Temir)	248.3	12	0.2	BGC-D2

Optik parametrlar (3-a rasm).

Kalibrovka egri chizig‘i (Calibration Curve) atom absorbsiya spektrometriyasi (AAS) uchun kontsentratsiya (ppm) va yutilish (Abs) orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Kalibrovka tenglamasi: Abs=0.035650×Conc−0.0068667, Korrelatsiya koeffitsiyenti **r = 0.9998**, bu esa juda yuqori aniqlikni bildiradi.

Standart nuqtalar: 1.0000 ppm – 0.0284 Abs, 2.0000 ppm – 0.0652 Abs, 3.0000 ppm – 0.0997 Abs (3-b rasm).

Natijalarni qurilma miqdoriy tahlil qilgandagi grafik tasvirdan Fe ionining miqdorini aniqlash mumkin hisoblanadi (3-c rasm).

$$x = \frac{5{,}3202 * 100 * 100 * 10}{10000} = 53{,}202\%$$

Xulosalar

Coalescer filtrlari sanoat sohalarida muhim rol o‘ynaydi, lekin ular noto‘g‘ri ekspluatatsiya qilinsa yoki texnik xizmat yetarlicha ko‘rsatilmasa, tezda to‘lib qolishi mumkin. Ayniqsa, qattiq zarrachalar va temir qoldiqlari filtr tizimlarining samaradorligini pasaytiradi. Ushbu muammoning oldini olish uchun muntazam texnik xizmat ko‘rsatish, sifatli filtr elementlaridan foydalanish va optimal ish sharoitlarini ta’minlash zarur. Shu yo‘l bilan ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin. Temirni aniqlashda zamaonaviy AAC (atomic absorption spectrometry) uskunasidan foydalanilgan. Uskuna natijasiga ko’ra coalescer filtridan olingan namuna tarkibida 53,202% Fe metali borligi aniqlandi. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak coalescer filtrlari to’lib qolishning asosiy qismi Fe zarachalardan iborat ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http://www.betong.net/ikbViewer/Content/19748/Einar%20E%20Johnsen%20-%20Glitne.pdf Archived 2016-09-18 at the Wayback Machine | Compact Electrostatic Coalescer Conference Paper.

2. Bhatta, N., Gautam, S., Kumar, A., Tafreshi, H. V., & Pourdeyhimi, B. (2024). Novel quasi-static method to simulate collection efficiency and pressure drop

ISSN 3030-3907

of coalescing filters. *Journal of Aerosol Science*, *183*, 106486. https://doi.org/10.1016/j.jaerosci.2024.106486

3. Beckhoff, B., Kanngießer, B., Langhoff, N., Wedell, R., Wolff, H., Handbook of Practical X-Ray Fluorescence Analysis, Springer, 2006, ISBN 3-540-28603-9
4. Bertin, E. P., Principles and Practice of X-ray Spectrometric Analysis, Kluwer Academic / Plenum Publishers, ISBN 0-306-30809-6
5. Buhrke, V. E., Jenkins, R., Smith, D. K., A Practical Guide for the Preparation of Specimens for XRF and XRD Analysis, Wiley, 1998, ISBN 0-471-19458-1
6. Koirtyohann, S. R. (1991). A HISTORY OF ATOMIC ABSORPTION SPECTROMETRY. *Analytical Chemistry*, *63*(21), 1024A-1031A. https://doi.org/10.1021/ac00021a716
7. Harvey, David (2016-05-25). "Atomic Absorption Spectroscopy". chem.libretexts.org. Archived from the original on 2017-10-06. Retrieved 2017-10-06.
8. Adams, F., & Barbante, C. (2015). X-Ray Imaging. In Comprehensive analytical chemistry (pp. 213–268). https://doi.org/10.1016/b978-0-444-63439-9.00006-2
9. Zhang, L., Ma, L., Lu, Z., & Bai, Z. (2025). The dynamics characteristics of droplet coalescence on fiber. Separation and Purification Technology, 354, 128563. https://doi.org/10.1016/j.seppur.2024.128563
10. Yao, P., & Feng, J. (2021). Stacking learning with coalesced cost filtering for accurate stereo matching. *Journal of Visual Communication and Image Representation*, *78*, 103169. https://doi.org/10.1016/j.jvcir.2021.103169

ISSN 3030-3907